

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**



PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA (PEDAGOGIKA)

Zamonaviy oliy ta'lim didaktikasi

**MODULI BO'YICHA
O'QUV-USLUBIY MAJMUUA**



TOSHKENT

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy ta`lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 25-avgustdagi 391-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchilar: **Sh.A. Abdullayeva** -pedagogika fanlari doktori, professor
A.B.To‘rayev-katta o‘qituvchi

Taqrizchilar: **p.f.f.d (PhD). F. Mirzayeva** - TDPU, “Pedagogika” kafedrası mudiri.

Xorijiy ekspert: p.f.d., professor N.L.Shexovskaya - Belgorod davlat universiteti, “Pedagogika va psixologiya” kafedrası mudiri

O‘quv-uslubiy majmua TDPU Kengashining 2023 yil 27-iyundagi 11-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.



MUNDARIJA

| | |
|--|------------|
| I. ISHCHI DASTUR..... | 4 |
| II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI..... | 11 |
| III. NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI..... | 13 |
| IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI..... | 88 |
| V. GLOSSARIY..... | 113 |
| VI. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR..... | 116 |



I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Dastur O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son va 2020 yil 29 oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmonlari, 2020 yil 27 fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-sonli Qarori, 2020 yil 30 sentyabrdagi O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi "O'qituvchi va murabbiylar–yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir" nomli nutqi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-sonli Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta'lim sohasi bo'yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari va o'quv rejalari asosida shakllantirilgan bo'lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish, oliy ta'lim didaktikasi negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo'yicha so'nggi yutuqlar bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda o'quv-metodik majmuada tinglovchilarning modul doirasidagi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar takomillashtirilishi mo'ljallangan.



Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: pedagog kadrlarga oliy ta'lim didaktikasining maqsadi, vazifalari, predmeti, ob'ekti, zamonaviy kategoriyalari, rivojlanish tendensiyalari, yondashuvlar haqida tushunchalarini boyitish, o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish kompetentligini oshirish, sohadagi ilg'or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o'zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirish.

Modulning vazifalari:

- oliy ta'lim pedagogikasi sohasidagi o'qitishning innovasion texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarini o'zlashtirish;

- "Pedagogika va psixologiya" yo'nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o'zaro integrasiyasini ta'minlash;

- zamonaviy didaktik metodlar, vositalarni chuqur o'zlashtirish asosida pedagogik jarayonlarni tashkil qilish kompetensiyalarini rivojlantirish.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar:

"Oliy ta'lim didaktikasi" o'quv moduli bo'yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- didaktikaning ob'ekti, predmeti, vazifalari, zamonaviy kategoriyalari va tushunchalarini;

- pedagogikaning dolzarb muammolari va ularni tadqiq etish metodlarini;

- pedagogik innovatsiya metodologiyasi (umumiy tushunchalari, rivojlanish qonuniyatlari, omillari va o'ziga xos xususiyatlari)ni *bilishi* kerak.

Tinglovchi:

- innovasion-pedagogik faoliyat tuzilmasi va mazmuni (innovator-pedagog shaxsining tuzilmasi; innovasion-pedagogik faoliyatning jarayonli tarkibiy qismi; ilmiy-metodik tadqiqot va amaliy innovatsion faoliyatning boshqa shakllari)ni ishlab chiqish;

- samarali ta'lim indikatorlaridan foydalanish;

- innovasion-pedagogik muammolarni hal etishning tayanch strategiyasi va pedagogik asarlar tavsifini yaratish *ko'nikmalariga* ega bo'lishi zarur.

Tinglovchi:

- ta'lim mazmunini tanlash;

- didaktik yondashuvlardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish;



- didaktik tizimlar asosida pedagogik jarayon ishtirokchilarining professional faoliyati va ularga qo'yiladigan didaktik talablarni tahlil qilish;
- pedagogikaning fan, ta'lim va ishlab chiqarishdagi integratsiyasini tahlil qilish;
- pedagogik jarayonda predmetlararo aloqadorlik masalalari (STEAM-ta'limi)dan keng foydalanish *malakalariga* ega bo'lishi zarur.

Tinglovchi:

- ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion muhitni yaratish;
- pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo'llari va shartlarini takomillashtirish;
- nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun materiallarni to'plash va ularni saralashda kreativ yondashuvni amalga oshirish;
- o'quv axborot (ma'lumot)larini samarali izlash;
- mavzu mohiyatidan kelib chiqqan holda to'liq, g'oyaviy mazmun va ilmiy asoslarga ega, amaliy qiymatga ega o'quv materialini tayyorlay olish;
- nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun didaktik ishlanmalar tayyorlash;
- talabalarning mustaqil ta'limi va ijodiy izlanishlarini tashkil etish;
- talabalarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholash *kompetensiyasiga* ega bo'lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

“Oliy ta'lim didaktikasi” moduli ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, blis-so'rovlar, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, va boshqa interfaol ta'lim metodlarini qo'llash nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

“Oliy ta'lim didaktikasi” moduli bo'yicha mashg'ulotlar o'quv rejasidagi “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish”, “Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish”, “Pedagogik fanlarni o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirish”, “Kreativ pedagogika asoslari”, “Pedagogning mahorati va kompetentligi” kabi modullar bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar Oliy ta'lim didaktikasi uning dolzarb muammolari, ularni yechimini topishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot metodlarini tahlil etish va amaliyotda qo'llash malakalari, pedagogik kompetentlik sifatleri va kreativ qobiliyatga ega bo'ladi.

MODUL BO'YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

| | | Auditoriya o'quv yuklamasi | | |
|--------------|---|----------------------------|-----------|-----------|
| | | Jami | Jumladan | |
| | | | Nazariy | Amaliy |
| 1. | Oliy ta'lim didaktikasining maqsadi, vazifalari, zamonaviy kategoriyalari va tushunchalari, rivojlanish tendensiyalari | 4 | 2 | 2 |
| 2. | Pedagogikaning dolzarb muammolari va ularni tadqiq etish metodlari | 2 | 2 | 2 |
| 3. | Pedagogika va ta'lim metodikasidagi innovatsion oqimlar va muammolar | 2 | 2 | |
| 4. | Didaktik tizimlar va ularning turlari | 4 | 2 | 2 |
| 5. | Pedagogikaning fan, ta'lim va ishlab chiqarishdagi integratsiyasi. pedagogik jarayonda predmetlararo aloqadorlik masalalari | 2 | 2 | |
| 6. | O'zbekistonda oliy ta'lim didaktikasining rivojlanish tarixi | 2 | | 2 |
| 7. | Oliy ta'lim didaktikasida zamonaviy o'qitish konsepsiyalari | 2 | | 2 |
| 8. | Oliy ta'lim didaktikasida innovatsion oqimlar va muammolar | 2 | | 2 |
| 9. | Didaktik jarayonda predmetlararo aloqadorlik masalalari | 2 | | 2 |
| Jami: | | 24 | 10 | 14 |



NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU: OLIY TA'LIM DIDAKTIKASINING MAQSADI, VAZIFALARI, ZAMONAVIY KATEGORIYALARI VA TUSHUNCHALARI, RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Oliy ta'lim didaktikasining maqsadi, vazifalari, predmeti va ob'ekti. Oliy ta'lim didaktikasining zamonaviy kategoriyalari va rivojlanish tendensiyalari.

Innovatsion-pedagogik faoliyat tuzilmasi va mazmuni: tizim sifatida mohiyati; innovator-pedagog shaxsining tuzilmasi; innovatsion-pedagogik faoliyatning jarayonli tarkibiy qismi; ilmiy-metodik tadqiqot va amaliy innovatsion faoliyatning boshqa shakllari.

Pedagogik innovatsiya (yangilanish) metodologiyasi: umumiy tushunchalari, rivojlanish qonuniyatlari, omillari va o'ziga xos xususiyatlari.

2-MAVZU. PEDAGOGIKANING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNI TADQIQ ETISH METODLARI.

Oliy ta'lim didaktikasining asosiy muammolari va tamoyillari

Oliy ta'limda pedagogik jarayonni tashkil qilish va ta'lim faoliyatini amalga oshirish usullarini ilmiy asoslash. Didaktikada ta'lim va tarbiyaning uzviy aloqadorligi prinsipi. Optimal o'qitish yo'llarini aniqlash, o'quv texnologiyalarining tarkibi, usullari, shakllarini tanlash.

3-MAVZU. PEDAGOGIKA VA TA'LIM METODIKASIDAGI INNOVATSION OQIMLAR VA MUAMMOLAR.

Didaktik innovatsiyalarni ilmiy asoslash manbalari. Oliy ta'lim didaktikasida paradigmalarni tavsifi. Ta'lim mazmunini tanlashga oid nazariyalar. Oliy ta'limda innovatsion ta'limni amalga oshirish shakllari va usullari

4-MAVZU: DIDAKTIK TIZIMLAR VA ULARNING TURLARI

Didaktik tizim tushunchasi. Didaktik tizimlar va o'quv modellari. Pedagogik jarayon ishtirokchilarining professional faoliyati va ularga qo'yiladigan didaktik talablar. Kasbiy didaktik tayyorgarlikning rivojlanishini ta'minlaydigan pedagogik funksiyalar tizimi



5-MAVZU: PEDAGOGIKANING FAN, TA'LIM VA ISHLAB CHIQRISHDAGI INTEGRATSIYASI. PEDAGOGIK JARAYONDA PREDMETLARARO ALOQADORLIK MASALALARI.

O'quv texnologiyalarini takomillashtirish (modernizatsiya qilish). Pedagogik vositalarni takomillashtirish. Didaktikada fan, ta'lim, ishlab chiqarish integratsiyasi masalalari. STEAM-ta'limi.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-AMALIY MASHG'ULOT: OLIY TA'LIM DIDAKTIKASINING ZAMONAVIY KATEGORIYALARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI (2 soat).

Oliy ta'lim didaktikasining asosiy kategoriyalari, uning asosiy tamoyillari va ilmiy-tadqiqot metodlarini chuqur bilishi va shu asosda pedagogik faoliyatini tashkil qila olish.

2-AMALIY MASHG'ULOT: OLIY TA'LIM DIDAKTIKASINING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNI TADQIQ ETISH METODLARI (2 SOAT)

Oliy ta'lim didaktikasining asosiy muammolari va tamoyillari

Oliy ta'limda pedagogik jarayonni tashkil qilish va ta'lim faoliyatini amalga oshirish usullarini ilmiy asoslash. Didaktikada ta'lim va tarbiyaning uzviy aloqadorligi prinsipi. Optimal o'qitish yo'llarini aniqlash, o'quv texnologiyalarining tarkibi, usullari, shakllarini tanlash.

3-AMALIY MASHG'ULOT: DIDAKTIK TIZIMLAR VA ULARNING TURLARI (2-SOAT)

Didaktik tizim tushunchasi. Didaktik tizimlar va o'quv modellari. Pedagogik jarayon ishtirokchilarining professional faoliyati va ularga qo'yiladigan didaktik talablar. Kasbiy didaktik tayyorgarlikning rivojlanishini ta'minlaydigan pedagogik funksiyalar tizimi.

4-AMALIY MASHG'ULOT: O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM DIDAKTIKASINING RIVOJLANISH TARIXI (2 SOAT)

Pedagogik innovatsiyalarni ilmiy asoslash manbalari. Ta'lim mazmunini tanlashga oid nazariyalar. Innovatsion-pedagogik muammolarni hal etishning tayanch strategiyasi va pedagogik asarlar tavsifi. Innovatsion-pedagogik faoliyat metodlari: didaktik yondashuvlar



5-AMALIY MASHG'ULOT: OLIY TA'LIM DIDAKTIKASIDA ZAMONAVIY O'QITISH KONSEPSIYALARI (2 SOAT)

Oliy ta'lim didaktikasining maqsadi, vazifalari, predmeti va ob'ekti. Oliy ta'lim didaktikasining zamonaviy kategoriyalari va rivojlanish tendensiyalari.

6-AMALIY MASHG'ULOT: OLIY TA'LIM DIDAKTIKASIDA INNOVATSION OQIMLAR VA MUAMMOLAR (2 SOAT)

Didaktik innovatsiyalarni ilmiy asoslash manbalari. Oliy ta'lim didaktikasida paradigmlar tavsifi. Ta'lim mazmunini tanlashga oid nazariyalar. Oliy ta'limda innovatsion ta'limni amalga oshirish shakllari va usullari.

7-AMALIY MASHG'ULOT: DIDAKTIK JARAYONDA PREDMETLARARO ALOQADORLIK MASALALARI (2SOAT)

Didaktik jarayonda predmetlararo aloqadorlik masalalari haqida tushuncha. Pedagogik faoliyatini tashkil qilish.

8- AMALIY MASHG'ULOT: DIDAKTIKADA FAN, TA'LIM, ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI MASALALARI. STEAM TA'LIMI.(2 SOAT)

Didaktikada fan, ta'lim, ishlab chiqarish integratsiyasi masalalari. STEAM ta'limi haqida tushuncha.

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:


- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, motivatsiyani rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);

- davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);

bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI

Ta'lim samaradorligini oshirishda o'ziga xos zamonaviy yondoshuvlaridan biri bu innovatsion yondashuv bo'lib, bunda o'qitish jarayonlarini tashkil etishda shakl, metod va vositalarning o'zaro uyg'unligini hisobga olgan holda tanlash asosida



o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini rivojlantirish sanaladi.

Innovatsion yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etishda uning asosiy komponenti interfaol ta'lim metodlari hisoblanadi.

Interfaol metodlar deganda-ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida subhekt-subhekt munosabatini tashkil etuvchi metodlar tushuniladi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda interfaol ta'limning samarali jihatlarini quyidagicha baholanadi:

Interfaol ta'lim metodlari ta'lim oluvchilardagi bilish jarayonlarini faollashtirish, o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni aniq vaziyatlarda qo'llash olish, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ijodiy izlanish imkonini beradi.

Interfaol ta'lim metodlari – ta'lim oluvchilardagi motivatsiyani, nostandart vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olish ko'nikmalarini, tadqiqotchilik faolligi, kreativ fikrlash ko'nikmasini rivojlantiradi.

Interfaol ta'lim muhiti ta'lim oluvchilarda muammolarni ko'ra bilish, tahlili qilish, faol hayotiy pozisyani shakllantirish, tolerantlik, o'zgarlar fikriga hurmat, jamoadagi hamkorlik, hayotiy qadriyatlarini rivojlantirishga qulay shart-sharoitlarni yaratadi.

Zamonaviy ta'lim dasturlari asosida innovatsion texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etishda mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimida rivojlangan xorijiy mamlakatlarning o'qitish amaliyotida qo'llanilayotgan ilg'or pedagogik texnologiyalar va ta'lim innovatsiyalaridan foydalanilmoqda.

Ta'limning shaxsga yo'naltirilganligi. O'z mohiyatiga ko'ra bu yo'nalish ta'lim jarayonidagi barcha ishtirokchilarning to'laqonli rivojlanishini ko'zda tutadi. Bu esa Davlat ta'lim standarti talablariga rioya qilgan holda o'quvchining intellektual rivojlanishi darajasiga yo'naltirilib qolmay, uningning ruhiy-kasbiy va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishni ham anglatadi.

Imitatsion o'yinlar - bo'lim, sex, korxonatashkilotning faoliyati-imitatsiya qilinadi. Imitatsion o'yinlar ssenariyasi, hodisa syujetidan tashqari, imitatsiya

qilinadigan jarayon va obyektlar tarkibi va ahamiyati haqidagi tafsilotlarni o'z ichiga oladi.

Operatsion o'yinlar - tegishli ish jarayoni, ularni bajarish shart-sharoitini modellashtiradilar. Ular ma'lum bir o'ziga xos operatsiyalarni: - masalalar yechish, ma'lum bir usulni o'zlashtirishga yordam beradilar.

Rolli o'yinlar - ma'lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holatlari, xatti-harakati ishlanadi, rollar majburiy mazmuni bilan taqsimlanadi.

«**Modulli o'qitish**» termini xalqaro tushuncha - modul bilan bog'liq bo'lib («modul», lat. modulus), uning bitta mahnosi faoliyat ko'rsata oladigan o'zaro chambarchas bog'liq elementlardan iborat bo'lgan tugunni bildiradi. Bu mahnoda u modulli o'qitishning asosiy vositasi sifatida, tugallangan axborot bloki sifatida tushuniladi.



O'qitish usullari va texnikasi: “Keys-stadi”, “Blis-so'rov”, “Tushunchalar tahlili”, “Zinama-zina”, “Munosabat”, “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Zig-zag”, “Idrok xaritasi”, “Muzyorar”, “Bahs-munozara”, “T-jadval”,

(**Grafik organayzerlar**): “Baliq skeleti”, “BBB”, “Konseptual jadval”, “Toifalash jadvali”, “Venn diagrammasi”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” va boshqalar.

Interfaol ta'lim quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Mashg'ulot – ma'ruza emas, balki jamoaning umumiy ishi.
2. Guruhning tajribasi o'qituvchi (pedagog)ning tajribasidan ko'p.
3. Talabalar yosh, ijtimoiy mavqe va tajribaga ko'ra o'zaro teng.
4. Har bir talaba o'rganilayotgan muammo yuzasidan o'z fikrini aytish huquqiga ega.
5. Mashg'ulotda talaba shaxsi tanqid qilinmaydi (fikir tanqid qilinishi mumkin).
6. Bildirilgan g'oyalar talabalarning faoliyatini boshqarmaydi,

Interfaol ta'lim asosini interfaol metodlar tashkil etadi. “Ta'lim jarayonida talabalar hamda o'qituvchi o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish, faollikni oshirish ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlarni samarali o'zlashtirish, ularda shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodlar interfaol metodlar sanaladi”.



III. NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU: OLIY TA'LIM DIDAKTIKASINING MAQSADI, VAZIFALARI, ZAMONAVIY KATEGORIYALARI VA TUSHUNCHALARI, RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

REJA:

1. Oliy ta'lim didaktikasining maqsadi, vazifalari, predmeti va ob'ekti. Oliy ta'lim didaktikasining zamonaviy kategoriyalari va rivojlanish tendensiyalari.

2. Innovatsion-pedagogik faoliyat tuzilmasi va mazmuni: tizim sifatida mohiyati; innovator-pedagog shaxsining tuzilmasi; innovatsion-pedagogik faoliyatning jarayonli tarkibiy qismi; ilmiy-metodik tadqiqot va amaliy innovatsion faoliyatning boshqa shakllari.

3. Pedagogik innovatsiya (yangilanish) metodologiyasi: umumiy tushunchalari, rivojlanish qonuniyatlari, omillari va o'ziga xos xususiyatlari.

Tayanch tushunchalar: oliy ta'lim, didaktika, zamonaviy kategoriyalar, rivojlanish tendensiyalari, o'qitish konsepsiyalari, pedagogik jarayon, modellashtirish, o'quv faoliyati, didaktik tadqiqotlar.

1. Oliy ta'lim didaktikasining maqsadi, vazifalari, predmeti va ob'ekti. Oliy ta'lim didaktikasining zamonaviy kategoriyalari va rivojlanish tendensiyalari. O'zbekiston Respublikasida ta'lim sifatini tubdan o'zgartirish, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda o'qitishning ilg'or metodlarini joriy etish orqali shaxsning sub'ekt sifatida namoyon bo'lishiga keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

2017 yil 7 fevralda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da mamlakatda yangi mazmundagi uzluksiz ta'lim tizimini yaratish vazifasi qo'yildi, uning tarkibida esa yangi mazmun va mohiyatdagi innovatsion oliy ta'lim tizimini shakllantirish bosh yo'nalish sifatida belgilandi hamda ta'lim jarayoni sub'ektlari faoliyatini innovatsion tashkil etish texnologiyalarini takomillashtirishga yo'naltirildi¹

Mamlakatimizda so'nggi yillarda uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017 yil, 6-son.



munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori kon'yunkturasi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda.

Globallashuv sari borayotgan hozirgi dunyoda davlatning xalqaro raqobat jarayoni shartlariga tez moslashuvi uning muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi. Bunda yuksak taraqqiy etgan davlatlarning asosiy ustunligi - ta'lim tizimining holati bilan aniqlanadigan, shaxsni rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligi bilan bog'liq. Davlatning bugungi va istiqboldagi barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi omillar ham aynan ta'lim sohasi rivojlanishiga bevosita bog'liqdir.



DIDAKTIKA yunoncha «didaktikos» so'zidan olingan bo'lib, «o'rgatuvchi», «didasko» esa – «o'rganuvchi» ma'nosini bildiradi. U ta'limning nazariy jihatlarini (ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar faoliyati mazmuni, ta'lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va hokazo muammolar) ni o'rganuvchi pedagogikaning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Didaktikaning so'zma-so'z tarjimasini «ta'lim nazariyasi» ma'nosini anglatadi. Bu atamani nemis pedagogi V.Ratke (1571–1635) fanga kiritgan, deb hisoblanadi. Didaktika nomi ostida u fanni nazariy va metodologik asoslarini tadqiq qiladigan ilmiy sohani tushundi. Didaktikaning fundamental ilmiy asoslari ilk bor Ya.A.Komenskiy tomonidan ishlab chiqilgan. 1657-yilda u chex tilida «Buyuk didaktika» asarini yozdi. Didaktikani Komenskiy «hammani hamma narsaga o'rgatish san'ati» deb tushuntirdi.



Didaktika – ta'lim jarayoni, mazmuni, qonuniyat va tamoyillari, shakl, metod va vositalarini ilmiy asoslab beruvchi ta'lim nazariyasi, pedagogikaning alohida sohasi.

Ta'limda o'qituvchining boshqaruvchilik roli o'z kasbining ijtimoiy asoslaridan kelib chiqib, ajdodlarining boy tajribasini, insoniyatning asrlar davomidagi bilish, mehnat, muloqot, umumiy aloqalar, estetik hamda axloqiy qarashlar jarayonida qo'lga kiritgan yutuqlarni egallashni shart qilib qo'yadi.



O'quvchilar faoliyati o'quv jarayonida o'rganishga, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiyalarni egallashga yo'naltiriladi.

O'qitish jarayoni pedagogning o'rgatuvchilik faoliyatini va o'quvchilarning maxsus tashkil etilgan bilish faoliyatini o'z ichiga oladi. Shu o'rinda bu jarayonlarning tahliliga e'tibor qarataylik. Ta'limda o'qituvchining boshqaruvchilik roli o'z kasbining ijtimoiy asoslaridan kelib chiqib, ajdodlarining boy tajribasini, insoniyatning asrlar davomidagi bilish, mehnat, muloqot, umumiy aloqalar, estetik hamda axloqiy qarashlar jarayonida qo'lga kiritgan yutuqlarni egallashni shart qilib qo'yadi.

Bularning barchasi o'qituvchining ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalarini amalga oshirishida o'z aksini topmog'i lozim. Ana shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lim jarayonida o'qituvchi o'quvchilariga qo'lga kiritilgan bilimlarni o'rgatadi. O'quv faoliyatida ularni ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradi. Shu bilan bir paytda u o'quvchilarda dunyoqarash va axloq normalarini hosil qiladi, qiziqish va qobiliyatlarni shakllantiradi, ularning bilish faolligini oshiradi. O'qituvchining faoliyati o'quvchi shaxsining maqsadga muvofiq shakllanishiga katta imkoniyatlar ochib beradi. Yanada aniq qilib aytsak, butun o'quv jarayonini rejalashtiradi, ushbu jarayonda o'quvchilar bilan birgalikdagi faoliyatni tashkil etadi. O'quvchilarga qiyinchiliklarni yengib o'tishda yordam beradi hamda ularning bilimlarini va butun ta'lim jarayonini tashxis qiladi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning faoliyati ko'p qirrali yo'nalgan harakatni ifodalaydi va bu harakat bilishga doir vazifalarni hal qilishda ularga katta yordam beradi.

Didaktika ilmiy bilimlar tizimi sifatida birinchi marta chex pedagogi Yan Amos Komenskiyning «Buyuk didaktika» (1657-yil) asarida ochib berilgan.



Didaktikada ta'limni tashkil etishning umumiy masalalari, o'qitish jarayonining mohiyati, ta'limning mazmuni, o'qitish qonuniyatlari, o'qitish tamoyillari, metodlari, uning tashkiliy shakllari yoritiladi.

Didaktika «nimaga o'qitish?», «nimani o'qitish?» «qanday o'qitish?» «qaerda o'qitish» kabi savollarga javob izlaydi.

Didaktika va metodika mustahkam aloqa va o'zaro bog'liqlikda joylashadi. Didaktika o'qitishning umumiy qonuniyatlarini o'rganadi. Aniq bir predmetni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari xususiy metodikalarda ishlab chiqiladi.

Didaktikaning ob'ekti – o'sib kelayotgan avlodga ijtimoiy tajribalarni, milliy va umuminsoniy madaniyatni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyatning asosiy turi hisoblangan ta'lim berishdir.

Didaktikaning predmeti sifatida o'rgatish (o'qituvchi faoliyati) va o'rganish (o'quvchilarning bilish faoliyati), ularning o'zaro harakati aks etadi.



Didaktikaning asosiy kategoriyalari. Muayyan fanga xos bo'lgan tushunchalarda insoniyat tomonidan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida to'plangan bilimlar aks etadi.

Didaktikaning **asosiy kategoriyalari** quyidagilardan iborat: *o'rgatish, o'rganish, o'qitish, ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, maqsad, mazmun, tashkil etish, shakl, metod, vosita, natija.*

| Didaktikaning asosiy kategorioyalari | Mazmuni |
|---|---|
| O'rgatish- | O'qitish maqsadini amalga oshirish bo'yicha pedagogning tartiblangan faoliyati |
| O'rganish- | Anglash, mashq qilish va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni, oldin egallanganlari o'zgaradi |
| O'qitish- | Qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan pedagog bilan o'quvchilarning tartiblangan o'zaro harakati |
| Ta'lim- | O'qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko'nikma, malakalar, kompetensiya va fikrlash usullari tizimi |
| Ko'nikma- | Egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo'llash usullarini egallash |
| Malaka- | Avtomatlashgan, biror bir usul bilan bexato bajarish, ko'nikmaning takomillashgan darajasi |
| Kompetentsiya- | Tugallangan bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatga qo'llay olish layoqati |
| Mazmun- | O'qitish jarayonida egallanishi lozim bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, faoliyat, fikrlash usullari tizimi |
| Maqsad- | O'qitishning nimaga qaratilganligi, uning kuchlarikelgusida qay yo'sinda safarbar etilishi |

2. Innovatsion-pedagogik faoliyat tuzilmasi va mazmuni: tizim sifatida mohiyati; innovator-pedagog shaxsining tuzilmasi; innovatsion-pedagogik faoliyatning jarayonli tarkibiy qismi; ilmiy-metodik tadqiqot va amaliy innovatsion faoliyatning boshqa shakllari. Zamonaviy ta'lim paradigmalari. Paradigma (grekcha, paradeigma) so'zining o'zi keng ma'noda turmush va fikrlashning biror sohasining fundamental asoslarini aniqlab beruvchi o'ziga xos tuzilishga ega nazariya deb izohlanadi.



Ta'limning yangi paradigmasining paydo bo'lishi faqat ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lmasdan, u butun madaniy rivojlanish jarayonida yuzaga kelgan. Uning shakllanishida insonparvarlik falsafasi va psixologiyasi asosiy o'rin egallaydi. Mazkur konsepsiyaning asosiy nuqtai nazari – har bir alohida inson hayotining o'ziga xosligi, har bir shaxs noyob, individual, shartsiz qadriyat ekanligini e'tirof etish. Insonparvar falsafa va psixologiya o'z-o'zini realizatsiyalash, o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyojini insonning yuksak ehtiyoji deya e'tirof etib, insonning o'z noyobligini asrash va rivojlantirish, insonning erkinlikka erishish mexanizmi sifatida individual shaxsiy tanlovni amalga oshirishni o'zida namoyon etish, qilingan tanlov uchun javobgarlikni bo'yniga olishda ularni amalga oshirishning muhim shartini ko'radi. Shuning uchun shaxsning rivojlanishi va insonning shakllanishi boshqalar bilan hamjihatlikda, ishonch, oshkoralik, sevgiga asoslangan insonparvar munosabatlarni o'rnatish jarayonida sodir bo'ladi.

Paradigma – aniq vaqt doirasida ilmiy jamoatchilikka muammolarni aniqlash va ularni hal etish modeli sifatida taqdim etiladigan barcha ilmiy yutuqlarga tegishli tadqiqot vazifalarini hal etish namunasi sifatida qabul qilingan nazariya.

Tashkil etish – qo'yilgan maqsadni samarali amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar bo'yicha tartiblangan didaktik jarayon.

Ta'limga yangicha yondashuv: yaqin zonadan rivojlanish va inson rivojlanishida birgalikdagi faoliyatni roli haqidagi ta'limot, shaxsning hayotiy faoliyatdagi vazifalari, fikriy soha, insonning reflektiv imkoniyatlarining rivojlanishi, o'quv faoliyati jarayonida uning psixik rivojlanish qonuniyatlari haqidagi tadqiqotlar shular jumlasidandir.

Shakl – o'quv jarayonining tashqi ifodasi, uning ichki mohiyati, mantig'i, mazmuni uchun qobiq.

Metod – o'qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) yo'li

Vosita – o'quv jarayonining predmetli qo'llab-quvvatlanishi, yangi materialni o'zlashtirish jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan foydalaniladigan obekt.

Natija – o'quv jarayonining so'nggi mahsuli, belgilangan maqsadlarning amalga oshganlik darajasi.

O'qitish jarayoni mohiyati va uning vazifalari. **O'qitish** – o'qituvchi va o'quvchilarning maqsadga qaratilgan birgalikdagi faoliyati jarayoni bo'lib, bu jarayonda o'quvchilarni rivojlantirishni amalga oshiradigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar yuzaga chiqadi.

O'qitish jarayoni uchta vazifani bajaradi: ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi.



O'qitish jarayonining **ta'limiy vazifasi** o'quvchilarda bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat

O'qitish natijasi sifatida bilimlarining to'liqligi, chuqurligi, tizimligi, anglanganligi, mustahkamligi va amaliy xususiyat kasb etishi muhimdir. Bu kabi holatlar ta'lim jarayonining metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilganligini ifodalaydi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarda ular tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida hosil qilingan amaliy ko'nikma va malakalar hamda kompetensiyaning shakllanishi ham alohida ahamiyatga ega.

O'qitishning **tarbiyaviy vazifasi** ta'lim jarayonida shaxsning ma'naviy-axloqiy va estetik tasavvurlari, xulq-atvori va dunyoqarashi shakllantirilishida o'z ifodasini topadi. Ta'limning tarbiyaviy xususiyati, eng avvalo, ta'lim mazmunida aks etadi. O'qitish jarayonida tarbiyaning ikkinchi omili o'qituvchi va o'quvchilarning munosabatlari, sinfdagi psixologik muhit, o'qish jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlari, o'quvchilarning idrok etish faoliyatlariga o'qituvchining rahbarligi hisoblanadi.

O'qitishning **rivojlantiruvchi vazifasi** o'quvchi nutqining, fikrlashi, shaxsning sensorli va harakatlanish sohalari, emotsional-irodaviy, intellektual sohasini rivojlantirishda o'z aksini topadi. O'qitish jarayonida o'quvchini aqliy rivojlantirish, aqliy faoliyat usullari, analiz qilish, taqqoslash, tasniflash, kuzatish, xulosa chiqarish, obektlarning muhim belgilarini ajrata bilish, faoliyat maqsadi va usullarini aniqlashni bilishga o'rgatish, uning natijalarini tekshirish malakasini rivojlantirishga erishiladi.

O'qitish jarayonining bosqichlari. O'qitish o'qituvchi rahbarligida o'quvchining o'quv materiallarini rejali ravishda bilib olish jarayonidir. Bu jarayonni bilish bosqichidan iborat bo'lgan tarkibiy qismlarga (yoki komponentarga) ajratish mumkin. O'quvchi bilmaslikdan bilish, uddasidan chiqqa olmaslikdan uddulay olish, malakalar hosil qilish yo'lidan borib, ushbu bosqichlardan o'tishi kerak.

O'qitish jarayoni 4 ta asosiy bosqichdan iborat:

- o'zlashtirilishi lozim bo'lgan materialni idrok etish;
- bilimlarni mustahkamlash;
- tushunchalarni hosil bo'lishi;
- kompetensiyalarni tarkib toptirish

Har bir bosqich uchun o'quvchilarning muayyan xarakterdagi bilish faoliyati xarakterlidir. Bu faoliyat o'qituvchi tomonidan alohida rahbarlikni talab etadi.

O'rganilayotgan materialni idrok qilish. O'quvchilarning o'rganilayotgan (yoki o'rganilishi lozim bo'lgan) materialni idrok qilishini tashkil etar ekan, o'qituvchi ularning hayotiy tajribasi va tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda



material to'g'risida umumiy tasavvur hosil qilib, oldindan uni butunligicha tushuntiradi va ko'rsatadi.

O'rganilayotgan materialni anglash- o'rganilayotgan ob'ekt haqidagi umumiy tasavvur asosida uni tushunishni ta'minlovchi, asta-sekin chuqurlashib boruvchi jarayon.

Bilimlarni mustahkamlanishi, ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishi o'quv materialini idrok etish va faqmlab olish jarayonida o'zlashtirish, mustahkamlash va takomillashtirishni talab etadi.

Inson faoliyatining hamma asosiy turlari (mehnat, fan, san'at, o'yin, sport) uning tevarak-atrof olamni va o'z-o'zini bilish bilan bog'langan. O'qish tevarak-atrofdagi olamni bilishning maxsus tashkil etilgan va o'qituvchi rahbarlik qiladigan alohida turidir. Bu jarayonning mohiyati – bilim, ko'nikma malaka va kompetensiyalarni hosil qilish, o'quv fanlari mazmunini o'zlashtirib olish va bilish kuchlarini rivojlantirishdir.

Bilim, ko'nikma va malakalarni amalda qo'llash jarayoni ta'limning yakuniy mustaqilligini asta-sekin va izchillik bilan oshirib borishni talab etadi.

Ta'lim jarayonining bu ikki tomoni (o'qitish va o'qish) bir maqsad: ta'limning xilma-xil vositalari va metodlaridan foydalangan holda o'quv materialni egallab olish maqsadi bilan birlashgandir.

Tahsil oluvchining bilish faoliyati va uning tuzilishi. O'rgatuvchilik faoliyati yoki o'qitish, o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarishdan iborat bo'ladi va ularni mashg'ulotlar uchun uyushtirishda, ularning diqqati, tafakkuri, hatti-harakati va hokozolariga rahbarlik qilishda, ular oldiga ularning faoliyatini tobora murakkablashtirilgan vazifalarni izchillik bilan qo'yib borishda, ularni tekshirib borish kabilarda o'z ifodasini topadi.

O'quv faoliyati yoki o'qish bilim, ko'nikma va malakalarni egallab olishning murakkab jarayoni bo'lib, o'quvchilarning intellektual, irodaviy va jismoniy kuch-g'ayratini talab etadi hamda ularning rivojlanishini rag'batlantiradi. O'qituvchining oqilona biror maqsadga qaratilgan rahbarligi va o'quvchilarning esa faol ongli ishtirokisiz, ta'lim jarayonida ijobiy natijalar bo'lishi mumkin emas. Ma'lumki, bilish faoliyatining subekti o'quvchi sanaladi. Shu bois ijtimoiy-pedagogik asoslarga ega ta'lim markazida uning shaxsi, ongi, ham o'rganilayotgan olamga, ham bilish faoliyatidagi hamkorlariga: o'quvchilar va uning ta'lim olishini tashkil etuvchi va yo'naltiruvchi o'qituvchilar munosabati yotadi. Bu masala barcha davrlarda birdek ahamiyat kasb etib kelgan.

Ta'limda tahsil oluvchining faoliyati haqida gap borganda o'quvchining bilish faolligi tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. O'quvchining bilish faolligi uning bilish jarayonidagi intellektual mulohazasida, umumiy va alohida topshiriqlarni bajarishida namoyon bo'ladi. Bu xususiyatlar o'quvchilarning faqatgina yuqori



darajadagi bilim olishini kafolatlab qolmay, balki uning hayotiy faoliyati, ya'ni o'quvchi shaxsining shakllanishi, uning amaliyotga, hayotga bo'lgan faol munosabati uchun harakterlidir. Shu sababli bilish faolligini oshirish insonning faol hayotiy qarashlarini shakllantirish deb bemalol aytish mumkin.

Tahsil oluvchining bilish faoliyatining yana bir farqli xususiyati uning kechish xarakteridir. O'quvchining bilish faoliyati maqsadi ham, mazmuni ham, usullari ham dasturga kiritilganligi bois, o'quvchi jalb etilayotgan ta'lim jarayoni turlicha kechishi; subekt (o'quvchi) kuchi faolligi, mustaqilligi, turlicha sarf etilishi bilan borishi mumkin. Ayrim hollarda uning jarayoni taqlidiy reproduktiv, boshqalarda izlanishli, uchinchisida ijodiy xarakterga ega bo'lishi mumkin. Aynan faoliyat jarayonining kechish xarakteri – uning oxirgi natijasi egallangan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalari xarakteriga ta'sir etadi.

Tahsil oluvchining bilishi xuddi yetuk ilmiy bilish yo'li kabi haqiqat o'qituvchi tomonidan fandagi faktlar, ilmiy kashfiyotlarni o'rganish ularning tarixiy yo'lini o'zlashtirish yordamida kechadi.

Insonning asl ijtimoiy mulki sifatida faoliyatining muhim belgisi faoliyat subektining atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri va muhim boyliklar yaratuvchi faoliyatining qayta aloqasidir. O'quvchilarning ta'lim muassasasidagi bilish faoliyatining xarakteri shundaki, uning natijasi hamma vaqt ham moddiylashgan mahsulga ega emas va o'quvchining o'zi hamma vaqt ham his etmaydi – javobi uchun yomon baho olgan o'quvchining xafa bo'lib, «men o'qidim, o'rgandim! Adolatdan emas» degan fikrni qat'iy takrorlashi bejiz emas.

Bilishga qiziqish o'qishning eng muhim va eng qimmatli motivi sifatida bolani maktabga, darslarga, o'z bilish faoliyatiga nisbatan ijodiy munosabatiga ko'maklashadi.

Tahsil oluvchining bilishga qiziqishi motiv sifatida rivojlanishi o'ziga xos uzoq yo'lga ega bo'lishi mumkin. Ayrim o'quv-harakatlari ta'sirchisidan to butun faoliyatning ustuvor motivigacha. Hatto o'qishning yetakchi motivlaridan biriga aylanib, qiziqish shaxsning ma'naviy boyishiga ko'maklashuvchi umumiy yo'nalganligining ahamiyatli qismiga aylanishi mumkin. Har qanday motiv singari bilishga qiziqish ajralgan holda rivojlanmaydi, uning tiklanishi boshqa motivlar (axloqiy, ijtimoiy, o'quv va h.k.) bilan birga kechadiki, qiziqish ular bilan boyiydi va ularga ijobiy ta'sir etadi.

Ma'lumki, o'quv jarayoni modeli o'zida uch tarkibiy qismni aks ettiradi: o'qituvchi faoliyati, o'quvchi faoliyati hamda o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning jadal o'zaro faoliyati. O'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro harakatini konstruktiv pedagogika nuqtai nazaridan qator belgilariga ko'ra tasnif etish mumkin: yo'nalganligiga ko'ra (qayta aloqalar bilan yoki qayta aloqalarsiz); axborot



jarayonining turiga ko'ra (o'zaro harakatni tashkil etishda axborot jarayonining yo'nalganlik darajasi); boshqarish va axborotlarni uzatish vositalari turiga ko'ra.

Tahsil oluvchilar bilimlarni o'zlashtirish jarayonida turli darajadagi faollikni namoyon etishadi. Ana shu sababli, o'quvchilarga bilimlarni sust ravishda qabul qiladi kabi nuqtai nazardan qarash to'g'ri bo'lmaydi. Shu sababli bilish faoliyatiga quyidagicha yondashish zarur: o'quv faoliyatining inkor etilmagan tavsifi asosida unga munosabat o'zgaradigan bilishning quyi darajasi; quyidan mo'tadillashgan bosqichga o'tish sifatidagi vaziyatli faoliyat; o'quv jarayonida ijro etuvchilik faoliyati; o'quvchining subektiv nuqtai nazarini maksimal darajada ochishga imkon beruvchi ijodiylik.

Yuqorida aytilganlarni umumlashtirib, bilish faolligi ko'rsatkichi sifatida mo'tadillik, ishtiyoq, o'rganishning anglanganligi, ijodiy namoyon bo'lishi, nostandart o'quv vaziyatlaridagi xulq-atvor, o'quv vazifasini hal etishdagi mustaqillik va boshqalarni aytib o'tish mumkin (4-rasm).

Tahsil oluvchining o'quv jarayonidagi ishtiroki va faolligining namoyon bo'lishi – bu rivojlanib boruvchi, o'zgaruvchan jarayon. O'qituvchi yordamida o'quvchilarning bilish faolligi quyi darajadan vaziyatli-faollikka, undan faol ijrochilikka o'tib boradi. Ko'p jihatdan o'quvchining bilish faolligi ijodiylik darajasiga ko'tarilishi yoki ko'tarilmasdan qolishi o'qituvchiga bog'liq.

Didaktlarning ishlarida shu narsa yaqqol ko'rinadiki, o'quv jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi munosabat subekt-subekt tavsifiga ega bo'lishi zarur. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lim – bu keng tarzda sotsiumning bo'lajak a'zosini umumiy mehnat, hamkorlikka o'rgatish uchun zarur bo'lgan birgalikdagi faoliyat.

Hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlash nuqtai nazaridan zamonaviy ta'lim jarayonini ko'rib chiqish asosida o'quvchilarning rollar orqali namoyon bo'lishi quyidagicha ko'rinish kasb etadi:

- o'quv jarayoni bilan dastlab tanishishda tomoshabin, kuzatuvchi;
- guruhli faoliyatning ishtirokchisi;
- namuna bo'yicha uy vazifasini mustaqil bajargandan so'ng faoliyat egasi;
- faoliyatning shaxsiy namunasini yaratishda faoliyat egasi + fikr egasi;
- o'z faoliyati natijasida yuzaga keladigan o'z-o'zining faoliyati egasi.

4. **Pedagogik innovatsiya (yangilanish) metodologiyasi: umumiy tushunchalari, rivojlanish qonuniyatlari, omillari va o'ziga xos xususiyatlari. Ta'lim jarayoni qonuniyatlari-** bu pedagogikada qonunlarning aniq sharoitlaridagi harakat ifodasi. Ularning asosiy xususiyati qonuniyatlar pedagogikada ehtimoliy-statistik xarakter berishida aks etadi, qonunlarni esa ta'lim jarayonida amalga oshirishni hamma holatlarda ham aniq ko'rib bo'lmaydi.

5.



| Ta'limning umumiy qonuniyatlari | |
|--|--|
| <p>Ta'limning maqsadi jamiyatning rivojlanish sur'ati va darajasi; jamiyatning talablari va imkoniyatlari; pedagogika fani va amaliyotning rivojlanganligi va imkoniyatlari bilan bog'liqlikda aniqlashtiriladi</p> | <p>Ta'lim metodlari samaradorligi ta'lim maqsadiga; o'quvchilarning Yoshi, ta'lim muassasasining moddiy-texnik ta'minotiga bog'liq</p> |
| <p>Ta'lim mazmunini belgilashda ta'limning ijtimoiy ehtiyojlari va maqsadlari; ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot sur'ati; o'quvchilarning yosh imkoniyatlari; ta'lim nazariyasi va amaliyotining rivojlanish darajasiga asoslanadi</p> | <p>Ta'limni boshqarish samaradorligi ta'lim tizimida qayta aloqalarning intensivligi va korrektsiyaga, ta'sir ko'rsatishning asoslanganligiga bog'liq</p> |
| <p>Ta'limning sifati avvalgi bosqich mahsuldorligi va hozirgi bosqichda erishilgan natijalar; o'rganilayotgan material xususiyati va hajmi; o'quvchilarga tashkiliy-pedagogik ta'sir ko'rsatish; o'quvchilarning bilim olishga qobiliyatlari va ta'lim vaqtiga bog'liq;</p> | <p>Ta'limda rag'batlantirish samaradorligi ichki va tashqi stimullarning o'zaro uyg'unligiga bog'liq.</p> |

Pedagogikada ta'limning xususiy qonuniyatlari ham mavjud: **gnoseologik:** ta'lim natijalari o'quvchilarning o'zlashtirish ko'nikmalariga; ta'lim samaradorligi o'quvchilarning o'quv faoliyati hajmiga; bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish samaradorligi ularning amalda qo'llanilishiga; o'quvchilarning aqliy rivojlanishi o'zaro aloqador bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilish hajmiga to'g'ridan to'g'ri bog'liq.

| Ta'limning xususiy qonuniyatlari | |
|--|--|
| <p>Psixologik: talim samaradorligi o'quvchilarning o'quv faoliyatiga qiziqishiga; fikrlash darajasi, kuchi, jadalligi va o'ziga xosligiga; xotiraning rivojlanganlik darajasiga; bilish faolligi darajasiga bevosita bog'liq</p> | <p>Tashkiliy: ta'lim natijasi o'quvchining o'quv mehnatiga, o'zining o'quv majburiyatlariga munosabatiga; o'quvchining ishchanlik qobiliyatiga; o'quvchilarning aqliy faolligini oshirish o'quv mashg'uloti jadvalining tuzulishi, unda jismoniy tarbiya va mehnat mashg'ulotlarining joylashtirilishiga bevosita bog'liq</p> |
| <p>Kibernetik: ta'lim samaradorligi qayta aloqalarning tezligi va hajmiga; bilimlarning sifati nazoratning to'g'ri olib borilishiga; ta'lim sifati o'quv jarayonini boshqarish sifatiga; boshqaruvning samaradorligi boshqaruvga doir axborotlarning soni va sifatiga; boshqaruvning samaradorligi boshqaruvga doir axborotlarning soni va sifatiga bevosita bog'liq.</p> | <p>Sotsiologik: individning rivojlanishi u bevosita va bilvosita muloqotda bo'ladigan individlarning rivojlanishiga; talim samaradorligi "Intellektual muhir"ning mavjud holatiga, o'zaro bir-biriga o'rgatishning jadalligiga; o'qituvchi va o'quvchilar muloqotining sifatiga bevosita bog'liq</p> |

Ta'lim tamoyillari. Ta'lim qonuniyatlaridan uni samarali tashkil qilishga nisbatan muayyan muhim talablar kelib chiqadi.

Ta'lim tamoyillarini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: ta'limning mazmunga aloqador va tashkiliy-metodik tamoyillari.



| Ta'lim tamoyillari | |
|--|---|
| <p>Ta'limni insonparvarlashtirish - uning mazmuni, tamoyillari, shakl va metodlarini yangilash, ularning o'zaro aloqasi va birligini ta'minlash orqali shaxsni har tomonlama shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirishdir.</p> | <p>Ta'limning madaniyat bilan uyg'unlik tamoyili. Ta'limni azaldan mazmuni inson ongida nafaqat olam manzarasini, balki insondagi rivojlanish, yuksaklikka harakat va o'sish xolatida bo'lgan o'zining shaxs sifatidagi qiyofasini shakllantirishdan iborat.</p> |
| <p>Ta'limning tabiat bilan uyg'unligi tamoyili. O'quvchilarga ularning yosh davrlarini inobatga olgan xolda bilimlarning berilishi ushbu bilimlarning ular uchun tushunarli bo'lishini ta'minlaydi.</p> | <p>Ta'limning ilmiylik tamoyili - o'quvchining o'quv materialidagi qonuniyatlarni aks ettirishi, tushunishi va o'zlashtirishi uchun to'g'ri shart-sharoit yaratish maqsadi uchun zarur ahamiyat kasb etadi. Bu tamoyil ta'lim mazmunini zamonaviy fan va texnika rivojlanish darajasi, jahon sivilizatsiyasi to'plagan tajribaga mos kelishini ifodalaydi.</p> |
| <p>Ta'limning tizimlili va izchillik tamoyili bayon qilinayotgan o'quv materialini mustahkamlash va ilgari o'tilgan materiallarni to'ldirishga xizmat qilishini, o'quvchilarning uzluksiz va tizimli sur'atda mustaqil ish olib borishlarini, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim va hosil bo'lgan ko'nikma, malakalarini hisobga olib borishni ham o'z ichiga oladi.</p> | <p>Ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi tamoyili yaxlit pedagogik jarayonda ta'lim va tarbiyaning birligi qonuniyatlariga tayanadi. Bu tamoyil ta'lim jarayonida barkamol rivojlangan shaxsni shakllantirishni ko'zda tutadi.</p> |

Shaxsning rivojlanishi va o'quvchilarning ijtimoiy ahamiyatga ega sifat va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ta'limning insonparvarlik mazmuniga yaqinlashish, ularni hayotda faol ishtirok etishga jalb etish, uning bilish bilan qo'shiluvi va madaniyatni o'zlashtirishi hamma-hammasi so'nggi yillarda sezilarli shakllandi. Mazkur yo'nalishda so'nggi yillarda tarbiyalanuvchilar ongidagi aldama-qaldamlik, ularning xulq-atvorini haddan tashqari qat'iy belgilash, ularga qattiq ta'sir etish, tanqidiy fikrlash tarziga ega bo'lmagan qarashlardan voz kechish yordamida ko'plab innovatsiyalar yo'naltirildi. Bunday aqidaparastlikka qarama-qarshi o'laroq, milliy va chet el pedagogikasida tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilishga yo'naltirilgan, unda mustaqillikni shakllantiruvchi, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar orasida insonparvar, ishonchga asoslangan munosabatlarni tarkib toptirish qoidalaridan foydalanish, «ta'limni insonparvarlashtirish», ya'ni insonparvarlik tamoyili yuzaga chiqadi. Bunday asosga qurilgan ta'lim esa, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim deb nomlanadi.

Ta'limning tabiat bilan uyg'unligi tamoyili. Ya.A.Komenskiy tomonidan fanga kiritilgan bo'lib, tabiatda hayot bahordan boshlangani kabi ta'lim olish jarayoni uchun eng qulay davr bolalik ekanligi g'oyasiga asoslanadi. O'quvchilarga ularning yosh davrlarini inobatga olgan holda bilimlarning berilishi ushbu bilimlarning ular uchun tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Umuman olganda, ta'lim jarayoni bolaning rivojlanishi, ya'ni tabiati bilan uyg'un bo'lishi lozim.



Ta'limning madaniyat bilan uyg'unlik tamoyili. Ta'limni azaldan mazmuni inson ongida nafaqat olam manzarasini, balki insondagi rivojlanish, yuksaklikka harakat va o'sish holatida bo'lgan o'zining shaxs sifatidagi qiyofasini shakllantirishdan iborat. Ta'lim butun umr davom etadi va ta'lim olish chegaralanmaydi. U insonga o'z dunyosi va boshqa madaniyatlarni anglash, mazkur madaniyat vakillari fikrini eshita olish, ularni qadrlash, ularning dunyosini tushunish, o'zining shaxsiy fikriga tayanish, o'zining bu yorug' olamdagi mavjudligini anglash va o'zining hayotdagi, madaniyatlardagi o'rnini aniqlash imkonini beradi. Ta'limning bugungi kundagi ma'no-mantig'i ham ana shundadir.

Ta'lim o'zini madaniyatlar dunyosida faraz qilish orqali insonda olam manzarasini yaratish, insonning tabiat, boshqa odamlarga, jamiyat, o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlar tizimini shakllantirish sifatida qaraladi. Inson o'zining ongi, irodasi, his-tuyg'usi, bilish imkoniyatlari orqali madaniy qadriyatlarni o'zlashtiradi, buning natijasida individual ijodiylik shakllanadi. Bunday individuallikning namoyon bo'lishining o'ziyoz nafaqat madaniyatning merosiyligi, iste'mol qilinishi, balki rivojlanishini ham anglatadi. Bunday tushunish pedagogikadagi yangi paradigma – shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosini tashkil etuvchi jamiyatdagi yangicha qadriyatlar – shaxsning o'zini-o'zini rivojlantirishi, o'ziga-o'ziga ta'lim berish va o'zini-o'zi loyihalashning namoyon bo'lishini aks ettiruvchi madaniyat bilan uyg'unlik tamoyilini shakllanishiga olib keladi.

Ta'limning ilmiylik tamoyili – o'quvchining o'quv materialidagi qonuniyatlarni aks ettirishi, tushunishi va o'zlashtirishi uchun to'g'ri shart-sharoit yaratish maqsadi uchun zarur ahamiyat kasb etadi. Bu tamoyil ta'lim mazmunini zamonaviy fan va texnika rivojlanish darajasi, jahon sivilizatsiyasi to'plagan tajribaga mos kelishini ifodalaydi. Bu tamoyil ta'lim vaqtida va o'qishdan tashqari vaqtda amalga oshiriladigan ta'lim mazmuni o'quvchilarni obektiv ilmiy dalillar, hodisalar, qonunlar, zamonaviy yutuqlar va rivojlanish istiqbollari ochib berishga yaqinlashtirib, u yoki bu sohaning asosiy nazariya yoki konsepsiyalari bilan tanishtirishga yo'naltirilgan bo'lishini talab etadi.

Ta'limning fundamentalligi va amaliy yo'nalganligi tamoyilining ahamiyati shundaki, umuiy o'rta ta'lim maktablaridayoq o'quvchilar chuqur nazariy va amaliy tayyorlikdan o'tadilar. Mazkur holat an'anaviy didaktikada ta'limning hayot bilan, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi tamoyili sifatida ifoda etiladi. O'qishda fundamentallik bilimlarning ilmiyligi, to'liq va chuqur bo'lishini ko'zda tutadi. U yuksak intellektual salohiyat, fikrlash layoqatining tadqiqotchilik ko'rinishda bo'lishi, bilimlarini doimiy ravishda to'ldirib borish istagi va malakalarini talab etuvchi zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyotga asoslanganlik bilan tavsiflanadi. Fundamental bilimlar aniq bilimlarga qaraganda sekin eskiradi, shuningdek, inson va xotirasiga emas, ko'proq uning fikrlash layoqatiga bog'liq bo'ladi. Ta'limning



fundamentalligi bilimlar mazmunining muntazamligi, nazariy va amaliy jihatdan o'zaro nisbatda bo'lishni talab etadi.

Ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi tamoyili yaxlit pedagogik jarayonda ta'lim va tarbiyaning birligi qonuniyatlariga tayanadi. Bu tamoyil ta'lim jarayonida barkamol rivojlangan shaxsni shakllantirishni ko'zda tutadi. Ta'lim jarayonida tarbiyalashning samarali kechishi shaxsning intellektual rivojlanishi, birinchi navbatda, o'quvchilarning qiziqishlari, idrok etish hamda individual qobiliyatlarining hisobga olinishi bilan bog'liq.

Ta'limning tizimligi va izchillik tamoyili bayon qilinayotgan o'quv materialini mustahkamlash va ilgari o'tilgan materiallarni to'ldirishga xizmat qilishini, o'quvchilarning uzluksiz va tizimli sur'atda mustaqil ish olib borishlarini, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim va hosil bo'lgan ko'nikma, malakalarini hisobga olib borishni ham o'z ichiga oladi.

Izchillik ta'lim mazmuni, uning shakli va usullari, o'quv jarayoni ishtirokchilari bo'lgan subektlarning o'zaro munosabatlariga taalluqli. U alohida parsial (yunoncha partialis – qisman) va xususiy o'quv vaziyatlari, predmet va hodisalar o'rtasidagi bog'liqlik, aloqadorlik qonuniyatlarini asta-sekin o'zlashtirish asosida ularni yagona yaxlit o'quv jarayoniga birlashtirishga imkon beradi.

Izchillik ta'lim jarayonining ma'lum tizim va ketma-ketlik asosida bo'lishini nazarda tutadi, zero, murakkab masalalarni oddiy masalalarni o'rganmay turib hal etib bo'lmaydi.

Tizimlilik va ketma-ketlik u yoki bu o'quv materialini o'zlashtirish sur'ati, uning elementlari o'rtasidagi o'zaro mosligini tahlil qilishga imkon beradi. Ta'limning tizimlilik va ketma-ketligi ma'lum fanlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, borliqni yaxlit idrok etish o'rtasidagi qarama-qarshilikni hal etishga imkon beradi. Ushbu holatlar birinchi navbatda dastur va darsliklarni muayyan tizimda yaratish, fanlararo hamda fanlar ichidagi bog'liqlikni ta'minlash evaziga namoyon bo'ladi.

Ta'limda onglilik, faollik va mustaqillik tamoyili o'qitishni shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, bunda o'quvchilar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash usullarini ongli va faol egallab olishlari lozim. Bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish quyidagi omil va shartlarga bog'liq: o'quv motivlari, o'quvchilarning faollik darajasi, o'quv-tarbiyaviy jarayonning samarali tashkil etilishi, o'qituvchi tomonidan qo'llanuvchi ta'lim metodlari va vositalarining samaradorligi va boshqalar. O'quvchilarning faolliklari reproduktiv va ijodiy xarakterga ega bo'lishi mumkin. Mazkur tamoyil o'quvchilarning tashabbuskorliklari va mustaqil faoliyatlarini nazarda tutadi.

Ta'limda ko'rsatmalilik tamoyili o'qitish jarayoni sifatini oshiradi, o'quvchilarning bilim olishlarini osonlashtiradi. Ya.A.Komenskiy uni didaktikaning



«oltin qoidasi» deb atagan. Unga binoan ta'limda inson sezgi orgalaridan foydalanish kerak. «Agarda biz o'quvchilarda haqiqiy va aniq bilimlar paydo qilishni istasak, unda biz umuman hamma narsaga shaxsiy kuzatish va sezib ko'rish bilan ta'limga intilishimiz kerak – deb ta'kidlaydi u – agarda qandaydir predmetni baravariga bir necha sezgi organlari bilan qabul qilish mumkin bo'lsa, mayli ular baravariga bir necha sezgilari bilan o'rganilsin».

Tajribalar asosida o'rganilayotgan narsani namoyish etish va jarayon mohiyatini hikoya qilib berish o'zlashtirish darajasini birmuncha oshiradi. Xususan, axborotlarni eshitib qabul qilish samarasi 15%, ko'rib qabul qilish esa – 25%ni tashkil etadi. Ta'lim jarayonida, ularni bir vaqtda ishtirok etishi natijasida ma'lumotlarni qabul qilish samaradorligi 65 % gacha ortadi.

Ko'rgazmalilikdan o'quv jarayoni barcha bosqichlarida foydalanish mumkin: yangi materialni o'zlashtirish, uni mustahkamlash, mashqlarni tashkil qilish hamda o'quvchilarning dastur materiallarini o'zlashtirishlarini tekshirish va baholashda.

Ta'limning o'quvchilarga mos bo'lish tamoyili deganda o'quv materiallarining mazmuni uning hajmi, xarakteri, u yoki bu sinf o'quvchilarining jismoniy rivojiga, umumiy tayyorgarligiga – saviyasi va imkoniyatlariga loyiq bo'lishi tushuniladi.

Yoshiga muvofiq yondashish o'quvchilarning psixik xususiyatlari, shaxsiy rivojlanganlik darajasi, ma'naviy-axloqiy sifatlari, ijtimoiy yetukligini baholay olishni nazarda tutadi. Agarda qo'yilayotgan talablar yoki ta'limning tashkiliy tuzilishi o'quvchilarning yoshi imkoniyatlaridan ortda qolsa yoki ilgarilab ketsa, o'quv faoliyatining samarasi pasayadi. Individual yondashish o'quvchilarning murakkab ichki dunyosini o'rganish, yuzaga kelgan munosabatlar tizimini tahlil qilish va shaxs shakllanishi sodir bo'ladigan ko'p turdagi sharoitlarni aniqlashni talab etadi.

Ta'limda bilim ko'nikma va malakalarni puxta va mustahkam o'zlashtirish tamoyili muhim didaktik talab va qoidalarni, ya'ni o'quvchilar tomonidan tizimli va ongli o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni mustahkam, esda saqlab qolish hamda o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni o'z turmush faoliyatlarida qo'lay olish malakalari bilan qurollantirishni nazarda tutadi.

Ta'limning chuqurligi va mustahkamligi talabi didaktikada an'anaviy hisoblanadi va u yuzakilikka qarama-qarshi qo'yiladi. Chuqur, mustahkam bilimning asosiy belgisi eng fundamental g'oyalar, qoidalar, tushuncha, kategoriyalarni tushunish, chuqur o'zlashtirish, o'rganilayotgan materiallar mazmunini puxta anglashdan iborat.

Ta'limning tushunarligi tamoyili o'quvchilarning mavjud imkoniyatlarini hisobga olish, jismoniy va psixik sog'lig'iga yomon ta'sir etuvchi intellektual va emotsional qiyinchiliklardan voz kechishni talab etadi. Ta'limning tushunarli



bo'lishi o'quvchilarning yoshi, bilish imkoniyatlarini hisobga olib o'qishning mazmunini to'g'ri aniqlash demakdir, ya'ni, har bir o'quv fani bo'yicha o'quvchilar egallab olishi zarur bo'lgan bilim, amaliy ko'nikma va malakalari hajmini to'g'ri aniqlashdir. Bu tamoyil o'quv jarayonining o'quvchilarda qiyinchiliklarni yengish istagini hosil qiluvchi va shaxsiy muvaffaqiyatlarining natijalaridan quvonish tuyg'usini yuzaga keltirishga yo'naltirilganligini ifodalaydi. Bu bolalarda ko'zga tashlanuvchi qattiq hayajonlanish, shuningdek, o'quv masalalarini yechishdagi ishonchsizlikni yo'qotishga yordam beradi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Didaktika nimani o'rganadi? Mazkur sohaning obekti va predmetini izohlang.
2. Didaktikaning asosiy kategoriyalarini sanab bering.
3. Zamonaviy ta'lim paradigmalari nimalar kiradi?
4. O'qitish jarayonining asosiy vazifalariga izoh bering.
5. O'qitish jarayonining bosqichlariga ta'rib bering.
6. O'quvchilarning bilish faoliyatining tuzilishi va o'ziga xosliklarini izohlang.
7. Ta'lim qonuniyatlari deganda nimani tushunasiz?
8. Ta'limning qanday umumiy qonuniyatlari mavjud?
9. Ta'limning xususiy qonuniyatlari nimalar kiradi?
10. Ta'lim tamoyillari deb nimaga aytiladi?
11. Ta'limning mazmunga doir tamoyillariga nimalar kiradi?
12. Ta'limning tashkiliy-metodik tamoyillariga izoh bering.

Adabiyotlar:

1. Gagarin A. Innovatsionnaya didaktika vysshey shkolы: teoriya, texnologii, metody: Elektronnoe uchebnoe posobie.
/ <https://www.academia.edu/33328359/>
2. Korjuev A.V. Didaktika vysshey shkolы.-M.:Sentyabr, 2019.-238s.
3. Popkov V.P., Korjuev A.V. Didaktika vysshey shkolы.-M.:Mysl, 2020.-234 s.
4. Podlasiy V.P. Pedagogika. Kniga v 3-x chastyax/Didaktika,.-M.:Logos, 2013.-468b.

2-MAVZU. PEDAGOGIKANING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNI TADQIQ ETISH METODLARI.

REJA:

1. Oliy ta'lim didaktikasining asosiy muammolari va tamoyillari



2. Oliy ta'limda pedagogik jarayonni tashkil qilish va ta'lim faoliyatini amalga oshirish usullarini ilmiy asoslash
3. Didaktikada ta'lim va tarbiyaning uzviy aloqadorligi prinsipi
4. Optimal o'qitish yo'llarini aniqlash, o'quv texnologiyalarining tarkibi, usullari, shakllarini tanlash.

***Tayanch tushunchalar:** oliy ta'lim didaktikasi, o'qitish yo'llari, pedagogik jarayon, tarbiya, shaxs, tarbiyalanganlik, ma'naviyat, axloqiylik, tarbiya turlari, tarbiya qonuniyatlari, metodlar, vositalar, xalq pedagogikasi.*

1. Oliy ta'lim didaktikasining asosiy muammolari va tamoyillari. Oliy ta'limda didaktikaning mantiqiy va gnoseologik asoslarini tushunishga bo'lgan intilish ushbu bilim sohasining zamonaviy nazariy va uslubiy muammolarini izlashga va tushunishga yo'naltiradi. L. Klinberg yozganidek, "Didaktikaning nafaqat ilmiy samaradorligi va fanlar o'rtasidagi ilmiy obro'si, balki amaliy ta'siri, o'qitish amaliyotidagi samaradorligi ko'p jihatdan fanningasosiy nazariy va uslubiy masalalarini yanada jiddiy rivojlanishiga bog'liq. Ilm-fanni ilmiy-nazariy va uslubiy tushunish bu uning o'ziga xosligi, muammolarning butun spektrining o'ziga xos xususiyati va tahlil qilish vositalarining mavjudligidan dalolat beradi".

Oliy ta'lim didaktikasining birinchi muammosi - bu oliy o'quv yurtlarining zamonaviy didaktikasini (ilmiy-pedagogik nazariyalardan biri sifatida) uning funksiyalarini amalga oshirish va uning ilmiy maqomini aniqlash bilan bog'liqdir.

Oliy ta'lim didaktikasida ko'rsatilganlardan tashqari, boshqa uslubiy muammolar ham mavjud. Eng qiyinlaridan biri bu zamonaviy universitetda o'quv jarayonini o'rganish uchun etarli metodikani topish muammosi. I.M.Osmolovskaya [17] didaktik tadqiqotlarda tabiatshunoslik (kuzatish, tajriba) usullarining keng tarqalganligiga ishora qiladi. Tajriba davomida alohida qiyinchiliklar paydo bo'ladi, chunki dastlab tajriba va nazorat guruhlarida pedagogik jarayonlar oqimi uchun shartlarni tenglashtirish qiyin.

Oliy ta'lim didaktikasining yana bir muammolaridan biri – o'tkazilayotgan tadqiqotlarda tahsil oluvchilarning dinamikadagi ko'rsatkichlarini taqqoslash shartlarni tenglashtirishga kafolat bermaydi. Didaktika gumanitar fandır va gumanitar bilimlarning ilmiy xarakteriga muvofiq bo'lishi kerak. Bunday holda didaktikadan aniqlik va aniq ta'riflarni talab qilishning hojati yo'q. Gumanitar fanlar birma-bir ta'riflash qiyin bo'lgan murakkab, ko'p qirrali ob'ektlarni o'rganadi, masalan "madaniyat", "jamiyat", "shaxs". Gumanitar fanlarda ushbu ob'ektlarning turli xil ta'riflari mavjud bo'lib, ularning har biri ob'ektga nisbatan u yoki bu uslubiy yondashuvni aks ettiradi, u yoki bu jihatlarni yoritadi.

Didaktikaning gumanitar fan sifatida rivojlanishi gumanitar bilish usullari rolining oshishiga olib keladi: matnlarni sharhlash (ular ramziy va ramziy



umumlashtirish sifatida qaraladi), monografik o'rganish, tipik yoki aksincha, nostandart vaziyatlarni fenomenologik tavsifi, keyinchalik tahlil qilish bilan. Didaktikani gumanizatsiya qilish tabiiy ilmiy usullarni to'liq rad etishni emas, balki ularning ahamiyatini pasayishini talab qiladi.

Zamonaviy oliy ta'lim didaktikasining axloqiy va o'z-o'zini anglash muammosi uni har tomonlama tadqiq qilishni talab etadi. Falsafa va fan tarixida o'z-o'zini anglash muammosi ilmiy bilimlarda aynan uning jamiyat bilan munosabatlarining burilish nuqtasida yoki inqirozli daqiqalarida ko'tarilishi isbotlangan bo'lib, bu nafaqat intellektual mezonlarni, me'yorlar va qadriyatlarni nafaqat maqbul ishlashni, balki ijtimoiy faoliyatni ham ta'minlashga qaratilgan ehtiyojlarni keltirib chiqaradi. Didaktik bilimlarga bo'lgan yondashuv va xususan, oliy ta'lim didaktikasida bilim olish holatining belgilari aniq. Bunday sharoitda oliy o'quv yurtlarida zamonaviy o'qitish nazariyasida axloqiy nazariyani tavsiflash zarurati yuzaga keladi. Bu ham OTDning asosiy muammolaridan biri sifatida baholanadi.

Ilm-fan etikasi kontseptsiyasining asoschisi R.Merton, umuman olganda, normalar tizimi funksional rol o'ynaydi, olimlar uni harakatga ko'rsatma sifatida, ichki muhit sifatida qabul qilishlarini aniqladilar. Ilmiy axloq normal fanning mavjud bo'lishi uchun zarur shartdir. Ilmiy axloqning imperativlari olimlar tomonidan o'zlashtirilib, ularning ilmiy o'zini anglashi aks etadi. Binobarin, ma'lum bir bilim sohasiga mansub olimlar birgalikda foydalanadigan axloqiy me'yorlarning yagona izchil tizimi uning yuqori ilmiy maqomini tasdiqlaydi.

Oliy ta'lim didaktikasining asosiy funksiyalari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. **Sintetik funksiya** - alohida ishonchli bilimlarni yagona, yaxlit tizimga birlashtirish;

2. **Tushuntirish funksiyasi** - sabab va boshqa bog'liqliklarni aniqlash, berilgan hodisaning turli xil bog'lanishlari, uning muhim xususiyatlari, kelib chiqishi va rivojlanish qonuniyatlari va boshqalar;

3. **Metodik funksiya** - nazariya asosida tadqiqot faoliyatining turli shakllari, usullari, metodlari, shakllantiriladi;

4. **Bashorat qilish funksiyasi.** Ma'lum hodisalarning haqiqiy holati haqidagi nazariy g'oyalar asosida ilgari noma'lum bo'lgan faktlar, ob'ektlar yoki ularning xususiyatlari, hodisalar orasidagi aloqalar va boshqalar mavjudligi to'g'risida xulosalar chiqariladi. Bu ilmiy bashorat deb nomlanadi;

5. **Amaliy funksiya.** Har qanday nazariyaning yakuniy maqsadi amalda o'z ifodasini topishi, haqiqatni o'zgartirish uchun "harakatga ko'rsatma" bo'lishi kerak. Shuning uchun, "yaxshi nazariyadan ko'ra amaliyroq narsa yo'q" degan ibora didaktikada keng qo'llaniladi. U yoki bu darajada ushbu funksiyalarni oliy o'quv

yurtlarida o'qitish nazariyasi ham amalga oshiriladi. Agar biz universitetda o'quv jarayonining borishini tavsiflasak, o'qituvchining faoliyatini va boshqalarni o'rgansak, unda biz tavsiflovchi funksiyani amalga oshiramiz. Fanning **tavsiflovchi funksiyasi** empirik faktlarni to'plash, ularni umumlashtirish asosida ilmiy muomalaga kiritish imkonini beradi. Tushuntirish funksiyasini didaktika tomonidan amalga oshirilishi kuzatilayotgan hodisalarni tushuntirishga, ularning mohiyatini ochib berishga imkon beradi.

Oliy ta'lim didaktikasida, boshqa gumanitar fanlar singari, kuzatilgan hodisalarni izohlash tabiiy bo'lganishlardan farq qiladi. O'rganilayotgan vaziyatda ta'lim jarayoniga ko'plab omillar ta'sir qiladi, ularning ba'zilar aniq kuzatiladi, ammo ba'zilar tadqiqotchidan yashiringan. Aslida tavsiflovchi nazariya bo'lgan oliy o'quv yurtlari didaktikasini metodik jihatdan to'g'riligini tahlil qilish juda qiyin. Masalan, bu oliy ta'lim didaktikasining ko'plab asosiy tamoyillari tizimlashtirilmaganligi va tasniflash uchun aniq asoslarga ega emasligidandir. Ilmiy bilimlarning bashorat qiluvchi vazifasi shundaki, u nafaqat voqea yoki hodisani tushuntiradi, balki ularni oldindan bashorat qiladi.

Har qanday fan singari, oliy ta'lim didaktikasi borliq haqidagi bilimlarni to'g'ri aks ettiradigan haqiqiy bilimlarga erishishga qaratilgan. Haqiqiy ilmiy bilim insonga voqelikni o'zgartirishga, uning keyingi rivojlanishini bashorat qilishga yordam beradi. Didaktik bilimlar o'quv jarayonini takomillashtirish va natijalarini bashorat qilish imkonini beradi. N.L.Korshunova pedagogikadagi bilimlarning ob'ektivligi (haqiqati) muammosini o'rganar ekan, boshqa ilm-fan singari oliy ta'lim didaktikasi ham "fanning qattiq yadrosi" ni tashkil etuvchi dalillarga asoslangan va asosli bilimlarni o'z ichiga oladi.

V. V. Krayevskiy 1977 yilda o'zining "Ilmiy asoslash muammolari (uslubiy tahlil)" monografiyasida boshlang'ich didaktik "o'qitish", "o'qish", "o'rganish" toifalarini, shuningdek, o'rganishning mohiyatini aks ettiruvchi tushunchalarni: "tarbiyaviy faoliyat", "pedagogik jarayon", "o'quv harakati" "o'qitish uslubi", "o'quv jarayoni", "o'quv loyihasi", "o'quv holati" va boshqalarni tavsifladi. Keling, ularni batafsil ko'rib chiqaylik.

V. V. Krayevskiy fikricha, didaktik darajada o'qitish- "ijtimoiy tajribani yosh avlodga o'tkazish faoliyatida o'qitish va o'qitishning birligi" sifatida namoyon bo'ladi. V.I.Zagvyazinskiy "o'qitish" ni o'qish va o'rganishni o'z ichiga olgan jarayon deb ta'riflaydi, uning mohiyati talabalarni tizimli ilmiy bilimlar bilan qurollantirish, qadriyatlar va an'analar bilan tanishtirish, milliy va jahon madaniyati yutuqlari asosida ta'lim va taraqqiyotga yo'naltiradi. I.M.Osmolovskaya ta'kidlashicha, "o'rganish" va "o'quv jarayoni" odatda sinonim sifatida ishlatiladi.

Zamonaviy olimlarning nashrlarida ta'lim, shuningdek, insonning ijtimoiy tajribani o'zlashtirish jarayoni va natijasi, jamiyatda hayot uchun zarur bo'lgan



bilim, ko'nikma va malakalar tizimi sifatida tushuniladi. Ta'kidlanishicha, ta'lim ham mashg'ulot shaklida, ham o'z-o'zini tarbiyalash shaklida, ya'ni so'zning asl ma'nosida o'qituvchi ishtirokisiz tashkil etilishi mumkin.

Oliy ta'lim didaktikasida **ta'lim** - bilim, ko'n ikma va malakalarni egallash, dunyoqarashni tarkib toptiradigan jarayon, deb tavsiflanadi. Bunda **bilim** – bir butunlikni tashkil qiluvchi qismlar orasidagi, ularning ichki ziddiyatlaridan kelib chiqqan bog'liqlikdir. U qonuniyat deb ham yuritiladi. Ya'ni bilim insoniyat tomonidan mustaqil hayotda, faoliyatda, jumladan ishlab chiqarishda zarur bo'lgan fan asoslarini qonunlar va tushunchalarni o'zlashtirish natijasidir.

Bilimni hayotda ko'p samara beradigan qilib qo'llay olish uchun bilim bilan birga ko'nikma va malaka hosil qilish lozim. Bilim bahsda kerak bo'lsa, ko'nikma va malaka mehnat faoliyatida, dunyoni o'zlashtirishda zarur.

Ma'lumot - ta'lim - tarbiya natijasida olingan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'n ikma va malakalar hamda shakllangan dunyoqarashlar majmuidir. Insonning shaxs sifatida shakllanishi, tarbiyalanishi va ta'lim olishi pedagogik jarayonda sodir bo'ladi.

Ko'nikma – malakaning tarkibiy qismi bo'lib, harakatning ayrim qismlarini nihoyatda tez, aniq va maqsadga muvofiq ravishda bajarilish qobiliyatini ifodalaydi va o'quvchi – talabalarda ko'p marotaba takrorlanadigan mashqlar natijasida yuzaga keladigan harakatlar yig'indisidir.

Malaka – tahsil oluvchilarning bilim egallash va mehnat jarayonidagi harakatini (yoki harakatlar majmuasini) muayyan sharoitda maqsadga muvofiq shakllantirish va shu orqali o'qishda va mehnat faoliyatida ijobiy natijalarga erishib, ongli bajarishga tayyor bo'lishdir. Iqtidor va ko'nikma mashq qilish va takrorlash orqali malakaga aylanadi

Mahorat – bu murakkab ishni tez, aniq bajarishning yengilligi, mehnatning yuqori sifati va barqaror maromidir.

Ta'lim jarayonida tahsil oluvchilar muayyan ma'lumotga ega bo'ladilar.

2. Oliy ta'limda pedagogik jarayonni tashkil qilish va ta'lim faoliyatini amalga oshirish usullarini ilmiy asoslash. “Ta'lim” atamasi oliy ta'lim didaktikasida aniqroq shaklda o'qitish jarayonida olingan bilim va ko'nikmalarning shaxsiy rivojlanish darajasi bilan o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi. Bilimli odam nafaqat bilimdon, balki jamiyatdagi shaxsiyat xususiyatlarini juda qadrlaydigan shaxsdir. Ta'lim shaxsga ma'lum bir "inson qiyofasini" berish, shaxsni shakllantirish uchun sharoit yaratib berish sifatida qaraladi.

Pedagogik jarayon – pedagogik kategoriyalardan biri bo'lib, ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan kattalarning pedagogik faoliyati ta'sirida tashkiliy shakllantirilgan va mazmunan boyitilgan hamda “...tarbiyachining yo'naltiruvchi va



olib boruvchi rahbarlik roli natijasida tarbiyalanuvchining o'z-o'zini taraqqiy ettirishidir”

Pedagogik faoliyat- estetik, axloqiy, siyosiy, iqtisodiy kabi maqsadlarga muvofiq ravishda yosh avlodni hayotga tayyorlashning aqlan o'ylab ko'rilgan, katta yoshdagilarning ijtimoiy zarur bo'lgan mehnatining o'ziga xos turidir.

O'z-o'zini anglash – shaxsning o'ziga va o'z faoliyatiga bir jamoa yoki butun jamiyat nuqtai nazaridan baho bera olish. Taniqli rejisser K. Stanislavskiyning: “Teatr qaerdan boshlanadi? –Albatta, – kiyim ilish joylaridan boshlanadi”,-degan iborasi mashhur bo'lsa, pedagogikada - “pedagogik faoliyat – oiladan boshlanadi”, deyish mumkin.

Yagona pedagogik jarayon tushunchasi didaktikada asosiy ta'riflardan biridir. Didaktikada o'z-o'zidan sodir bo'lgan tabaqalashtirish va integratsiya, o'qituvchi va o'qituvchi vazifalarini chegaralashga olib keldi. 19-asrning o'rtalariga kelib, jamiyatda ta'lim va tarbiyaning yaxlitligi uchun ilmiy tortishuvlar paydo bo'ldi.

Yaxlit pedagogik jarayon tushunchasi va uning tuzilmasi. Ta'lim - bu ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan, shaxs, oila, jamiyat va davlat manfaatlarini ko'zlab amalga oshiriladigan, shuningdek, olingan bilim, ko'nikma, qadriyatlar, qarashlar, tajriba va kompetentsiyalarning muayyan hajm va murakkablikdagi birikmasi bo'lgan jarayondir.

Pedagogik jarayon-shaxsning intellektual, ma'naviy, axloqiy, ijodiy, jismoniy, kasbiy rivojlanishi, uning ta'lim ehtiyojlari va manfaatlarini qondirish.

Pedagogik jarayonning protsessual va ishlab chiqarish jihatlari ularning uzviyligida amalga oshiriladi. Pedagogik jarayon muhim hodisa sifatida qadimgi davrlardan beri mavjud bo'lib, bu avvalgi avlodlar tomonidan to'plangan tajribani yangi avlodlarga etkazish, ushbu tajribani takomillashtirish va rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, jamiyat barqarorligi uchun zaruriyatdir. Pedagogik jarayon asrlar davomida takrorlanadi va rivojlanadi, zamonaviy ta'lim darajasi uning rivojlanishining keyingi bosqichidir.

Pedagogik jarayonda ishlab chiqilgan asosiy prinsiplar, qoidalar va maxsus tushunchalar maktab hamda maxsus pedagogika guruhlaridagi pedagogik fan tarmoqlari, didaktika prinsiplari va umumiy pedagogikadagi qonun-qoidalarni, ta'lim-tarbiya berishning o'ziga xosligidan kelib chiqib o'zgartiradilar va o'z sohasiga moslashtiradilar.

Didaktikada ta'lim va tarbiyaning uzviy aloqadorligi prinsipi. Pedagogik jarayon-bu o'qituvchi va o'quvchilarning ta'lim, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalarini hal qilishga qaratilgan maxsus tashkil etilgan, maqsadga muvofiq bo'lgan o'zaro munosabat.

Pedagogik jarayon - bu o'qituvchi va o'quvchilarning ta'lim, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalarini hal qilishga qaratilgan maxsus tashkil etilgan, maqsadga



muvofig bo'lgan o'zaro munosabat. O'qituvchi pedagogik jarayonni tashkillashtiradigan va boshqaradigan shaxsdir.

Pedagogik jarayonning asosiy tushunchalari: shaxs, tarbiya, ta'lim, shakllanish, rivojlanish, pedagogik muhit

O'qituvchi pedagogik jarayonni tashkillashtiradigan va boshqaradigan shaxsdir. Zamonaviy pedagogik jarayon ko'p asrlar davomida shakllangan va rivojlangan nazariyalarga asoslanadi. Ta'lim, tarbiya va shaxsiy rivojlanishning deyarli har qanday zamonaviy nazariyasi o'tmishdagi psixologik va pedagogik g'oyalar va tushunchalarga tayanadi. Pedagogik jarayonni ilmiy jihatdan anglashga bo'lgan birinchi urinishlar qadimgi davrlarda ham mavjud edi. Bu borada Aflotun, Aristotel, Suqrot, Demokrit va boshqa qadimgi yunon faylasuflarining ta'limoti haqidagi qarashlar keng tarqalgan. Ularning fazilatlarini tarbiyalash haqidagi g'oyalari bugungi kunga qadar dolzarbdir.

XX asrda turli mamlakatlarda pedagogik jarayon va tizimlar haqidagi nazariyalar paydo bo'ldi, ularning markazida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yetakchilik qildi (J. Dyui, L. Kolberg, R. Shtayner va boshqalar). 1930-1980 yillarda shaxsni tarbiyalash nazariyasi katta muvaffaqiyat qozondi.

Tarbiyalanuvchi - bu insoniyat tomonidan uning barcha xilma-xilligi bo'yicha to'plangan tajribani o'zlashtirish uchun zarur shart bo'lgan sub'ekt. O'qituvchi va o'quvchilar faoliyat sub'ekti (raqamlar) sifatida pedagogik jarayonning asosiy tarkibiy qismidir. Pedagogik jarayon tarkibiy qismlariga uning maqsadi, natijalari, mazmuni, tashkil etilishi ham kiradi.

3. Didaktikada ta'lim va tarbiyaning uzviy aloqadorligi prinsipi. Didaktikada tarbiya muhim o'rin egallaydi. Jamiyat va pedagogikaning tarixiy rivoji davomida mazkur kategoriyani tushuntirishga turlicha yondashuvlar yuzaga keldi. Eng avvalo, keng va tor ma'nodagi tarbiya farqlanadi.

Tarbiya tamoyillari yo'l - yo'riq ko'rsatuvchi qoidalar hisoblanadi. Tarbiyadan ko'zlangan asosiy maqsad- har tomonlama ma'naviy rivojlangan, aqliy va axloqiy barkamol mutaxassis shaxsini shakllantirishdan iborat. Tarbiyaviy ish ma'lum maqsadni ko'zlovchi va uzluksiz davom etadigan jarayondir. Tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganligi bo'lajak mutaxassislarning axloqiy, ma'naviy tarbiyalanganlik istiqbollarini ko'ra bilishda yordam beradi.

Inson paydo bo'libdiki, tarbiya jarayoni va tamoyillari mavjud.

Tarbiya jarayoni shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtiriladi va tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkoniyatini beradi. Tarbiya jarayonida bo'lajak mutaxassisda his-tuyg'ular va turli qobiliyatlari rivojlanadi, g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, meditsina sohasidagi bilimlari tarkib topadi. Tarbiya jarayonida yoshlarda jamiyatning mutaxassis



shaxsiga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlari hosil qilinadi.

Tarbiya asosida yoshlarda miliy qadriyatlarga hurmatni kuchaytirish, insonparvarlik, umuminsoniy qadriyatlarga, millatlararo totuvlik, bagrikenglik, dunyoviy ilmlarga intilish va ilg'or madaniyatni shakllantirish, dinning dunyoviylik bilan qarama-qarshi emasligini anglash, xuquqiy madaniyat- sog'lom dunyoqarashning mu'him omili ekani to'grisidagi ma'lumotlarni ko'paytirish, ma'rifatning shaxs intellektual salohiyatini oshirishdagi imkoniyatlari kengligini isbotlash kabi tamoyillarga tayanadi.

Tarbiya mazmuni deganda, qo'yilgan maqsad va vazifalar bilan bog'liqlikda ta'lim oluvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka, e'tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimi tushuniladi.

Tarbiyaning umumiy vazifalari:

- jamiyat a'zolarining maqsadga yo'naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish;
- jamiyat rivoji uchun zarur bo'lgan ijtimoiy madaniyatga mos yetarlicha hajmdagi "inson kapitali" ni tayyorlash;
- madaniyatlarni uzatib turish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta'minlash;
- ma'lum jins yoshi va ijtimoiy-kasbiy guruhlarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ijtimoiy munosabatlar doirasida jamiyat a'zolarining harakatini tartibga solish.

Didaktikada **tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari:**

- maqsadga yo'naltirilganligi;
- ko'p qirrali jarayon;
- uzoq muddat davom etishi;
- uzluksizligi;
- yaxlitligi;
- variativligi;
- natijalarning oldindan aniqlanmasligi; biroq kafolatlanishi zarurligi;
- ikki tomonlamalilik.

Tarbiya qonuniyatlari – bu bir tomondan, ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning xususiyatlari, ikkinchi tomondan, shaxsning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan barqaror aloqalar yig'indisi.

Tarbiya jarayonining quyidagi qonuniyatlari mavjud:

- ijtimoiy muhitning obektiv va subektiv omillariga bog'liqligi;
- tarbiyaning shaxsning rivojlanishi bilan birligi va o'zaro bog'liqligi;



- faoliyat va munosabatni e'tirof etish shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ga fazilatlarini shakllantirishning negizi va asosiy manbai;
- tarbiyalanuvchilarning o'zaro tarbiyaviy ta'siri, o'zaro munosabatlari hamda faol faoliyati o'rtasidagi bog'lanish;
- tarbiya va o'zini-o'zi tarbiyalashning intensivligi;
- tarbiyalanuvchining "ichki olami" ga ta'sir etishning intensivligi;
- tarbiyalanuvchilarda verbal va sensomotor jarayonlarning rivojlanish darajasi va pedagogik ta'sirni hisobga olish.

Tarbiya tamoyillari – bu tarbiyaviy ishning yo'nalishiga, mazmuniga, metodlari va tashkil etilishiga, tarbiya jarayonining ishtirokchilari orasidagi munosabatlarga qo'yiladigan asosiy talablar ifodalanadigan dastlabki qoidalardir.

Tarbiya jarayoni quyidagi tamoyillar asosida boshqariladi:

- maqsadga qaratilganligi va g'oyaviy yo'nalganligi;
- tarbiyaning insonparvarlashuvi;
- tarbiyaning hayot, mehnat bilan bog'liqligi;
- tarbiyaga yaxlit(kompleks) yondashuv;
- jamoada tarbiyalash va jamoaga suyanib ish ko'rish;
- shaxsga talabchanlik bilan hurmatni birga qo'shib olib borish;
- o'qituvchilar, jamoat tashkilotlari va oilaning talab hamda tarbiyaviy ta'sirlarining birligi;
- tarbiyalanuvchining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish;
- tarbiya jarayonining tizimligi va uzluksizligi.

4. Optimal o'qitish yo'llarini aniqlash, o'quv texnologiyalarining tarkibi, usullari, shakllarini tanlash. O'quv-tarbiya turlari turli sohalarga ko'ra tasnif etiladi. Ko'proq umumlashgan tasnif o'zida aqliy, mehnat, jismoniy tarbiyani qamrab oladi. Ta'lim muassasalaridagi tarbiyaviy ishlarning turli yo'nalishlari bilan bog'liqlikda fuqarolik, siyosiy, baynalmilal, axloqiy, estetik, mehnat, jismoniy, huquqiy, ekologik, iqtisodiy tarbiyaga bo'linadi. Institutsional belgilariga bo'yicha oila, ta'lim muassasasi, ta'lim muassasasidan tashqari, diniy, bolalar, yoshlar tashkilotlaridagi tarbiya, maxsus ta'lim muassasalaridagi tarbiyaga bo'linadi.

Tarbiya va tarbiyalanuvchilar orasidagi munosabatlar uslubiga ko'ra avtoritar, demokratik, liberal, erkin tarbiya; turli falsafiy kontseptsiyalar bilan bog'liqlikda pragmatik, aksiologik, jamoaviy, individual tarbiya farqlanadi.

Tarbiya jarayonida asosiy vazifa ta'lim-tarbiya berish, yoshlarda bilim, ko'nikma, malakalarni muttasil oshirib borish, ularda tafakkur, ilmiy dunyoqarash va mafkuraviy tushunchalarni shakllantirishdan iboratdir.

Mafkura-inson ruhiyati, tafakkur va dunyoqarashini o'zgartiradigan kuchli vositadir. Uning g'oyalari xalqning ishonch - e'tiqodi, intilish va manfaatlari



ifodasiga aylansa etarlicha samara beradi. Shuning uchun ham mafkura sohasidagi targ'ibot va tashviqot ishlarini, Tahsil oluvchilarning tushunchasi, aql - idroki va tafakkur darajasini inobatga olgan qolda marifiy yo'l va usullar orqali amalga oshirish taqoza etiladi.

Tarbiyada insonparvarlik va demokratiya tamoyillari. O'qituvchining bilim saviyasi ma'naviyati jamiyatni harakatga keltiruvchi, taraqqiyotga eltuvchi etakchi omillardan biridir. Tarbiyada inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir insonning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huqo'qi va erkinligini hisobga olish lozim. Tarbiyani demokratiyalash - bu tarbiyani ma'muriy ehtiyoj va qiziqishlardan yuqori qo'yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasida o'zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini o'zgartirish demakdir. Tarbiyaviy faoliyatni demokratiyalash va insonparvarlashtirish uning mohiyatini va mazmunini qayta tafakkur etishni ko'zda tutadi. Shaxsning rivojlanishi va o'zligini anglashni ta'minlaydi.

Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi. Yoshlarni Vatanimiz qadriyatlari, boy madaniyati bilan tanishtirish, madaniy va diniy bilimlarini egallashga bo'lgantalablarini shakllantirish, malakalarini oshirib, tobora boyitish, estetik tushunchalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqimizning ko'p asrlik qadriyatlarini ulkan boy va madaniy merosini chuqur bilmasdan, milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur tuyg'usini qaror toptirish mumkin emas. U yaratgan madaniy boyliklar yoshlar tarbiyasida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Buyuk mutafakkirlarning asarlari orqali tahsil oluvchilar go'zal axloq, baxt, insof, poklik, meqr - shavqat, ota - onani hurmat qilish qoidalari qaqida keng tasavvurga ega bo'ladilar. Insoniylik - o'z tarkibiga insonning eng yaxshi axloqiy xususiyatlarini, do'stlik, ota - onaga sadoqatlilik, meqnatsevarlik, diyonatlilik kabi fazilatlarni hamrab oladi. Shu sababli insondagi eng yaxshi fazilatlar avloddan - avlodga ko'chib kelgan.

Tarbiyada izchillik, tizimlilik, tarbiyaviy ta'sirlarning uyg'unligi va uzluksizlik yo'nalishi. Tarbiya ishida izchillik juda muhim. Tarbiya uzoq davom etadigan jarayon, shu sababli ularning ishida izchillik va davomiylik bo'lishiga rioya qilish kerak. Bu qoida tarbiyani amalga oshiradigan barcha bo'g'inlarni birgalikda ish ko'rinishlarini nazarda tutadi. Chunki tizimlilik faqat yoshlarni emas, balki aholining barcha qatlamlarini qamrab olishi kerak.

Tarbiyaning samarali bo'lishi ko'p jihatdan jamiyatdagi ijtimoiy institutlarning rivojlanishiga bog'liq. Bo'lajak mutaxassisda ma'naviy va insoniy sifatlarning shakllanishida oiladagi, atrofdagi, jamiyatdagi muhit va munosabat mo'him o'rin egallaydi. Aniq bir maqsadga qaratilgan tarbiyaning samaradorligi tarbiyachining qanday metoddan foydalanishiga bog'liq.



Metod, ya'ni uslub, axborotni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab bir necha turlarga bo'linadi:

- So'z orqali ifodalash;
- Ko'rgazmalilik;
- Amaliy namuna;
- Irodani safarbar etish;
- Rag'batlantirish va jazo;
- Ijtimoiy ongni shakllantirish.

Bu metodlar o'z navbatida quyidagi guruhlariga bo'linadi.

Birinchi guruh - so'z orqali uzatish, maslahat berish, ma'lumotlarni eshitysh orqali qabul qilish, hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqa uslublar;

Ikkinchi guruh - kinofil'mlar, tasviriy san'at, badiiy san'at va boshqa ko'rish orqali tarbiyalash usublari

Uchinchi guruh – tarbiya jihatlarini amaliy mehnat harakatlari orqali berish, o'rnak ko'rsatish, boshqalar mehnatini misol tariqasida ko'rsatish.

To'rtinchi guruh – yaxshi bajarilgan ishlarni ma'qullash, minnatdorchilik bildirish, iqtisodiy va ma'naviy rag'batlantirish.

Tarbiya vositalari biron - bir tarbiyaviy masalani maqsadga muvofiq yo'l bilan hal qilishni tashkil etish uchun ishlatiladi. (Ko'rsatmali ko'nikmalar, kitoblar, radio, televidenie). Bundan tashqari bo'lajak mutaxassislar jalb qilingan faoliyat turlari kinofil'mlar, meditsina xaritalari, sport va boshqa faoliyat turlari tarbiya vositalari bo'lishi mumkin.

| Tarbiya jarayonining xususiyatlari | | | | |
|------------------------------------|-------------------------|--|---|------------------------------|
| Ko'p qirrali jarayon | uzoq muddat davom etadi | yaxlit holda va konentrik asosda amalga oshadi | Ikki tomonlama xususiyat, bolaning faolligi | Qarama-qarshiliklar ko'pligi |

Tarbiya metodi (yunoncha «metodos» – yo'l) tarbiya maqsadiga erishishning yo'li. Tarbiya amaliyotiga tatbiq etilganda, metodlar–bu tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullaridir.

Tarbiya usullari – umumiy metodning bir qismi, alohida harakati, yanada aniqlashuvi. Obrazli aytganda, usullar – bu qo'yilgan maqsadga tezroq erishish uchun tarbiyachi o'zining tarbiyalanuvchilari bilan yo'l ochadigan o'rganilmagan so'qmoq. Agar uni boshqa tarbiyachilar ham foydalana boshlasa, u holda asta-sekin usullar keng ustunli yo'llar – metodlarga aylanishi mumkin.

Shu jihatdan olganda, yoshlarimizni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, hayot abadiyligi, avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviyat



qo'rg'oni bo'lgan oilani mustahkamlash butungi kunda bar-chamizning nainki asosiy vazifamiz, balki insoniy burchimizga aylanishi lozim.

O'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini kamol toptirishning psixologik-pedagogik asoslari.

O'z-o'zini tarbiyalash metodlari. O'quvchida o'z-o'zini tarbiyalashga, ya'ni, o'z ustida ongli, bartartib ishlashga ehtiyoj paydo bo'lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblash mumkin. Tarbiya jarayonida o'z-o'zini tarbiyalash metodlaridan foydalanish samarali hisoblanadi.

O'z-o'zini tahlil (nazorat) qilish o'z shaxsi, mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatlarni boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat metodi.

O'z-o'zini tahlil (nazorat) qilish uchun o'quvchi o'zining yurish-turishi, intizomi, ijobiy fazilatlarning ortib borishi va aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishi haqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

O'z-o'zini baholash mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish asosida o'z shaxsiga baho berishga yo'naltirilgan faoliyat metodi.

O'quvchining qobiliyatini o'z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashish zarur. O'z-o'zini baholash qiyin, lekin o'quvchini bunga yetarli tayyorlash mumkin. Shu bois o'quvchi irodali bo'lishi, o'z burchini tushunishi, tahsil va tarbiya olish uchun sababli asos bo'lishi, ya'ni, tarbiyalanishni xohlashi, o'zini o'rtoqlari, atrofdagilarning ko'zi bilan ko'rish va o'z-o'zini takomillashtirishga intilishi lozim.

Maktab amaliyotida izohlash ishontirishga tayanadi. **Ishontirish** vositasida o'quvchi ruhiyatiga sezilarsiz holda ta'sir etiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari hamda o'smirlar ishonuvchan bo'lishadi. Pedagog ishontirishdan tarbiyalanuvchi ma'lum ko'rsatmani qabul qilishi zarur bo'lgan vaziyatlarda foydalanadi. Mazkur metoddan boshqa metodlarning ta'sirini kuchaytirish uchun ham foydalaniladi.

Munozara tarbiyalanuvchilarga hissiy-og'zaki ta'sir ko'rsatish asosida ularda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bahs-munozara usuli bo'lib, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, estetik va huquqiy mavzularda o'tkaziladi. Munozara turli nuqtai nazarlar to'qnashgan vaziyatda o'quvchilarda ma'lum hodisaga nisbatan ishonch hosil qilishga yordam beradi.

Mashq va o'rgatish metodlari muayyan mashq yordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil qilish, ularni axloq me'yorlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirishdir. Odatlar bolalikdan tarkib topadi va shaxs rivojlanishining keyingi bosqichlarida mustahkamlanib boradi.

O'qituvchi hamda ota-onalar bolalarda ijobiy odatlarning tarbiyalanib borayotganligini kuzatib borishlari kerak. O'quvchilar odatlarni o'z yaqinlaridan meros qilib olmaydi, balki ular atrofdagilar bilan faol muloqotga kirishishlari tufayli



taqlid qilish, uzluksiz tarbiyani yo'lga qo'yish asosida tarkib toptiriladi. Natijada odat xarakterga aylanadi.

Mashq muayyan xatti-harakatlarni ko'p marotaba takrorlashni o'z ichiga oladi. Mashq va odatlantirish o'quvchi uchun ongli, ijobiy jarayondir. Mashq natijasini ko'nikma, odat, yangi bilimlar hosil qilinadi, o'quvchining aqliy qobiliyati rivojlanadi, ma'naviy-axloqiy sifatleri boyiydi, hayotiy tajribasi ortadi.

O'rgatish tarbiyalanuvchilar ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalari, odatlarini shakllantirish maqsadida rejali va izchil tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlardir.

Topshiriq o'quvchilarda mehnat, ijtimoiy xulq va hayotiy tajriba ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida qo'llaniladigan metod. O'quvchilarning topshiriqlarni jamoa bo'lib bajarishlari ularda ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. O'quvchilar o'z kuchlarini umum ishiga sarflashga, jamoa uchun masuliyatni his etishga o'rganadilar, mehnat qilish o'quvchilarning harakatlarini shakllantiradi, mustahkamlaydi.

Pedagogik talab turli xatti-harakatlarni bajarish hamda faoliyatda ishtirok etish jarayonida o'quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari. Pedagogik talab tarbiyaning eng muhim metodlaridan biridir. Pedagogik talab ma'lum harakatlarni rag'batlantiruvchi yoki unga to'sqinlik qiluvchi hamda o'quvchini oqilona harakatlarni bajarishga undovchi xarakterga ega bo'lishi mumkin.

Rag'batlantirish tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko'nglini ko'tarish va uni qo'llab-quvvatlash metodidir. O'qituvchi har bir o'quvchi shaxsida ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlarni anglab olishi zarur.

Tanbeh berish – eng muhim jazo chorasi. O'qituvchi o'quvchiga yuzma-yuz turib tanbeh beradi, buni kundaligiga yozib qo'yish mumkin.

Uyaltirish – o'quvchining ma'lum xatti-harakatlariga jamoa yoki uning tarbiya uchun masul bo'lgan subektlar (ota-onalar, vasiylar, jamoatchilik vakillari va boshqalar) oldida baho berish. Odamning eng nozik sezgilaridan biri uyat, or-nomus va sharm-hayodir. Insonda izzat-nafs, odamiylik qancha kuchli bo'lsa, avvalo, o'zini hurmat qilsa, unda or-nomus, uyat shunchalik kuchli bo'ladi. Bolalarni tarbiyalashda shu his-tuyg'ularni ehtiyotkorlik bilan o'stirish lozim, lekin hadeb uyaltiraverish va qizartiraverish yaramaydi. Bundan oqilona va o'z o'rnida foydalanish kerak, shundagina ijobiy natijaga umid qilish mumkin.

Tarbiya metodlarini tanlab olish shartlari. Metodning ijobiy va salbiysi bo'lmaydi, tarbiya jarayonida ma'lum yo'lni yuqori darajadagi samarali va samarasiz deya baholash mumkin emas. Metodning samaradorligini u qo'llanilayotgan sharoit nuqtai nazaridan baholash mumkin.



Tarbiya metodlarini maqsadga muvofiq tanlash bir qator omillarga bog'liq:

1. Tarbiyaning maqsad va vazifalari. Tarbiyaning maqsad va vazifalari. Maqsad nafaqat metodlarni oqlaydi, balki ularni aniqlab beradi. Maqsad qanday bo'lsa, unga erishish metodlari shunga muvofiq bo'lishi zarur.

2. Tarbiya mazmuni. Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to'ldirilgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas, balki aniq fikr bilan bog'lash g'oyat muhimdir.

3. Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish. U yoki shunga o'xshash vazifalar tarbiyalanuvchilarning yoshi bilan bog'liqlikda hal etiladi. Yosh bu oddiygina qancha yashaganligi son ko'rsatkichi emas. Unda egallangan ijtimoiy tajriba, psixologik va ahloqiy sifatlarning rivojlanganlik darajasi o'z aksini topadi. Aytaylik, masuliyat tuyg'usini boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilarda ham shakllantirish mumkin. Biroq har bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo'llaniladi.

4. Jamoaning shakllanganlik darajasi. O'zini o'zi boshqarishning jamoa shaklining rivojlanishi bilan bog'liqlikda pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlari ham o'zgarmasdan qolmaydi. Bizga ma'lumki boshqaruvning moslashuvchanligi tarbiyachining tarbiyalanuvchilar bilan muvaffaqiyatli hamkorligining zaruriy sharti.

5. Tarbiyalanuvchilarning individual o'ziga xosliklari. Umumiy metodlar, umumiy dasturlarning o'zi tarbiyaviy o'zaro ta'sir etishning asosi bo'la olmaydi. Ularga individual va shaxsiy tuzatishlar kiritish zarur. Insonparvar pedagog har bir shaxs o'ziga xosligining rivojlanishiga, o'ziga xosligini saqlashga, o'zining «Men»ini ro'yobga chiqarishga imkon beradigan metodlarni qo'llashga harakat qiladi.

6. Tarbiyaviy shart-sharoitlar. Unga moddiy, psixofiziologik, sanitar-gigienikdan tashqari sinfda yuzaga keladigan munosabatlar: jamoadagi iqlim, pedagogik rahbarlik usuli va boshqalar tegishlidir. Ma'lumki, mavhum shart-sharoitlar bo'lmaydi, ular hamisha aniq. Ularning birlashuvi aniq holatlarda ko'rinadi. Tarbiya amalga oshadigan sharoit pedagogik vaziyatlar deb ataladi.

7. Tarbiya vositalari. Tarbiya metodlari tarbiya jarayonining tarkibiy qismi sifatida yuzaga chiqadigan tarbiya vositalaridan tashkil topadi. Metodlar ular bilan mustahkam bog'langan va birgalikda qo'llaniladigan boshqa tarbiya vositalari ham mavjud. Masalan, metodlarni samarali qo'llash uchun zaruriy yordam beruvchi ko'rgazmali qurollar, tasviriy san'at asarlari va musiqa san'ati, ommaviy axborot vositalari.

8. Pedagogik malakani egallaganlik darajasi. Tarbiyachi odatda faqat o'zi biladigan va qo'llay oladigan metodlarni tanlab oladi. Ko'plab metodlar murakkab bo'lganligi bois, o'qituvchidan ko'p kuch ishlatishni talab etadi. Bunday



masuliyatdan bo'yin tovlaydigan pedagoglar ularsiz faoliyatni tashkil etishga harakat qiladi. Natija esa turli obrazli, xilma-xil maqsad, vazifa, shart-sharoitlardan kelib chiqib metodlardan foydalanishga qaraganda past samaraga ega bo'ladi.

9. Tarbiya vaqti. Qachonki, vaqt kam, maqsad esa katta bo'lsa, «kuchli harakatga keltiradigan» metodlar qo'llaniladi, qulay sharoitlarda esa, tarbiyaning «oddiy» metodlaridan foydalaniladi. Tarbiyani «kuchli harakatga keltiradigan» va «oddiy» metodlarga bo'linishi shartli: birinchisi tanbeh berish va majbur qilish bilan, ikkinchisi nasihat qilish va doimiy o'rgatish bilan bog'liq.

10. Kutiladigan natija. Metodni tanlayotganda, tarbiyachida muvaffaqiyatga erishishga nisbatan ishonch bo'lishi kerak. Buning uchun qo'llanilayotgan metod qanday natijaga olib kelishini oldindan ko'ra bilish kerak.

O'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini kamol toptirishda shaxsning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, hayotiy yondashuvlari, uning uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar hamda axloqiy tamoyillar mohiyati u ega bo'lgan dunyoqarash mazmunini ifodalaydi. O'z navbatida dunyoqarashning boyib borishi shaxsning shaxsiy sifat va fazilatlarining tobora barqarorlashuvini ta'minlaydi. O'z mazmunida ezgu g'oyalarni ifoda etgan dunyoqarash shaxs qiyofasida namoyon bo'layotgan ijobiy fazilatlarning boyib borishiga yordam beradi.

Dunyoqarash o'z mohiyatiga ko'ra, ilmiy (muayyan falsafiy tizimga ega) va oddiy (muayyan falsafiy tizimga ega bo'lmagan) dunyoqarash tarzida farqlanadi. Ilmiy dunyoqarash asosida uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o'zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlik kasb etgan g'oyalar yotadi.

Shaxs dunyoqarashini shakllantirish uzoq muddatli, dinamik xususiyatga ega murakkab jarayon sanaladi.

Birinchi bosqichda ular beqaror va vaziyat taqozosiga ko'ra o'zgaruvchanlik xususiyatini kasb etadi. **Ikkinchi bosqich**da ma'naviy-axloqiy qarashlarning barqaror tamoyillariga aylanadi. Mavjud talab, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy qoidalardan chetga chiqish qiyin, ziddiyatli vaziyatlarda ongli harakatni tashkil etish, irodaviy sifatlarga tayangan holda ish ko'rish taqozo etiladi. **Uchinchi bosqich**da, e'tiqod barcha vaziyatlarda ham ustuvor ma'naviy-axloqiy tamoyil bo'lib qoladi. O'quvchi tomonidan o'zlashtirilgan ilmiy bilimlar hayotiy munosabatlar jarayonida keng qo'llanilganda, ularning asl mohiyati chuqur his qilingan va anglangandagina e'tiqodga aylanadi.

Nazorat savollari:

1. Oliy ta'lim didaktikasining asosiy muammolari nimada?
2. Oliy ta'lim didaktikasining funksiyalari nimalardan iborat va tarbiya uyg'unligi xaqida nimalarni bilasiz?
3. Tarbiya metodlarini tasniflashga doir yondashuvlarni izohlang.



4. Shaxs ongini shakllantirish metodlari haqida gapirib bering.
5. Faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy xulq-atvor tajribalarini shakllantirish metodlarini misollar asosida tushuntiring.
6. Didaktik jarayon nima?
7. O'quv-tarbiya vaziyatlarining ahamiyati nimada?
8. Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullarga nimalar kiradi?

Nazariy dalillarga tayangan holda quyidagi mavzularda 5 minutlik esse yozing:

1. Har tomonlama barkamol, malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlashda jamiyatimizda qabul qilinayotgan islohotlar
2. Oliy ta'lim didaktikasi jarayonining mohiyati va vazifalari.
3. Oliy ta'lim didaktikasida yuksak dunyoqarash va e'tiqod tarbiyasi.

ADABIYOTLAR:

1. Gagarin A. Innovatsionnaya didaktika vysshey shkolы: teoriya, texnologii, metody: Elektronnoe uchebnoe posobie. / <https://www.academia.edu/33328359/>
2. Korjuev A.V. Didaktika vysshey shkolы.-M.:Sentyabr, 2019.-238s.
3. Popkov V.P., Korjuyev A.V. Didaktika vysshey shkolы.-M.:Mysl, 2020.-234 s.
4. Podlasiy V.P. Pedagogika. Kniga v 3-x chastyax/Didaktika,-M.:Logos, 2013.-468b.
5. Rozov M. A. K metodologii analiza etosa nauki // Filosofiya nauki. Выр. 11: Etos nauki na rubeje vekov. M.: IF RAN, 2015. S. 137—154.
6. Mirskaya Ye.Z., R. K. Merton i etos klassicheskoy nauki // Filosofiya nauki. Выр. 11: Etos nauki na rubeje vekov. M.: IF RAN, 2015. S. 19.
7. Didaktika vysshey shkolы: ucheb, posobie dlya stud. vyssh. ped. ucheb. Zavedeniy /V. A. Popkov, A. V. Korjuev. M.: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 2018. S. 31.
8. Korshunova N. L. Ob'ektivnost znaniya v pedagogike i yee ob'ekt v kontekste razvitiya sovremennoy nauki // Psixologo-pedagogicheskiy poisk. 2019. № 2 (14). S 43—61, s. 46.

3-MAVZU. PEDAGOGIKA VA TA'LIM METODIKASIDAGI INNOVATSION OQIMLAR VA MUAMMOLAR.

REJA:

1. Didaktik innovatsiyalarni ilmiy asoslash manbalari. Oliy ta'lim didaktikasida paradigmalar tavsifi.
2. Ta'lim mazmunini tanlashga oid nazariyalar.
3. Oliy ta'limda innovatsion ta'limni amalga oshirish shakllari va usullari



Tayanch tushunchalar: *didaktika, innovatsiya, ilmiy asoslash, paradigma, oliy ta'lim, ta'lim shakllari va usullari.*

Didaktik innovatsiyalarni ilmiy asoslash manbalari. Oliy ta'lim didaktikasida paradigmalarning tavsifi. XX asrda oliy ta'lim didaktikasida tahsil oluvchining shaxsiyati bilan bog'liq o'qitish va rivojlanish o'rtasidagi munosabatlar muammosi xorijiy va o'zbek olimlari tomonidan ko'rib chiqilgan

Ushbu muammoning konseptual-semantik tomoniga e'tibor qaratadigan bo'lsak, birinchi navbatda, ta'lim shaxs va jamiyat rivojlanishi uchun eng muhim manba ekanligi bilan bog'liq. Ikkinchidan, oliy ta'limning demokratlashtirishi va insonparvarlashtirish jarayonlari uning ishtirokchilari uchun ma'lumot darajasiga bevosita ta'sir qiladi, bu ta'sir natijasi shaxsning fuqarolik e'tiqodiga, bilimlarni o'zlashtirish asosida har kimning moslashuvchan va integral qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratiladi, shu jumladan, kasbiy va o'zini o'zi anglash uchun davlat va shaxsiy hayot ehtiyojlari tamoyillari asosida o'rganishga sabab bo'ladi. Uchinchidan, sivilizatsiya va ijtimoiy-madaniy jarayonlar uzluksiz ta'lim va o'z-o'zini tarbiyalashni talab qiladi ("butun hayot davomida") barcha yoshdagi tahsil oluvchilar yangi kompetentsiyalarni egallash, bilim olish usullarini o'zlashtirishlari kerak. To'rtinchidan, ta'lim va shaxs rivojlanishining yoshiga bog'liq xususiyatlarini an'anaviy tushunishga nisbatan tanqidiy- yondashish: ta'lim olishga munosabat, maqsadlar, mazmun va usullarning tanlanishini talab etadi.

Zamonaviy ta'limning madaniy va tarixiy asoslari to'g'risidagi savolni o'rtaga tashlagan holda, bu "eng yaqin zonani" rivojlantirish tamoyilini oqlashni anglatadi. Bu esa, oliy ta'lim didaktikasida ta'lim jarayonida paydo bo'lgan innovatsiyalarni tavsiflashga zamin yaratadi.

Didaktik innovatsiyalarni ilmiy asoslashda "vizual burilish" "ta'limiy media makon" tushunchalarining paydo bo'lganligini inobatga olishga to'g'ri keladi. Bu madaniy nutqning o'zgarishi bilan rag'batlantirilgan yangilik sifatida ma'lumotlardan foydalanish, ularning madaniyat, ta'lim va kundalik hayotdagi mavqei (E. Giddens, G. Debord, J. Deleuze, E. V. Petrovskaya, A. I. Dontsov) sifatida tavsiflanadi.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimining innovatsion salohiyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Innovatsion ta'lim texnologiyalari ta'lim muassasalarida pedagogik va menejment yangiliklarini ishlab chiqish va joriy etish orqali pedagogik faoliyatni (va ushbu faoliyatni boshqarishni) maqsadga muvofiq, mazmunli o'zgarishini nazarda tutadi: o'qitish, tarbiyalash, boshqarishning yangi mazmuni; yangi ishlash usullari, yangi vositalar, tashkiliy shakllar.

Ta'lim amaliyoti elementlarining yangiligi darajasiga qarab har xil yangilik darajalari ajratiladi. Ta'limdagi yangiliklar uchun mezon bo'lib xizmat qilishi

mumkin bo'lgan innovatsiyalarning konstruktiv xususiyatlari: faoliyatli, loyihaviy, kompetensiyali yondashuvlarga asoslangan innovatsion ta'lim yondashuvlari mavjud.

Yangi ta'lim paradigmasining amalga oshirilishi ta'limning mazmuni va texnologiyasini yangilashni, yangi ta'lim muhitini yaratishni, ta'lim natijalarini baholashning tubdan farq qiluvchi vositalarini va, albatta, ushbu yangiliklarni, aniqrog'i, yangiliklarni amalga oshirishga qodir o'qituvchilarni tayyorlashni taqozo etadi.

Innovatsiya - yangilik, yangilik, o'zgarishni anglatadi; innovatsiya vosita va jarayon sifatida yangi narsani kiritishni o'z ichiga oladi. Pedagogik jarayonda innovatsiya o'qitish va tarbiyalashning maqsadi, mazmuni, usullari va shakllariga yangiliklarni kiritishni, o'qituvchi va tahsil oluvchilarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etishni nazarda tutadi.

Oliy ta'limda innovatsiyalarning asosini - ta'lim sifati va yangi ta'lim samarasini (natija) ta'minlaydigan tizim va tuzilmani, maqsad va vazifalarni, mazmuni va texnologiyalarini, shuningdek ta'lim-makon muhitini o'zgartirishning integral xarakteristikasi tushuniladi.

Innovatsiya - bu ta'limdagi barcha sub'ektlari: ta'lim muassasalari, o'qituvchilar va talabalarning sifatini yangilash bilan bog'liq jarayondir. Pedagogik yangiliklar va innovatsion ta'limning qiyosiy xususiyatlari. Innovatsion ta'limning identifikatsiya belgilari pedagogik innovatsiya, maqsadli yo'nalishlar, yaangi ta'lim mahsulotini yaratish: ta'lim tizimi, mazmuni, texnologiyasi va ta'lim vositalari, ta'lim amaliyotida yangiliklarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish bilan belgilanadi.

Innovatsion loyihalarning bir nechta funksional yo'nalishlari mavjud:

- samarali kasb-hunar va ta'lim jarayonini ta'minlash: ta'limning yangi mazmuni, ijtimoiy-madaniy sharoitlar, o'qitish va ta'lim texnologiyalari, innovatsion ta'lim muhiti va boshqalar.

- o'quv mahsulotlari: pedagogik vositalar, texnologik o'quv loyihalari; o'quv natijalarini baholash vositalari va boshqalar;

- tashkiliy va boshqaruv yangiliklari: kasbiy tayyorgarlik sifatini ta'minlaydigan boshqaruv jarayonlarida yangi echimlar.

Oliy ta'limda innovatsiya sub'ektlari: tadqiqotchilar, pedagog-novatorlar, ta'lim muassasalarining pedagogik jamoalari hisoblanadi.

Oliy ta'limda innovatsion faoliyat mazmuni mavjud o'quv amaliyotini ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida maqsadli ravishda o'zgartirish, kasb-hunar va ta'lim jarayonida innovatsion loyihalarni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi.



Innovatsiya tushunchasi tadqiqotlarda “yangilik kiritish” tushunchasi sifatida ko‘rib chiqiladi, “innovatsion jarayon” tushunchasi esa yangilik yaratish va ularni o‘zlashtirish hamda ta’lim muassasasi amaliyotida samarali qo‘llash jarayoni sifatida ifodalanadi. Demak, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda innovatsiya (yangilik kiritish) maqsadga yo‘naltirilgan o‘zgartirishlar bo‘lib, innovatsion jarayon pedagogik jarayonlarga yoki pedagogik faoliyatga o‘zgartirishlar (yangilik) kiritish jarayoni deb aytishimiz mumkin. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda innovatsion jarayonlarni tashkil etish asosida ko‘zlangan natijalarga erishishda, eng avvalo, ta’lim muassasasidagi mavjud muammolarni o‘rganish va tahlil qilish va ularni bartaraf etishda bajarilishi zarur bo‘lgan vazifalarni, maqsadni aniqlash, shuningdek, pedagogik jarayon sub’ektlarining imkoniyati va ehtiyojlarini inobatga olish zarur.

Pedagogik jarayonning sifati va samaradorligi sub’ektlarning faoliyatiga qay darajada bog‘liq bo‘lsa, ta’lim muassasasi faoliyatida belgilangan maqsadlarga ko‘ra yuqori natijalarga erishish ularning innovatsion faoliyati hamda innovatsion jarayonlarni tashkil etish qobiliyatlariga shu darajada bog‘liq bo‘ladi. Ta’lim muassasalarida bugungi kunda professor-o‘qituvchilar uzluksiz innovatsion izlanishda bo‘lishi, fikrlashi, o‘zaro munosabatlarini muvofiqlashtirishi, shuningdek, talabalarda ham innovativ g‘oyalarni shakllantirish asosida faoliyat ko‘rsatishi zarur. Shuning uchun pedagogik jarayon tashkilotchilari yangilik yaratish va ularni tatbiq etish, ixtirochilar salohiyatidan samarali foydalanish, ularning ilg‘or pedagogik tajribalarini targ‘ib qilish, ommalashtirish, innovatsion faoliyatlarining natijalarini baholash bo‘yicha, ayniqsa, ta’lim muassasasi va pedagogik jamoa darajasida zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish zarur. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda innovatsion salohiyatiga ko‘ra yangiliklar modernizatsiya, unifikatsiya, faoliyatni takomillashtirish, shaklan o‘zgartirish, rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan modifikatsion innovatsiyalar; oldindan ma’lum bo‘lgan metodlarning elementlarini yangi tizimga birikishini nazarda tutuvchi birikkan innovatsiyalar; o‘xshashlikka va umumiylikka ega bo‘lmagan radikal innovatsiyalar innovatsion jarayonlarning asosi sifatida belgilanishi mumkin. Innovatsiyalarning xususiyatlariga ko‘ra ularni turli xil asoslar bilan turlicha tasniflash mumkin, ya’ni bugungi kunda yangilik kiritishning tugallangan tasnifi mavjud emas. Shu bilan birgalikda pedagogik jarayonlarni tashkil etishda va samaradorligini ta’minlashda eng avvalo, yangiliklarni pedagogik jarayonlarning qaysi bo‘g‘iniga tegishli ekanligini inobatga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Oliy ta’lim didaktikasida innovatsiyalarni pedagogik jarayon komponentlari harakatlanishi va rivojlanish darajasi hamda maqsadga yo‘naltirilgan ijodiy, sifatiy o‘zgarishlar jarayoni sifatida belgilash mumkin. Boshqacha qilib aytganda, innovatsiya eskilikni yangilik bilan o‘zaro o‘rin almashinishini tezkor jarayonini



tasvirlaydi deb aytishimiz mumkin. Bu jarayonda quyidagi qator vazifalar pedagogik jarayonlarni takomillashtirish, yangiliklar kiritishni amalga oshirishda pedagogik innovatsiyalarni samaradorligining asosiy shartlari hisoblanadi: - ta'lim muassasasi jamoasi uchun yangilik kiritishning dolzarbligi mavjud muammolarni uzil-kesil hal qilish va pedagogik jarayon samaradorligini ta'minlashning asosiy omillari sifatida belgilanishi; - tanlangan innovatsion vositalarni ta'lim muassasasining imkoniyatlariga mos kelishi; - innovatsiyalarning to'la ilmiy asoslanganligi; - innovatsion jarayonlarning ahamiyatliligi va tizimliligi; - yangilik yaratuvchi va undan foydalanuvchilarning shaxsiy-professional xususiyatlarini hisobga olish va innovatsiyalarning ahamiyatini anglash har bir sub'ektning yuqori darajadagi mas'uliyati hamda javobgarligini ifodalashi; - innovatsion jarayonlarda tavakkalchilikni minimal darajada bo'lishi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish; - tavakkalchilik darajasini tushunish va ularning asoslanganligi zaruriyati; - ta'lim mazmunida, pedagogik loyihalarda o'zgartirishlar hamda rivojlanish tamoyillarining o'z ifodasini topishi. Ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni innovatsion yondashuv asosida tashkil etishga ob'ektiv va sub'ektiv omillar sabab bo'ladi. Ob'ektiv omillarga davlatning yangi ta'lim siyosati, ta'lim sohasidagi fundamental va amaliy tadqiqotlar, ta'lim muassasalarining innovatsion faoliyat yo'nalishidagi tajribalarini kiritishimiz mumkin. Sub'ektiv omillarga ijtimoiy-hududiy ehtiyoj hamda ta'lim muassasalari faoliyatining rivojlanish jarayoni, professor-o'qituvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini va ta'lim muassasasi ilmiy salohiyatini rivojlanishi. Ta'lim muassasalarida asosiy o'zgarishlar va innovatsion jarayonlarni tashkil etish asosiy maqsadga erishishga yo'naltirilgan bo'ladi va o'z navbatida mazkur maqsadlarga erishishda qator vazifalarni bajarilish zaruriyatini belgilaydi: - jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlariga mos, bilimli va qobiliyatli bitiruvchilar tayyorlash modelini amaliyotga tatbiq etishga asoslanish (ta'lim mazmunini yangilash); - pedagogik jarayonlarda o'quvchi-talabalar faolligini ta'minlash, raqobatbardosh, zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlash jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish (ta'lim dasturlarini yangilash); - pedagogik jarayonlarni oldindan loyihalashtirish, raqobatni vujudga keltiruvchi qulay ta'limiy muhitni shakllantirish;

- ta'lim standartlariga mos ravishda, harakatdagi dasturlarga yangi va rivojlantiruvchi o'zgartirishlarni kiritish; - ko'proq samarali hisoblangan va pedagogik jarayon sub'ektlari uchun qulay bo'lgan o'qitish vositalarini tanlash; - o'quv rejasining fakultativ va ta'lim muassasasi ixtiyoridagi soatlar hisobiga yangi fanlarni kiritish. Innovatsion jarayonlarni tashkil etish zamonaviy pedagogik texnologiyalarni izlash va tatbiq etish muammolarini vujudga keltiradi va bular sub'ekt-sub'ekt munosabatlariga asoslanadi, bu munosabatlar shaxsning qiziqishlari,



qobiliyatlari va sifatlarini anglashga yo'naltirilgan umumiy rivojlanish shartlarini belgilovchi asoslar hisoblanadi.

Innovatsiyalarni tatbiq etishning natijaviyligini tekshirish pedagogik jarayonlar samaradorligini ob'ektiv baholashni talab etadi va bunga quyidagilar misol bo'ladi: - pedagogik jamoaning kasbiy mahoratini o'sishi; - jamoada barcha uchun qulay ijtimoiy-psixologik muhitni vujudga kelishi hamda uning mustahkam va ijobiy xususiyatlari; - pedagogik jarayonlarni takomillashtirish va rivojlantirishga sub'ektlar moyilligi va jamoaning tayyorgarligi; - ilmiy va ilmiy-metodik salohiyatni oshirishga jamoadagi moyillik; - professor-o'qituvchilar va rahbar xodimlar o'rtasida axborotlar almashinuvi sifatining o'sishi; - uzluksiz ta'lim tizimining navbatdagi bosqichlarida o'qishni davom ettirishlari uchun o'quvchi-talabalarni tayyorlash darajasi va ta'lim muassasasida yaratilayotgan shart-sharoitlar sifati. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda innovatsion modellarni samarali tatbiq etishning boshlang'ich shartlari sifatida: - umumiy maqsadlarning mavjudligi va manfaatlar uyg'unlashuvi; - jamoada psixologik muhitning ijobiyliigi; -innovatsion jarayonlarda professor-o'qituvchilarning samarali ishtirokini ta'minlovchi chora-tadbirlarni misol keltirish mumkin. Adabiyotlarda (V.Bespalko, K.Klarin, N.Muslimov, S.Turg'unov) innovatsiya bo'yicha juda ko'p tushunchalar keltirilgan. Masalan, u mazmun va mohiyati, ichki tuzilishiga ko'ra texnikaviy, iqtisodiy, tashkiliy, boshqaruv va boshqa innovatsiya turlariga ajratilgan. Innovatsiyaning belgilari sifatida, uning ko'lami (global va lokal), davriyligi, amaliyotga tatbiq etish jarayonining (bosqichlarga ajratish va tahlil qilish) qonuniyatlari ajratib ko'rsatilgan. "Innovatsiya" tushunchasi (lot. novus – yangi) tadqiqotlarda va ilmiy ishlarda XIX asrlarda qo'llanila boshlanib, oldingi vaqtlarda u alohida elementlarni bir sohadan boshqa sohaga kiritishni ifodalagan.

Innovatsiya – maqsadga yo'naltirilgan o'zgartirishlar bo'lib, ma'lum bir ijtimoiy birlikka – muassasa, uyushma, jamoa va guruhlariga yangi va nisbatan barqaror bo'lgan elementlarni, umumiy holda xalqning ma'naviy-madaniy munosabatlari va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan yangiliklarni kiritishdir. Ba'zida innovatsiya jarayon sifatida ko'rib chiqiladi. Bunda yangiliklar kiritishning rivojlanishi vaqtga bog'liq bo'lib, u aniq ifodalangan bosqichlarga ega bo'ladi, deb ko'rsatiladi. Innovatsiya tushunchasi doimo bir xil ma'noda ta'riflanmaydi, ko'p hollarda u "yangilik kiritish" tushunchasi sifatida, "innovatsion jarayon" tushunchasi esa, yangilik yaratish va ularni o'zlashtirish hamda ta'lim muassasasi amaliyotida samarali qo'llashni ifodalaydi.

Oliy ta'lim didaktikasida "yangilik", "yangilanish", "yangilik kiritish" tushunchalari ko'pincha tenglashtiriladi, lekin ularning o'rtasida ba'zi bir farqlar mavjud. Yangilik – yangi tartib, yangi uslub, yangi metod, yangi ixtirolar bo'lishi



mumkin. Yangilik kiritish – bu yangilikning qo'llanishini bildiradi. Yangiliklarni amaliyotda qo'llash va ommalashtirishga kirishilgan vaqtda u yangi sifatga ega bo'ladi va innovatsiyalar vujudga keladi. Yangilik kiritishni ommalashtirish va ularni tashkil etish innovatsion jarayonning tashkil etuvchi qismlari hisoblanadi. Innovatsion jarayonning uchta mantiqiy shakllari ajratiladi: tashkilot ichidagi oddiy jarayon, tashkilotlararo oddiy jarayon va kengaytirilgan jarayon. Tashkilot ichidagi oddiy innovatsion jarayon bitta tashkilotning o'zida, ya'ni uning ichki faoliyatida yangilikni joriy etishni ko'zda tutadi, bunda yangilik ommalashtirish shakliga ega bo'lmaydi. Oliy ta'lim didaktikasi maqsadi- ta'limga madaniy yondashuv, o'quv-tarbiya jarayoni doirasida hal etiladigan vazifalar, pedagog va tahsil oluvchilar orasidagi o'zaro ta'sir etish tavsifiga ko'ra quyidagi ta'lim paradigmatlari farqlanadi.

An'anaviy (bilimga yo'naltirilgan) paradigma. Bilimga yo'naltirilgan paradigmadagi ta'limning bosh maqsadi: «Istalgan qiymatdagi bilim, bilim va yana bilimdir». Shuning uchun ta'lim muassasasining roli insoniyat sivilizatsiyasi madaniy merosining ko'proq mavjud unsurlari – ham individual, xuddi shunday ijtimoiy tartibni saqlab qoluvchi, individual rivojlanishga imkon beradigan zaruriy, xilma-xil, muhim bilim, ko'nikma va malakalar, bundan tashqari ideal va qadriyatlarni uzatish va saqlashda namoyon bo'ladi. Shuning uchun o'quv dasturlari mazmuni tayanch, asosiy, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash vaqtida sinovdan o'tuvchi, shaxsning funksional savodxonligi va ijtimoiyligini ta'minlashga asoslanadi.

Bixevioristik (ratsionalistik) paradigma. Ratsionalistik paradigma an'anaviy paradigмага qarama-qarshi o'laroq, o'zining diqqat markazida mazmunni emas, o'quvchilarning turli turdagi bilimlarni o'zlashtirishining samarali usullarini qo'yadi. Ratsionalistik ta'lim paradigmasi asosida ijtimoiy injeneriya bixevioristik konsepsiyasi turadi. Ta'lim muassasasining maqsadi – ta'lim oluvchilarda ijtimoiy me'yorlar, milliy madaniyat talablari va natijalariga muvofiq, moslashuvli “xulq-atvor majmui” ni shakllantiradi. Suning uchun «xulq-atvor» atamasi “barcha turdagi reaksiyalar, insoniy xususiyatlar – uning fikrlashi, his-tuyg'usi va harakati” ni bildiradi.

Mazkur paradigma ta'lim muassasasiga ta'lim oluvchilarning maqbul xulq-atvorini shakllantirish maqsadida bilimlarni o'zlashtirish yo'li sifatida qaraydi, ya'ni har qanday ta'lim muassasasi – bu yashash muhitiga moslashtirishning ta'limiy mexanizmi. Bunday o'qitishning asosiy metodlariga o'rgatish, trening, test nazorati, individual o'qitish, korrektsiyalash kiradi.

Insonparvarlik (fenomenologik) paradigmasining diqqat markazida o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyojiga ega bo'lgan, hayot subekti, shaxs erkinligi va ma'naviyati sifatidagi ta'lim oluvchi turadi. U bolaning ichki dunyosini rivojlantirish, shaxslararo muloqot, ijod, dialog, shaxs o'sishi uchun yordamga



yo'naltirilgan. Insonparvarlik paradigmasi vakillari yagona qarash bilan ajralib turmaydi. Uning doirasida ta'limning xilma-xil modeli amalga oshadi. Ularni bola va inson hayotining tengsiz davri sifatida bolalikka qadriyatli munosabat, ya'ni ta'lim muassasasining bosh vazifasi bolani rivojlantirish (aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik) ekanligini e'tirof etish yagona yo'nalishda birlashtiriladi. Insonparvarlik paradigmasi doirasida harakatlanuvchi har bir ta'lim tizimi ijodiy izlanishga asoslanib, ta'lim va tarbiyaning sof mazmuni, metod va vositalaridan joy oladi. Insonparvarlik paradigmasi ham o'qituvchi, ham o'quvchilarning erkinligi va ijodkorligini talab etadi.

Pedagogik faoliyatning insonparvarlik tamoyiliga asoslanuvchi paradigmasi quyidagi mezonlarga tayanadi:

–ta'limning ijtimoiylashuvi – o'qituvchilarni tayyorlash jarayoniga nisbatan texnokratik yondashuvdan voz kechish, ular tomonidan nisbatan o'zlashtiriladigan bilimlar majmuasining pedagogik hamda psixologik xususiyat kasb etishini ta'minlash, o'qituvchilarda umuminsoniy, umummadaniy qadriyatlar mazmunida ilgari surilgan g'oyalarga asoslangan ijtimoiy tafakkurni shakllantirish;

–milliy hamda jahon madaniyati asoslari va ularning mohiyatidan xabardor bo'lish;

–ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda milliy istiqloq g'oyalariga asoslanish;

–shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish hamda mustaqil ta'lim olishga bo'lgan layoqatiga tayanish va uni takomillashtirish;

–o'qituvchilarning kasbiy jihatdan shakllantirish jarayonida o'qituvchi hamda o'quvchilarning o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borishlariga erishish;

–ta'lim jarayonida o'quv dasturlarining talabalar qobiliyati hamda qiziqishlariga ko'ra tanlab olinishi borasidagi imkoniyatning mavjudligi;

–pedagogik ta'limning fundamental xususiyat kasb etishi, ya'ni, o'quvchilar tomonidan o'zgaruvchan sharoitlarda shaxs ijodiy rivoji asosini ta'minlovchi invariant bilimlarning o'zlashtirilishiga erishish;

–mehnat bozori hamda ijtimoiy jarayonlarda yuzaga keluvchi hamda doimiy ravishda o'zgarib turuvchi ehtiyojlarga to'laqonli javob bera oladigan ta'limni shakllantirish shu asosda kasbiy moslashuvchan mutaxassislarni tarbiyalash;

–ta'limning uzluksizligi, ta'limning har bir jarayon bosqichining natijalanishini ta'minlovchi kasbiy ta'lim (kadrlar malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash) dasturlarining tizimining yaratish va rivojlantirish, muayyan dasturni ta'limning u yoki bu bosqichida o'qitilishi yoki o'qishni boshqa tipdagi o'quv muassasida davom ettira olish imkoniyatini bera olishi;

–ta'limning ekvivalentligi, ya'ni uning davlat ta'lim standarti, milliy madaniyati va mentalitet, shuningdek, xalqaro me'yorlarga muvofiq darajasi.



Ilmiy-texnik, texnokratik paradigmaning bosh maqsadi amaliy takomillashtirish uchun zarur «aniq» ilmiy bilimlarni uzatish va o'zlashtirishdan kelib chiqadi. «Bilim – kuch», shuning uchun inson qadr-qimmatini uning bilish imkoniyatlari aniqlab beradi. Inson o'zini o'zicha emas, faqat aniq belgilangan etalon (o'rtacha namuna, standartlashgan) dagi bilish yoki xulq-atvor sohibi sifatidagina baholaydi. Texnokratik paradigma sharoitida o'quv-tarbiya jarayonining istalgan natijasi «ha – yo'q», «biladi – bilmaydi», «tarbiyali – tarbiyasiz», «egallagan – egallamagan» tizimida baholanishi mumkin. Bu yerda tayyorgarlik, ma'lumotlilik, tarbiyalanganlik darajasi tekshirib aniqlanadigan qandaydir etalon, ideal mavjud bo'ladi.

Ezoterik paradigma. Bu bizning sayyoramizdagi eng qadimiy ta'limiy paradigmalardan biri. Mazkur so'zning yunonchadan so'zma-so'z tarjimasida «sirli», «yashirin» ma'nolarini bildiradi. Uning mohiyatini abadiy va o'zgarmas Haqiqatga munosabat tashkil etadi. Ushbu paradigma tarafdorlarining fikricha, haqiqatni shunchaki bilish mumkin emas, unga vijdon pokligi orqali erishish mumkin. Pedagogik faoliyatning oliy maqsadi o'quvchining tabiiy kuch va imkoniyatlarini yuqori darajadagi ongga ega bo'lish, Kosmos bilan muloqot uchun sarf etish va rivojlantirishda namoyon bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchining muhim muhofaza qiluvchi funksiyasi ta'lim oluvchilarning axloqiy, jismoniy, psixik tayyorgarligini amalga oshirish va mavjud kuchlarini rivojlantirishdir.

Oliy ta'limda innovatsion faoliyatning mazmuni: eksperimental va izlanuvchan loyihalash faoliyati, kasbiy va ta'lim faoliyati bilan o'zaro aloqadorlikdadir. Innovatsiya darajasi mezonlari yangilik, takrorlanuvchanlik, foydalilik, amalga oshirish imkoniyati, fanlararo integratsiyani amalga oshirish, samaradorlik, ishlab chiqarish qobiliyati bilan tavsiflanadi.

Ta'lim turlari va shakllari hamda ularning tavsifi. Didaktik g'oyalar (tizimlar) tarixiy taraqqiyot jarayonida yangi g'oyalar bilan boyib davr talabiga mos keluvchi tizimlarga aylanadi. Didaktik tizimlarning ketma-ketligi o'qitish nazariyasi va amaliyotining umumiy qonuniyatidir. Ta'lim turlari (yunoncha speies) alohida, o'ziga xos xususiyatga ega. Pedagogik tizimlar turlari bo'yicha farq qiladi, keng qo'llaniluvchi tizimlar an'anaviy tizimlar deb ham ataladi. Ta'lim turlari o'quv jarayonini tashkil etish va amalga oshirishga nisbatan turlicha yondashuvni ifodalaydi.

Tushuntiruvchi-namoyish etuvchi ta'lim nomidan mohiyati anglanib turibdi. Ko'rgazmalilik asosida tushuntirishning asosiy metodlari tinglash va eslab qolish sanaladi.

Tushuntiruvchi-namoyish etuvchi ta'lim turi vaqtni tejash, o'qituvchi va o'quvchilarning kuchlarini asrash, qiyin bilimlarni tushunishni osonlashtirish, ta'lim jarayonini ancha samarali boshqarishni ta'minlaydi. Biroq muayyan kamchilikka



ham ega, ya'ni, "tayyor" bilimlarni berish va o'quvchilarni bilimlarni o'zlashtirishda mustaqil hamda mahsuldor fikrlashdan ozod etish, o'quv jarayonini individuallashtirish, differensatsiyalashtirish imkoniyatlarining kamligi.

Muammoli o'qitishda o'quv muammolarini hal etish jarayonida bilimlarni mustaqil egallash, o'quvchilarning ijodiy fikrlashlari va idrok etish faoliyatlarini rivojlantirish yo'li bilan ta'lim tashkil etiladi. Uning texnologiyasi turli-tumanligi bilan ajralib turmaydi, chunki o'quvchilarni faol idrok etish faoliyatiga jalb etish bir necha bosqichlardan iborat bo'ladi. Ular ketma-ket tartibda va kompleks amalga oshirilishi kerak.

Bunday o'qitishda muammoli vaziyatni yaratish muhim bosqich hisoblanadi. Bunday vaziyatda fikrlash jarayonida qiyinchilik his etiladi. O'quv muammosi bir qadar qiyin, lekin talabalarning kuchi yetadigan bo'lishi kerak. Muammoni ilgari surish bilan birinchi bosqich yakunlanadi. Muammoni hal etishning keyingi bosqichida talabalar savol bo'yicha mavjud muammoni ko'rib chiqadilar, tahlil qiladilar, javob topish uchun ularning yetarli emasligini aniqlaydilar va yetishmayotgan axborotni topishga intiladilar. Uchinchi bosqich muammoni yechish uchun zarur bo'lgan bilimlarni turli usullar bilan egallashga qaratilgan. U hayoliga birdan fikr kelishi bilan yakunlanadi ("Men nima qilishni bilaman!"). Shundan keyin muammoni hal etish, olingan natijalarni tekshirish, dastlabki gipoteza bilan solishtirish, olingan bilimlar, malakalarni tizimlashtirish va umumlashtirish bosqichlari keladi.

Dasturlashtirilgan o'qitish harakat (operatsiya)lar ketma-ketligi tizimini ifodalovchi, ularni bajarish ilgaridan rejalashtirilgan natijaga olib keluvchi "dastur" terminidan kelib chiqadi. Ushbu turning asosiy maqsadi o'quv jarayonini boshqarishni yaxshilashdan iborat. Bunday o'qitish asosini kibernetik yondoshish tashkil etadi. Unga binoan o'qitish murakkab dinamik tizim sifatida qaraladi. Dasturlashtirilgan o'qitish yangi didaktik, psixologik va kibernetik g'oyalar asosida XX asrning 60-yillari boshlarida yuzaga keldi. U talabaning bilim egallashi yo'lida har bir qadamni nazorat qilishga imkon beradigan va shuning asosida o'z vaqtida yordam ko'rsatish, qiyinchiliklarini oldini olish, qiziqishini yo'qotmaslik va salbiy oqibatlarining oldini olishga imkon beruvchi o'quv jarayonining texnologiyasini yaratishga yo'naltiradi.

Kompyuterli ta'limning sifati quyidagi ikki asosiy omil bilan aniqlanadi: o'qitish dasturlarining sifati; hisoblash texnikasining sifati.

O'qitishni tashkil etish shakllari va ularning didaktikada rivojlanishi. Jahon pedagogik fani va amaliyotida ta'limni tashkil etishning turli shakllari mavjud. Jamiyat rivojining har bir yangi bosqichi ta'limni tashkil etishga o'z ta'sirini o'tkazadi.



Ayni vaqtda ta'limning quyidagi shakllari ajratib ko'rsatiladi: individual, individual-guruhli, leksion-seminarli va auditoriyadan tashqari. Ular talabalar faoliyatini tashkil etishi, jamoaviy va individual shakllarining nisbatlari, mustaqilligi darajasi va o'qish jarayoniga rahbarlik qilish xususiyatlari kabi belgilariga ko'ra quyidagi uch asosiy turga ajratiladi: individual; jamoaviy; leksion-seminarli.

O'quv mashg'uloti tizimi K.D.Ushinskiy tomonidan rivojlantirilgan. U bu shaklning hamma ustunliklarini ilmiy asoslab berdi, uning tashkiliy qurilishi va tipologiyasining ixcham nazariyasini yaratdi. K.D.Ushinskiy har bir mashg'ulotning bir-biri bilan ketma-ket bog'langan quyidagi uchta qismini ajratib ko'ratadi: ilgari o'rganilgan bilimlar asosida yangi bilimlarni anglashni amalga oshirish va talabalarda materialni jadal qabul qilishga maqsadli ko'rsatmani yaratishga qaratiladi. Amalga oshirilgan faoliyatga yakun yasash va bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash.

Mashg'ulotni tashkil etish ilmiy asoslarini ishlab chiqishga A.Disterveg ham katta hissa qo'shdi. U o'qituvchi va talabalarning faoliyatiga taalluqli o'qitish tamoyillari va qoidalari tizimini ishlab chiqdi, ularning yoshi imkoniyatlarini hisobga olishni zarurligini asoslab berdi.

Mashg'ulot o'tkazish tizimini alohida o'quv fanlarini o'qitish metodikasi va didaktikasiga oid asarlarida uning afzallik va kamchiliklarini ko'rsatib berdi.

Afzalliklari: yaxlit o'quv-tarbiyaviy jarayonning tartibli ketishini ta'minlovchi aniq tashkiliy tizim; jarayonlarning oddiy boshqarilishi: muammoning jamoa bo'lib muhokama qilinishi, masalaning yechimini birgalikda izlash jarayonida bolalar o'rtasida o'zaro munosabatlarning shakllanish imkoniyati; o'quv faoliyatiga musobaqalashish elementlarini kiritish uchun sharoitning yaratilishi, bilimsizlikdan bilimlarni o'zlashtirish sari harakatlarning muntazamligi va ketma-ketligi.

Kamchiliklari: tizimning asosan bilimlarni o'rtacha darajada o'zlashtiruvchilar uchun mo'ljallanganligi, bo'sh o'zlashtiruvchilar uchun qiyinchiliklarning yuzaga kelishi va kuchli o'zlashtiruvchilar qobiliyatlarining rivojlanish sur'atining ortga surilishi; o'qituvchi uchun o'qitish mazmuni va o'qitish sur'atlari hamda metodlari bo'yicha individual ishlarni tashkil etish.

OTMda ta'limning tashkiliy shakli sifatida **auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulot** – dinamik hodisadir. U pedagogik jarayonning yaxlitligini ta'minlaydi va ta'limiy-tarbiyaviy-rivojlantirish vazifalarini ijobiy yechimini topishga imkon beradi.

OTMda zamonaviy auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar quyidagi talablarga javob bera olishi lozim:

1. Fanning ilg'or yutuqlari, pedagogik texnologiyalardan foydalanish, mashg'ulotni o'quv-tarbiyaviy jarayon qonuniyatlari asosida tashkil etish.
2. Barcha didaktik tamoyil va qoidalarning optimal nisbatlarini ta'minlash.




3. Talabalarning qiziqishlari, layoqati va talablarini hisobga olish asosida ular tomonidan bilimlarning puxta o'zlashtirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish.
4. Fanlararo bog'liqliklarni o'rnatish.
5. Ilgari o'rganilgan bilim va malakalari, shuningdek, kompetensiyalarning rivojlanish darajasiga tayanish.
6. Shaxsning har tomonlama rivojlantirishni motivatsiyalash va faollashtirish.
7. O'quv-tarbiyaviy faoliyat barcha bosqichlarining mantiqiyliigi va emotsionalligi.
8. Pedagogik vositalardan samarali foydalanish.
9. Zarur bilim, ko'nikma va malakalar, fikrlash va faoliyat ratsional usullarini shakllantirish.
10. Mavjud bilimlarni doimo boyitib borish ehtiyojini yuzaga keltirish.
11. Mashg'ulotni puxta loyihalashtirish, rejalashtirish, tashhis va taxmin qilish.

Aksariyat mualliflar "ta'lim metodlari talabalarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari" degan qarashga yon bosadilar. Demak, **ta'lim metodlari** ta'lim jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi usullar majmuidir.


Ta'lim metodlari ta'lim maqsadini yoritishga xizmat qiladi, u yordamida ta'lim mazmunini o'zlashtirish yo'llari ifoda etiladi, o'qituvchi va talabalarning o'zaro harakati, xususiyati aks ettiriladi. Metod, birinchidan, ta'lim maqsadiga erishish vositasi sifatida namoyon bo'lsa, ikkinchidan, ta'lim faoliyatini amalga oshirish sharti hisoblanadi.

Ta'lim metodlari quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:



Bu funksiyalar ta'lim metodini qo'llash jarayonida bir-biridan ajratilgan holda yoki ketma-ket joriy etilmaydi, aksincha bir-biriga o'zaro singib ketadi. Misol uchun, tashxisli funksiya o'qituvchining bir qator metodlardan yaxlit foydalanishi evaziga bajariladi.


“Ta'lim metodi” tushunchasi bilan birga ko'p hollarda “metodik usul” (sinonimlari – pedagogik usul, didaktik usul) tushunchasi ham qo'llaniladi. U ta'lim metodining tarkibiy qismi, uning muhim unsuri, metodni joriy qilishdagi alohida qadam sifatida ta'riflanadi. Har bir ta'lim metodi muayyan ta'lim usullarini chog'ishtirish orqali joriy etiladi. Ta'lim faoliyatida qo'llaniladigan usullarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:



Ta'lim metodlarini tanlash quyidagi mezonlari asosida aniqlanadi: *didaktik maqsad asosida; ta'lim mazmuni asosida; talabalarning o'quv ko'nikmalarini egallash va rivojlanish darajasi asosida; o'qituvchining tajribasi va kasbiy tayyorgarlik darajasi asosida.*

Didaktikada munozaralarga sabab bo'layotgan yana bir muhim ob'ekt ta'lim metodlarining tasnifidir. Ta'lim metodlarining tasnifi asosiy didaktik maqsadlar bo'yicha tizimlashtiriladi.

Ta'lim metodlarining turlari va vazifalari. Didaktik jarayon tuzilmasiga ko'ra ta'lim metodlari quyidagi uch guruhga ajratiladi:






Yuqorida ko'rsatilgan metodlar quyidagi tarzda nomlanadi:

1. O'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va bajarish metodlari.
2. O'quv-bilish faoliyatini rag'batlantirish va motivlash metodlari.
3. Nazorat va o'z-o'zini nazorat metodlari.

Talabaga bilimlarni yetkazish shakliga ko'ra ta'lim metodlari:

1. Og'zaki bayon qilish metodlari.
2. Ko'rgazmali metodlar.
3. Amaliy metodlar kabi turlarga ham ajratiladi.

Ta'lim metodlari tizimida muhim o'rin tutadigan **og'zaki bayon qilish metodlarining** o'zi ham quyidagi turlarga ajratiladi:



Og'zaki bayon qilish metodlarining turlari

Og'zaki bayon qilish metodlari talabalarning umumiy madaniyati, mantiqiy fikrlashi hamda bilish qobiliyatini rivojlantirish bilan bog'liqdir. Ugbu metodlar talabaning nutq boyligini oshirish va xorijiy tillarni o'rganishdagi ahamiyati beqiyos.

Hikoya o'qituvchi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, tasviriy vositalar yordamida obrazli tasvirlash yo'li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishi.

Metodning samarasi ko'p jihatdan o'qituvchining nuqt mahorati, so'zlarni o'z o'rnida, ifodali bayon qilishi, shuningdek, talabalarning yoshi, rivojlanish darajasini inobatga olgan holda yondashuviga bog'liq. Shu bois hikoya mazmuni talabalarning mavjud bilimlariga tayanishi, ularni kengaytirishga xizmat qilishi zarur. Hikoyaning axborotlar bilan boyitilishi maqsadga muvofiqdir.

Hikoya qilinayotgan materialni samaralash maxsus reja asosida amalga oshiriladi. O'qituvchi har bir darsda uning maqsadini aniq belgilab oladi, undagi asosiy tushunchalarga alohida urg'u berishga e'tiborni qaratadi. Hikoya qisqa bo'lishi hamda talabalarda his-hayajon va mavzuga nisbatan qiziqishni uyg'otishi kerak.

Suhbat savol va javob shaklidagi dialogik ta'lim metodi



Suhbat metodi fanga qadimdan ma'lum, xatto undan o'z faoliyatida Suqrot ham mohirona foydalangan. Suhbat ta'lim jarayonida ko'p funksiyalar (aqliy fikrlash, hozirjavoblik, muloqot madaniyati va boshqa sifatlarni shakllantiradi) bajaradi, ammo asosiysi talabada faollikni yuzaga keltiradi. Suhbat o'qituvchi fikriga mos harakat qilish, natijada yangi bilimlarni bosqichma-bosqich egallashga imkon beradi.

Suhbat – faoliyatini endigina boshlagan o'qituvchi uchun murakkab ta'lim metodi hisoblanadi, binobarin, savollarni tayyorlash, ularning ketma-ketligini ta'minlash ko'p vaqt talab etadi, uni tashkil etishda esa barcha talabalarning diqqatini jalb etish talab qilinadi. O'qituvchi oddiy savollar berishi, talabalarga ular yuzasidan batafsil o'ylash uchun vaqt ajratishi, talabalarning javoblarini esa diqqat bilan tinglashi, zarur o'rinlarda ularni sharhlashi lozim. Shu bois suhbatda bilish deduktiv yoki induktiv yo'l bilan amalga oshadi. Deduktiv suhbat talabalarga oldindan ma'lum bo'lgan qoidalar, tushunchalar, hodisalar, jarayonlar asosida tashkil etilib, talabalar tahlil yordamida xususiy xulosalarga keladilar. Suhbatning induktiv shaklida alohida dalillar, tushunchalarning tahlil asosida umumiy xulosaga kelinadi.

Suhbat ko'proq talabalarni yangi bilimlar bilan tanishtirish, bilimlarni tizimlashtirish va mustahkamlash, nazoratni tashkil etish hamda o'zlashtirilgan bilimlarni tashxislashda ijobiy natijalarni beradi. Suhbat turli ko'rinishlarda, ya'ni, **kirish, yakuniy, individual va guruhli suhbat** tarzida tashkil etiladi.

Kirish suhbat o'quv ishlarining boshida tashkil etiladi. Uni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad hal etilishi zarur bo'lgan ishlar mohiyatining talabalar tomonidan anglab yetilganligini tekshirib ko'rishdan iborat.

Yakuniy suhbat talabalar tomonidan egallangan bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

Katexizism (qisqa bayonli) suhbat – talabalarning boshlang'ich bilim darajasi va ularning yangi mavzuni o'zlashtirishga tayyorgarligini aniqlash uchun dars avvalida yoki so'ngida qo'llaniladi.

Evristik suhbat yangi bilimlarni muammoli tarzda egallashga yo'naltiriladi. Savollar shunday ketma-ketlikda berilishi zarurki, ular talabalarni mustaqil fikrlash, ularda faollikning yuzaga kelishini ta'minlash, ularni tahlil qilishga undash, dalillarni ilgari surishga rag'batlantirsin.

Tushuntirish o'quv materiali mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilishdir. Bu metod hikoyaga nisbatan birmuncha keng qo'llaniladi. Undan odatda nazariy materiallar hamda murakkab masalalarni o'rganishda foydalaniladi. Tushuntirish jarayonida o'quv materialining bir qadar qiyin o'rinlariga alohida urg'u berilib, mazmuni ochib beriladi. Tushuntirish


samarasi ko'p hollarda o'qituvchining ko'rgazmali vositalardan oqilona foydalanishiga bog'liq bo'ladi.

Ma'ruza yirik hajmdagi o'quv materialini og'zaki bayon qilish metodi sanalib, u qat'iy mantiqiy ketma-ketlik, uzatilayotgan axborotlarning ko'pligi, bilimlar bayonining tizimliliği kabi o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etadi

Ma'ruza mazmuni murakab tizimlar, hodisalar, ob'ektlar, jarayonlar, ularning sababli-oqibatli bog'lanishlari, qonun va qoidalardan tashkil topadi va u butun dars jarayonini qamrab olishi mumkin. Ma'ruza metodi tushuntirish va suhbatning asta-sekin kengayib borishidan vujudga keladi, bir vaqida talabalarni qisqacha yozib olish (konspektlash)ga o'rgata boradi.

Ma'ruzaning samaradorligini ta'minlash **shartlari** quyidagilardan iborat: ma'ruza rejasini tuzish; talabalarni ma'ruza mavzusi, rejasi bilan tanishtirish; ma'ruza bandlarini mantiqiylik va ketma-ketlikda bayon etish; har bir bandini qisqacha xulosalash; ma'ruzaning bir qismidan ikkinchisiga o'tishda mantiqiy aloqadorlikni ta'minlash; ma'ruzani muammoli va hissiy tarzda bayon qilish; bunja nutq imkoniyati, misollar, aniq dalillar va qiyoslashlardan foydalanish; talabalarning bilish faoliyatini mahorat bilan boshqarish; ma'ruzaning muhim jihatlarini ochib berish; talabalar ma'ruzaning asosiy o'rinlarini yozib borishlariga imkon yaratish; muhim o'rinlarni ta'kidlab ko'rsatish; ma'ruza mazmunini ko'rgazmali tarzda (namoyish, illyustratsiya, videofilm va boshqalardan foydalangan holda) yoritish.

Ta'lim sifatini oshirishda **ko'rgazmali metodlar** ham alohida ahamiyatga ega. Ko'rgazmali metodning quyidagi turlari mavjud:



Ko'rgazmali metodning turlari

Ushbu metodlardan foydalanish zaruriyati ko'rsatmalilik tamoyiliga amal qilish maqsadga muvofiq ekanligida ko'rinadi. Inson miyasining 30 foiz hajmini ko'rishni, faqat 3 foizigina eshitishni ta'minlovchi neyronlar tashkil etadi. Pedagogik-psixologik yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar natijalaridan ma'lum bo'ladiki, shaxs tomonidan o'zlashtirilayotgan bilimlarning 85 foizi ko'rish retseptorlari yordamida o'zlashtiriladi.



Demak, o'zbek xalqi tomonidan ko'p bora qo'llaniladigan "Yuz marta eshitgandan bir marta ko'rgan yaxshi" maqoli ilmiy asosga ega ekan.

Namoyish metodi o'rganilayotgan ob'ekt harakat dinamikasini ochib berishda qo'l keladi va ayni chog'da predmetning tashqi ko'rinishi va ichki tuzilishi haqida to'laqonli ma'lumot berishda keng qo'llaniladi

Tabiiy ob'ektlarni namoyish qilishda odatda uning tashqi ko'rinishi (shakli, hajmi, miqdori, rangi, qismlari, ularning o'zaro munosabatlari)ga e'tibor qaratiladi, so'ngra ichki tuzilishi yoki alohida xususiyatlarini o'rganishga o'tiladi. Ko'rsatish ko'p holatlarda o'rganilayotgan ob'ektlarning sub'ekti yoki chizmasi yordamida kuzatiladi. Tajribalar namoyishi esa sinf taxtasiga chizish yoki o'qituvchining maxsus jihozlar yordamida ko'rsatib berishi hisobiga amalga oshadi.

Predmetlar, hodisa yoki jarayonlarni tabiiy holatda namoyish qilish yanada ko'proq didaktik samara beradi, biroq, bunday namoyishni amalga oshirish har doim ham mumkin bo'lavermaydi. Shu bois, bugungi kunda turli virtual laboratoriyalarni tashkil qilish, axborot ta'limiy elektron resurslaridan foydalaniladi.

Metod yordamida o'qituvchi talabalarni mustaqil ravishda ob'ektlarni o'rganish, zaruriy o'lchov ishlarini olib borish, aloqadorlikni o'rnatish, shuningdek, hodisalarning mohiyatini anglab yetishga bir so'z bilan aytganda faol bilish jarayoniga yo'naltirishi lozim. **Tasvirlash (illyustratsiya)** metodi namoyish metodiga chambarchas bog'liq bo'lsada, didaktikada alohida o'rganiladi.


Tasvirlash narsa, hodisalar va jarayonlarni ularning ramziy ko'rinishlari – chizma, port, rasm, fotosurat, yassi modellar va boshqalar yordamida ko'rsatishni taqozo etadi

Namoyish va tasvir metodlari o'zaro bog'liqlikda bir-birini to'ldirgan holda qo'llaniladi. Agar hodisa va jarayonni talaba yaxlit holda qabul qilishi zarur bo'lsa namoyishdan foydalanish, agar hodisa mohiyati hamda uning unsurlari o'rtasidagi bog'lanishlarni anglash talab etilsa illyustratsiyaga murojaat qilinadi.

Tasvirning samarasi ko'pincha o'qituvchi tomonidan ko'rsatuv texnologiyasi qay darajada o'zlashtirilganligiga bog'liq bo'ladi. Ko'rsatmalardan foydalanishning bilish jarayonidagi didaktik ahamiyati o'rganilayotgan ob'ekt mohiyatini to'laqonli yoritish bilan belgilanadi. Aslida illyustratsiyalar oldindan tayyorlanib, dars jarayonida zarur o'rinlarda kerakli hajmda ko'rsatiladi, aks holda ular sonining oshib ketishi talabalarni hodisa mohiyatini anglashda chalg'itadi. Ayrim hollarda tarqatma materiallar (fotosurat, jadval, tabiiy ob'ektlar va boshqalar) yoki texnik vositalar xizmatidan foydalanishga to'g'ri keladi.

Amaliy ishlar metodi o'zlashtirilgan bilimlarni amaliy masalalar yechimini topishga yo'naltirilgan jarayonda qo'llashni taqozo etadi, bunda nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmasi hosil qilinadi

Amaliy ishlar metodi talabalar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlar yordamida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilishda alohida ahamiyat kasb etadi:



Amaliy ishlar metodlarining turlari

Qayd etilganidek, ushbu metodlar talabalarda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yordam beradi. Aynan amaliy faoliyat jarayonida nazariy bilimlar harakatdagi shaklga ega bo'ladi.

Mashq – aqliy yoki amaliy (jismoniy) harakatlarni bajarish ko'nikmalarini egallash yo'lidagi ko'p marta takrorlanishlar bo'lib, mashqsiz ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish mumkin emas. Mashqlar og'zaki, yozma, grafikaviy (texnik jarayonlar mohiyatini ifodalash), ijtimoiy-foydali, jismoniy va boshqa turlarga bo'linadi.

Yozma mashqlar – ta'limning tarkibiy qismi sifatida zaruriy ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda mustahkamlash maqsadida qo'llaniladi.

Grafikaviy ishlar jihatlariga ko'ra yozma ishlarga o'xshash bo'lib, ulardan asosan texnik jarayonlarda keng ko'lamda foydalaniladi.

Mashqlarning bajarilish samarasi quyidagi shartlar hisobga olinganda birmuncha yuqori bo'ladi: **mashqlarni bajarishga nisbatan ongli yondashish; bajarish qoidasini bilish; vaqt bo'yicha takrorlanishning to'g'ri taqsimlanishi.**

Mashqni bajarishni tashkil etish quyidagi bosqichlardan iborat: o'qituvchining faoliyat maqsadi va mazmunini tushuntirishi; topshiriqni bajarish ketma-ketligini ko'rsatishi; o'qituvchi nazorati ostida talabalar tomonidan o'quv harakatining dastlabki bajarilishi; zarur ko'nikma va malakalar shakllanganicha o'quv harakatlarning ko'p bora takrorlanishi.



Ayrim holatlarda talabalar ovoz chiqarib (masalan, til o'zlashtirish (ingliz, yapon, xitoy va b.) tillarni o'zlashtirish mashg'ulotlarida o'quv harakatlarini takrorlashlari va bajarishlari lozim bo'ladi. Ular izohli mashqlar deb nomlanadi va bajariladigan harakatlarning mohiyatini anglagan holda ko'nikma va malakalarni egallashga imkon beradi.

Laboratoriya ishlari talabalarning jihoz, maxsus uskuna, qurol hamda turli texnikaviy qoliplardan foydalangan holda tajribalarni o'tkazish metodlari bo'lib, ular ko'proq tabiiy fanlar asoslarini o'rganishda qo'llaniladi. Bu metod talabalarning asbob-uskunalar bilan ish ko'rish, o'lchash ishlarini amalga oshirish va ularning natijalariga ishlov berish kabi ko'nikmalarini tezkor shakllantirishga imkon beradi. Laboratoriya ishlarini bajarish maxsus qurilma va jihozlar, shuningdek, materiallar hamda vaqtni sarflash, ularni ishga tayyor holatga keltirishni talab etadi. Biroq bu harakatlar talabalarning yuqori darajadagi faolligi asosida mustaqil ravishda tajriba va o'lchash ishlarini tashkil etish bilan takomillashtirilib boriladi.

Laboratoriyadan amaliy ishlarning farqi shundaki, bu metod talabalarning mavjud nazariy bilimlarni amaliy masalalar yechimini topishga yo'naltirilgan faoliyatini tashkil etishga xizmat qiladi. U talabalarning bilimlarini chuqurlashtirish, bilish faoliyatini nazorat qilish hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tuzatish borasidagi ko'nikmalarini shakllantirish kabi funksiyalarni bajaradi.

Amaliy mashg'ulotlarda talabalarning bilish faoliyati quyidagi besh bosqichda tashkil etiladi:



Oliy ta'limda talabalarning egallashlari lozim bo'lgan kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion ta'limga maqsadli jalb qilish uchun etarli psixologik-pedagogik sharoitlar zarur. Bunga quyidagilar kiradi:

- asosiy ta'lim dasturlari mazmunini amaliy yo'naltirilgan vazifalar bilan boyitish;



- kasbiy va o'quv jarayonida kompetensiyalarni rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish;
- kontekstli kompetensiya yondashuvi asosida mustaqil ishni tashkil etish;
- ta'lim natijalarini muntazam ravishda kuzatib borish.

Oliy ta'limda innovatsion ta'limni amalga oshirish shakllari va usullari: ta'lim texnologiyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, dasturlashtirilgan texnologiyalar, strim texnologiyalari va b.

Bilimlarni tizimlashtirish va ko'rgazmali namoyish etish texnologiyalari sirasiga ma'ruza-vizualizatsiya, mavzu bo'yicha adabiyotlar ro'yxatini tuzish, jadvallar sxemalarini to'ldirish, referatlar tayyorlash, diagrammalar, chizmalar, texnologik xaritalar bilan ishlash, mavzu bo'yicha adabiyotlarni tizimlashtirish, tuzilgan javob bilan dasturlashtiriladigan so'rov kiradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari: dasturlashtirilgan ta'lim, interfaol dialog, o'quv ma'lumotlarini kompyuterda vizualizatsiya qilish, kompyuterda modellashtirish, o'quv dasturlaridan iborat.

Ta'limni rivojlantirish texnologiyalari: muammoli ma'ruza, ma'ruza-munozara, muayyan vaziyatlarni tahlil qilish, tashkiliy va aqliy o'yinlar, o'quv va kasbiy matnlarni tanqidiy tahlil qilish, loyihalar usuli, ijodkorlikni rivojlantirish bo'yicha treninglar, diagnostik o'quv seminari, rivojlanish diagnostikasi, amaliyotga yo'naltirilgan vazifalar.

Oliy ta'lim didaktikasi rivojlanishining hozirgi holati o'qitishda axborot texnologiyalarining roli oshib borishi bilan tavsiflanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali talabalar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish odatiy texnologiyalarga qaraganda ancha tezroq. Ushbu texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallash va tarqatish xususiyatini o'zgartiradi, o'rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, o'qitishning yanada samarali usullarini qo'llash, shuningdek, ta'lim olish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 70 b.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-2909-sonli Qarori// -T.; Xalq so'zi gaz. 2017. 79(6773)-son. -48 b.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va



tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3151-sonli qarori//T.; O'zb.Res.Qonun hujjatlari to'plami. 2017. 30-son. 729-modda.

4. Abdullina O.A. *Общепедagogическая подготовка учителя в системе высшего педагогического образования*. М.: Просвещение, 2016. 141 с.

5. Borisova N.V. *Pedagogicheskie osobennosti sozdaniya i vnedreniya sistema aktivnykh metodov obucheniya v institute povysheniya kvalifikatsii*: Dis. ...kand. ped. nauk. М, 2019. 334s.

6. Verbiskiy A.A. *Aktivnoe obuchenie v vysshey shkole: kontekstnyy podhod*. М.: Vysshaya shkola, 2012. 207 s.

7. Lerner I.Ya. *Didakticheskie osnovy metodov obucheniya*. М.: Просвещение, 2014. 165.

8. Skatkin M.N., Kraevskiy V.V. *Soderzhanie obshchego srednego obrazovaniya: Problemy i perspektivy*. М.: Pedagogika, 2017. 208 s.

4-MAVZU: DIDAKTIK TIZIMLAR VA ULARNING TURLARI

REJA:

1. Didaktik tizim tushunchasi. Didaktik tizimlar va o'quv modellari
2. Pedagogik jarayon ishtirokchilarining professional faoliyati va ularga qo'yiladigan didaktik talablar.
3. Kasbiy didaktik tayyorgarlikning rivojlanishini ta'minlaydigan pedagogik funksiyalar tizimi.

Tayanch tushunchalar: didaktik tizim, pedagogik jarayon, kasbiy faoliyat, kasbiy tayyorgarlik, rivojlanish, pedagogik funksiyalar tizimi.

Didaktik tizimlar va o'quv modellari. Didaktik tizim deganda ma'lum mezonlarga ko'ra tanlangan yaxlit ta'lim tushuniladi. Didaktik tizimlar ekskursiyaning ichki yaxlitligi bilan ajralib turadi, maqsadlar, tashkiliy tamoyillar, mazmuni, o'qitish shakllari va usullarining birligi bilan shakllanadi. Tuzilmalarning o'ziga xos xususiyati bugungi tadqiqotchilarga uchta tubdan farq qiladigan didaktik tizimni ajratib olishga imkon beradi:



- 1) I.F.Gerbartning didaktik tizimi (didaktika);
- 2) D. Devining didaktik tizimi;
- 3) Zamonaviy mukammal tizim.

Nemis faylasufi va pedagogi I.F. Gerbart (1776-1841), Ya.A. Komenskiyning an'anaviy sinf-dars tizimini tanqidiy qayta ko'rib chiqdi.

Komenskiy, axloq va psixologiyaning nazariy yutuqlari asosida "pedagogikaning ilmiy tizimini" yaratdi. Gerbartning fikriga ko'ra, ta'limning eng yuqori maqsadi yuksak axloqiy fazilatlarga ega shaxsni, axloqiy jihatdan kuchli xarakterli shaxsni shakllantirishdir. Uning fikricha, ta'lim quyidagi axloqiy g'oyalarga asoslangan bo'lishi kerak:

- shax intilishlarining yo'nalishini, faoliyat sohasini va salohiyatini belgilaydigan mukammallik;

- xayrixohlik, o'z irodasini boshqalarning irodasiga muvofiqashtirish va bo'ysunishni ta'minlash;

- odamlar o'rtasidagi ziddiyatlarning kuchayishiga yo'l qo'ymaslik va b.

Didaktik tizimni yaratar ekan, zamonaviy psixologiyadan Gerbart ikkita asosiy g'oyaga tayandi:

- irsiy yoki orttirilgan ruhiy moyillik mavjud emas;

- barcha aqliy hayot g'oyalar asosida shakllanadi.

Gerbartning psixologiyasi va etikasi metafizik xarakterga ega edi va u taklif qilgan didaktika nemis idealistik falsafasiga asoslangan edi. Gerbart o'qitish tizimining asosiy xususiyatlari quyidagilar edi. Maktabning asosiy vazifasi – tahsil oluvchilarning intellektual rivojlanishiga g'amxo'rlik qilish, tarbiya esa oila masalasidir. Axloqiy jihatdan kuchli xarakterlarni shakllantirish uchun to'g'ri pedagogik etakchilik, intizom va shu bilan bog'liq ta'lim xizmat qiladi.

Amerika faylasufi, psixologi va pedagogi Jon Dyuning didaktik tizimi jamiyat va ta'lim muassasasining izchil rivojlanishi bilan ziddiyatga kelgan gerbartchilarning avtoritar didaktik tizimiga qarshi turish maqsadida ishlab chiqilgandi. J. Dyui tomonidan intizomiy choralar asosida tahsil oluvchilarga yuzaki ta'lim berish tanqidga uchradi. Shuningdek, pedagog hayot bilan bog'liq bo'lmagan ta'limning eskirgani; tahsil oluvchilarga "tayyor" bilimlarni berish, yodlashga qaratilgan "passiv" usullardan foydalanish; talabalarning qiziqishlari, ehtiyojlari etarli darajada hisobga olinmaganligi; ta'lim mazmunini ijtimoiy ehtiyojlardan ajratish; talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirishga etarlicha e'tibor bermaslik jiddiy pedagogik xatolarga olib kelishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlar ikki kichik tizim doirasida, ya'ni darsda va darsdan tashqari faoliyat jarayonlarida amalga oshiriladi. Bu jarayonlarni hamda o'zaro bog'liq bo'lgan tashkil etuvchi qismlarning ichki tabiatiga xos bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga olgan hamkorlikdagi faoliyatlar, shuningdek, ichki sharoit va imkoniyatlar pedagogik tizimni tashkil etadi, bunda





tizimning sub'ekti hisoblangan pedagoglar, o'quvchi-talabalar, ota-onalar va rahbarlarning faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.



Didaktik tizim ta'lim muassasasining maqsadi, vazifasi, ta'lim muassasasi tomonidan tanlangan model, strategiyalari orqali tavsiflanadi. Ya'ni ijtimoiy tizim turlaridan biri hisoblangan pedagogik tizim–yosh avlodga ta'lim va tarbiya berish, pedagogik jarayonlarni tashkil etish maqsadlariga xizmat qiluvchi turli strukturaviy va funksional bog'liq bo'lgan komponentlar majmuidan iboratdir. Pedagogik tizim belgilangan maqsad yo'nalishida, sub'ektlar faoliyatini muvofiqlashtirish, rahbarlar va pedagog xodimlarning funksional vazifalarini amalga oshirish va boshqarishda tashqi muhit bilan o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi, alohida xususiyatlarga ega bo'lgan o'zaro bog'liq qismlarning yaxlit holda vujudga kelishidir. Ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar, ya'ni ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot, to'garak mashg'ulotlari, ekskursiya, davra suhbat, uchrashuvlar, fanlar bo'yicha tashkil etiladigan musobaqa va tanlovlar, san'at festivallari, konferensiya, va boshqa turli yo'nalishlardagi tadbirlar, mustaqil ta'lim, o'zini-o'zi tarbiya, mustaqil ma'lumot, mustaqil ishlar, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlar, tarbiyaviy munosabatlar jarayoni (inson-inson, inson-texnika-inson, inson-kitobinson, inson-tabiati-inson, inson-san'at-inson munosabatlari), hamda pedagogik tajriba-sinov va pedagogik amaliyot jarayonlari majmui hamda ularning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi pedagogik tizimni tashkil etadi.

XXI asrda oliy ta'lim didaktikasida **yangi yo'nalishlar** qatorida taniqli amerikalik psixolog va pedagog Jerom Brukner tomonidan ishlab chiqilgan "kashfiyotlar orqali" o'rganish kontseptsiyasi alohida e'tiborga loyiqdir. Unga muvofiq talabalar voqelikni o'rganishlari, bilimlarni o'zlarining kashfiyotlari orqali o'zlashtirishlari kerak, bular barcha bilim kuchlarini ishga solishni talab qiladi va samarali fikrlashni rivojlantirishga nihoyatda samarali ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, talabalar bundan oldin o'zlari uchun noma'lum bo'lgan umumlashtirishlarni mustaqil ravishda shakllantirishlari, shuningdek ularni amaliy qo'llash ko'nikma va malakalariga ega bo'lishlari kerak.

Amaliy pedagogik faoliyat asoslari bo'lib hisoblanmish zamonaviy oliy ta'lim didaktikasi quyidagi xususiyatlari bilan tavsiflanadi:

1.Uning uslubiy asosini bilimlar falsafasi (gnoseologiya), materializmning ob'ektiv qonunlari tashkil etadi, buning natijasida zamonaviy didaktika o'quv jarayonini tahlil qilish va talqin qilishda bir tomonlama yondashuvdan chetlashdi.

Zamonaviy oliy ta'lim didaktikasi *pragmatizm, ratsionalizm, empirizm, texnokratizm* kabi falsafiy tizimlarga ega.

2. Zamonaviy didaktik tizimda o'qitishning mohiyati tayyor bilimlarni berish yoki qiyinchiliklarni mustaqil ravishda engib o'tish, talabalar tomonidan yaratilgan kashfiyotlari bilan bog'liq emas. Bu tahsil oluvchilarning o'z tashabbusi va mustaqilligi, faolligi bilan pedagogik menejmentning oqilona kombinatsiyasi bilan tavsiflanuvchi mohiyat va ma'no kashf qiluvchi jarayondir. Zamonaviy didaktika oqilona ratsionalizmga tayanadi. Uning kredosi va asosiy maqsadi talabalarni minimal vaqt, kuch va mablag 'sarflagan holda sifatli ta'lim olishga etkazishdir.

3. Ta'lim mazmunini aniqlashtirishga intilish yondashuvi o'zgardi, o'quv rejalari va dasturlarini shakllantirish tamoyillari va o'quv kurslari loyihalarini o'zgartirishga yangicha yondashuv paydo bo'ldi. Bugungi kunda tabaqalashtirilgan o'quv rejalari, dasturlari, kurslari butun dunyo ta'lim tizimiga tatbiq qilinmoqda. Shu bilan birga, o'quv dasturlarini optimallashtirish jarayonlari chuqurlashib, ularni talabalarning eng xilma-xil ehtiyojlari va qiziqishlariga moslashtirilmoqda.

Pedagogik jarayon ishtirokchilarining professional faoliyati va ularga qo'yiladigan didaktik talablar. O'qituvchilar tarkibining kasbiy tayyorgarligi—pedagogik jarayonning tarkibiy elementlarining nisbiy avtonomiyasiga ega bo'lgan dinamik tizim. Ushbu tizimning tarkibiy qismi sifatida didaktik mashg'ulot kelajakdagi mutaxassisning didaktik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon bo'lib, uning samarali ta'lim ishtirokchilari o'rtasidagi didaktik o'zaro ta'sirga tayyorligini ta'minlaydi. Bu jarayonda didaktik talabning mohiyatini aniqlash ushbu jarayonning boshqa unsurlari bilan aloqasini ko'rib chiqish va shu bilan uning o'ziga xosligi va funksiyalarini aniqlashni, tuzilishini yoritib berishni, rivojlanishning tarkibiy qismlari va harakatlantiruvchi kuchlari o'rtasidagi muntazam aloqalarni tahlil qilishni taqozo etadi.



Pedagogik jarayonda kasbiy faoliyatning yaxlitligini ta'minlaydigan didaktik tayyorgarlikning asosiy tarkibiy qismlari: *maqsadga muvofiqlik, mazmunli, texnologik va samarali natijaviylik* hisoblanadi. Har bir komponentning mazmuni va ularning o'zaro ta'siri didaktik tayyorgarlikning umumiy tamoyillari hamda foydalanilayotgan pedagogik texnologiyalar asosida yotadigan o'ziga xos printsiplarning harakati bilan belgilanadi.

Kasbiy didaktik tayyorgarlikning maqsadli komponenti umumiy maqsad va vazifalar tizimining birligi bilan ifodalanadi, uning kompleks echimi unga erishishni ta'minlaydi. OTM ta'limining asosiy maqsadi o'zlashtirilayotgan aniq kasbiy faoliyatning ajralmas tarkibini shakllantirishdan iborat.

M.N. Skatkin, I. Ya. Lerner, V.V. Krayevskiylarning ijtimoiy tajriba tuzilishini va ta'lim mazmunini aniqlash maqsadida o'tkazgan tahlillari shuni ko'rsatdiki, shaxs faoliyatining maqsadga muvofiq alohida harakati- maqsadlar, vositalar, usullar va natijalar to'g'risidagi bilimlarni kengaytirishni nazarda tutadi; zarur faoliyat turini amalga oshirish qobiliyati; uni o'zgartirish va yangi sharoitlarga moslashtirishga tayyorlik- bularning barchasi pedagogning kasbiy tayyorgarligini bildiradi. Pedagog kadrlarni didaktik tayyorlashning asosiy vazifalari:

1) bo'lajak mutaxassislar o'rtasida didaktik bilimlar tizimini shakllantirish; 2) talabalar tomonidan didaktik ko'nikma va malakalarning zaruriy kompleksini o'zlashtirish; 3) ularni ijodiy pedagogik faoliyat tajribasini o'zlashtirish; 4) o'quvchilar o'rtasida didaktik nazariya, pedagogik faoliyat va unga didaktik tayyorgarlik jarayoniga qiymat-emotsional munosabat tizimini shakllantirish. Ushbu vazifalarning kompleks echimi bo'lajak o'qituvchining didaktik madaniyatini shakllantirishni ta'minlaydi va didaktik tayyorgarlik vazifalarini amalga oshirilishini belgilaydi.

Kasbiy pedagogik faoliyat nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladigan didaktik tayyorgarlikning mazmuni didaktikaning ilmiy zamirida rivojlanadi, semiotik, psixologik va didaktik talablarni hisobga olgan holda moslashtirilgan va OTM mutaxassisning kasbiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Didaktik mashg'ulotlarning mazmunini tanlash "Didaktika" o'quv predmetini ta'lim, kvazi-professional (kasbga o'xshash) va o'quv-kasbiy faoliyat sub'ekti sifatida rivojlantirish mantig'ida tuzilgan. Shu bilan birga, kelajakdagi kasbiy faoliyatga qo'yiladigan talablar tizimli bo'lishi zarur.

Didaktik tizimlarda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish va tashkil etish: auditoriya va auditoriyadan tashqari tashkil etiladigan tadbirlar, mustaqil ta'lim, tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari hamda pedagogik amaliyot va pedagogik tajriba-sinov jarayonlarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlash talabalar uchun tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonlari natijaviyligi hisoblangan pedagogik jarayonlar samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Pedagogik jarayonlarni tashkil etishga tizimli yondashuvni tatbiq etishda talabalarga o'rgatiladigan tushunchalarning mazmun-mohiyati va ahamiyatiga ko'ra o'zaro bog'liqligini ta'minlash hamda mazkur tushunchalar ma'lum bir izchillikda va o'zaro bog'liq holda o'rganilishi zarurligini inobatga olish zarur. Ya'ni dars jarayonida o'rganilgan tushunchalarni mustahkamlash va rivojlantirish uchun o'quvchi-talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish, unda o'quvchi-talabalar mustaqil o'rganishi uchun berilayotgan topshiriqlar hamda tashkil etiladigan tadbirlar yo'nalishi va o'rganiladigan mavzular mazkur tushunchalarni rivojlantirishga xizmat qilishi, o'quvchi-talabalar tomonidan o'zlashtirilgan tushunchalarning rivojlantirish va takomillashtirib borishga pedagogik amaliyot va



pedagogik tajriba-sinov jarayonlari samaradorligi o'z ta'sirini ko'rsatishi inobatga olinishi zarur.

Talabalar (bakalavrlar) uchun tashkil etiladigan pedagogik amaliyot raqobatbardosh kadrlar tayyorlash yo'nalishida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning asosiy komponentlaridan biri hisoblanadi. Oliy o'quv yurtlarida talabalarning olgan nazariy bilimlari pedagogik amaliyot jarayonida mustahkamlanadi, ularda pedagogik faoliyat bo'yicha malaka va ko'nikmalar shakllanib, rivojlanib boradi. Pedagogik amaliyot pedagogik faoliyatning muhim va qimmatli tomonlarini ochishga yordam beradi. Amaliyot davomida bo'lajak pedagoglar umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida (keyingi o'rinlarda ta'lim muassasalari deb keltiriladi) tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning turli tomonlarini kuzatadi, tahlil qiladi, dars o'tishni o'rganadi, o'quvchilar bilan tarbiyaviy ishlarni olib boradi, darsdan tashqari mashg'ulotlarni o'tkazadi. Pedagogik amaliyot talabalarni kelajakda ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga amaliy jihatdan tayyorlash maqsadida tashkil etiladi va mazkur jarayonda talabalarning tayyorgarlik darajasi aniqlanadi. Pedagogik amaliyot jarayonida talabalarning dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish va boshqarish yo'nalishlaridagi bilim, ko'nikma va malakalari qay darajada shakllanganligi ma'lum bo'ladi. Pedagogik amaliyot talabalar uchun qaysi fanlarni yaxshi o'zlashtirganligi va qaysilariga e'tibor bermaganini anglash, pedagogik jarayonlarni rejalashtirish, loyihalashtirish, tashkil etish va boshqarish hamda dars konspektlarini tuzish va darsdan tashqari tadbirlarni rejalashtirish va tashkil etish yo'nalishlaridagi tushunchalarini, ko'rgazmali qurollar, ilmiy-metodik tavsiyalar tayyorlash, umuman olganda o'zlarining pedagogik qobiliyatlari darajasini mustaqil aniqlashi uchun imkoniyatlar yaratadi. Tajribalarning ko'rsatishicha, ko'pincha talabalar pedagogik amaliyot davrida nazariy tushunchalarini amaliyotga tatbiq etish va amaliy ko'nikmalaridan foydalanishda ma'lum kamchiliklarga yo'l qo'yadilar, dars o'tish va darsdan tashqari tadbirlarni tashkil etish hamda o'tkazishda turli xil qiyinchilik va muammolarga duch keladilar. Pedagogik amaliyot talabalarga pedagogik amaliyot rahbarlaridan kerakli maslahatlar olish asosida o'zlari yo'l qo'ygan kamchiliklar hamda muammolarni kelib chiqish sabablarini va ularni bartaraf qilish yo'l-yo'riqlarini o'rganib olishlari uchun zaruriy-ta'limiy muhit sifatida xizmat qiladi. Natijada talabalarning faqat nazariy bilimlari mustahkamlanib qolmay, balki pedagoglar uchun zarur bo'lgan amaliy malaka va ko'nikmalari ham shakllanib va rivojlanib boradi.

Pedagogik amaliyot jarayonida talabalarning pedagogik faoliyatga psixologik moslashuvini tezlashtirishda va ularning nazariy tushunchalarini mustahkamlash, bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda pedagogik amaliyot tashkil etilgan



ta'lim muassasalari jamoasi faoliyati, u yerdagi muhit va mavjud tarbiyaviy munosabatlar jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki pedagogik amaliyotning birinchi kunlarida talabalar ta'lim muassasasi tarixi, uning yo'nalishi va mavjud shart-sharoitlar; ta'lim muassasasi rahbarlari va pedagog xodimlar faoliyati hamda ularning ish rejalarini; ta'lim muassasasi jamoasi madaniyati; o'quvchilar bilan olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar tizimi; o'quv xonalari, laboratoriya va o'quv ustaxonalari; kasbga yo'llash (kasb tanlash) markazining faoliyati; jamoaviy boshqaruv organlari va jamoatchilik tashkilotlari faoliyati hamda o'qituvchilar, sinf rahbarlari va to'garak rahbarlarining mehnat faoliyati bilan tanishadilar. Bu o'z navbatida ta'lim muassasasidagi shart-sharoitlar va mavjud ta'limiy muhit talabalarning pedagogik amaliyot jarayonidagi faolligiga hamda kelgusi pedagogik faoliyati yo'nalishidagi tasavvuri va tushunchalariga o'z ta'sirini ko'rsatishini ifodalaydi. Demak, pedagogik amaliyotlarni tashkil etish uchun ilg'or pedagogik tajribalarga ega bo'lgan pedagog xodimlar faoliyat ko'rsatuvchi, zamonaviy talablarga javob beradigan, raqobatbardosh bitiruvchilar tayyorlash yo'nalishidagi tajribalari ommalashtirilgan zamonaviy talim muassasalarini tanlash muhim ahamiyatga ega. Mustaqil ta'lim – bu insonning o'zi tanlagan vositalar va adabiyotlar yordamida avlodlar tajribasini, fan va texnika yutuqlarini o'rganishga yo'naltirilgan shaxsiy xatti-harakatlari jarayoni. Bunda insonning ichki dunyosi, his-tuyg'ulari, mustaqil va erkin fikrlash qobiliyati asosiy rol o'ynaydi. Bir hadisda “So'zda sehr, she'rda hikmat bor” deyilganidek, bu haqda she'riyatda shunday hikmatli misralar bor: Kimki ololmasa hayotdan ta'lim, unga o'rgatolmas hech bir muallim. Demak, pedagogik jarayonlar samaradorligi nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etishga, balki mustaqil ta'limni yo'lga qo'yish, o'quvchi-talabalarda o'zini-o'zi tarbiyalash ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ularning refleksiv faoliyatini hamda o'zaro ta'sir jarayonini tashkil etish zarur. Ta'lim muassasalarida didaktik jarayonlarni tashkil etishda shaxslararo munosabatlar, talaba shaxsining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi tarbiyaviy munosabatlar jarayonining mavjudligi va ularning o'ziga xos xususiyatlarini ham inobatga olinishi zarur. Pedagogik jarayonlarni tashkil etishda mazkur jarayon ishtirokchilari, ya'ni professor-o'qituvchilar hamda talabalar o'zaro ma'lum bir belgilangan munosabatda bo'ladilar, bu munosabatlarni iqtisodiy, siyosiy va boshqa munosabatlardan farqli ravishda tarbiyaviy munosabatlar deb ataymiz. Tarbiyaviy munosabatlar insonlarning o'zaro tajriba almashinishi, tajribalarni o'zlashtirishi, qo'llashi, ular o'rtasidagi doimiy munosabat, ya'ni aloqalar tizimi bo'lib, inson-inson, inson-texnika-inson, inson-kitob-inson, inson-tabiati-inson, insonsan'at-inson kabi tarbiyaviy munosabatlar shaklida vujudga keladi va mazkur jarayonda inson ikkinchi bir insonga bevosita va bilvosita o'zining xatti-harakatlari bilan yoki vositalar yordamida ta'sir o'tkazishi mumkin, bu jarayon ixtiyoriy ta'lim



muassasalaridagi rahbarlar bilan xodimlar, professor-o'qituvchilar va o'quvchitalabalar o'rtasidagi munosabatlarni ham qamrab oladi.

Kasbiy didaktik tayyorgarlikning rivojlanishini ta'minlaydigan pedagogik funksiyalar tizimi. Didaktik tayyorgarlikning *rivojlanish funksiyasi* shundaki, didaktik bilim va ko'nikmalarni egallash mutaxassisga ta'lim muassasasida o'quv jarayonini tashkil etishga ijodiy yondashishni amalga oshirishga imkon beradigan kasbiy fikrlash, nutq, pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir.

Didaktik tayyorgarlikning *muvoziqlashtiruvchi funksiyasi* uning pedagogika kurslari va xususiy metodlarini, shuningdek maxsus kurslar va maxsus seminarlarni o'qiyotgan talabalarning kelgusi jarayoniga yo'naltiruvchi ta'siri bilan bog'liq. Ushbu funktsiyaning alohida roli pedagogik OTMlarning turli fakultetlarida o'quv jarayonini qiyosiy tahlil qilishda kuzatiladi.

Didaktik tayyorgarlikning muvoziqlashtiruvchi rolini amalga oshirish bilan uning birlashtiruvchi funktsiyasi o'zaro bog'liqdir. Ikkala funktsiya ham bo'lajak mutaxassis tomonidan didaktik muammolarni hal qilishda fanlararo integratsiya zarurati bilan bog'liq. Didaktik tayyorgarlikning birlashtiruvchi funktsiyasi shundaki, didaktik nazariyani o'zlashtirish jarayoni talabalarning falsafa, sotsiologiya, psixologiya, ta'lim nazariyasi va boshqalarni o'rganish jarayonida olgan bilimlarini hayotga tatbiq etadi, tizimlashtiradi va yangi mazmun bilan to'ldiradi.

OTMda o'qituvchisining didaktik tayyorgarligi didaktik funksiyalarni pedagogik jarayonda to'la-to'kis amalga oshirilishini taqozo etadi va tahsil oluvchilar tomonidan ma'lum bir tarkibni o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladi. Didaktik tayyorgarlikning mazmunini ilmiy asoslangan holda tanlab olish, uni optimallashtirish bo'yicha izlanishlar olib borish, pedagogik jarayonning samaradorligini oshirishda asosiy shartlardan biridir. Ma'lumki, ta'lim mazmuni uchta darajada shakllanadi: umumiy nazariy tushuncha, o'quv predmeti va o'quv materialli.

Shunday qilib, OTMlarda didaktik tizimlar asosida didaktik tayyorgarlikning mazmunli pedagogik ta'lim mazmunining nisbatan mustaqil yo'nalishi bo'lib, uning o'zlashtirilishi insonga pedagogik faoliyatning didaktik jihatlarini o'zlashtirishga sharoit yaratadi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 70 b.



2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli Qarori//T.; Xalq so'zi gaz. 2017. 79(6773)-son. -48 b.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-sonli qarori//T.; O'zb.Res.Qonun hujjatlari to'plami. 2017. 30-son. 729-modda.

4. Abdullina O.A. *Общепедagogическая подготовка учителя в системе высшего педагогического образования*. M.: Просвещение, 2016. 141 s.

5. Borisova N.V. *Pedagogicheskie osobennosti sozdaniya i vnedreniya sistema aktivnykh metodov obucheniya v institute povysheniya kvalifikatsii*: Dis. ...kand. ped. nauk. M., 2019. 334s.

6. Verbiskiy A.A. *Aktivnoe obuchenie v vysshey shkole: kontekstnyy podxod*. M.: Vysshaya shkola, 2012. 207 s.

7. Lerner I.Ya. *Didakticheskie osnovy metodov obucheniya*. M.: Prosveshchenie, 2014. 165 s.

Skatkin M.N., Kraevskiy V.V. *Soderzhanie obshchego srednego obrazovaniya: Problemy i perspektivy*. M.: Pedagogika, 2017. 208 s.

5-MAVZU: PEDAGOGIKANING FAN, TA'LIM VA ISHLAB CHIQRISHDAGI INTEGRATSIYASI. PEDAGOGIK JARAYONDA PREDMETLARARO ALOQADORLIK MASALALARI.

REJA:

1. O'quv texnologiyalarini takomillashtirish (modernizatsiya qilish).
2. Pedagogik vositalarni takomillashtirish.
3. Didaktikada fan, ta'lim, ishlab chiqarish integratsiyasi masalalari.
4. STEAM-ta'limi.

Tayanch tushunchalar: o'quv texnologiyalari, vositalar, modernizatsiya, fan, ta'lim va ishlab chiqarish, integratsiya

O'quv texnologiyalarini takomillashtirish (modernizatsiya qilish). Bugungi kunda O'zbekistonda olib borilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlarning asosiy maqsadi yurtimizda sog'lom, barkamol, bilimli va yuksak ma'naviy-ahloqiy fazilatlariga ega bo'lgan yosh avlodni shakllantirishdan iborat. Aynan shu maqsadga erishish yo'lida mamlakatimizda dastlabki yillardanoq ta'lim soxasiga katta e'tibor qaratildi. Bugungi kunda dunyoda ilm-fan texnika taraqqiyoti juda tez sur'atlarda rivojlanib buning natijasida barcha sohalar takomillashib bormoqda.



Respublikamizdagi amaldagi ta'lim tizimining huquqiy asosi hisoblangan 2020 yilning 23 sentyabrida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun ta'lim tizimimizning o'ziga xos xususiyatini ifodaladi. Ta'lim sohasidagi faoliyatlar bugungi kunda hukumatimiz diqqat e'tiboridagi asosiy soha sifatida yildan yilga takomillashtirilib borishi yosh avlodning yetuk rivojlanib borishida poydevor vazifasini o'tamoqda.

Mamlakatimizda va xorijda o'quv texnologiyalarini takomillashtirishning ilmiy asoslari vujudga kelishiga ko'ra o'zining chuqur tarixiy ildizlariga ega bo'lib – bu tizimli yondashuvning rivojlanish jarayonidir. Oliy ta'lim didaktikasida pedagogik jarayonlar ilmiy yondashuvning barcha asoslari umumnazariy, umumboshqaruv, umumtexnologik, umumtizimlilik yondashuvlar bo'yicha olib borilgan izlanishlarning natijalariga asoslanadi. Shundan kelib chiqib, tadqiqotchi, olim, rahbar yoki pedagog har bir hodisa va voqeani, har bir ob'ektni hamda o'z faoliyatini tizim sifatida hisoblab, tizimli yondashuv tamoyillarini qo'llashi zarur. Ta'lim muassasasida pedagog xodimlar va rahbarlarning asosiy vazifasi pedagogik jarayonlarni tashkil etishda ijobiy natijalarga erishish uchun jamoada zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, raqobatbardosh bitiruvchilar tayyorlash uchun pedagogik jarayonlarni yaxlit tizim sifatida rivojlantirish hisoblanadi. Pedagogik jarayonlarni o'zaro bog'liq holda yaxlit tizim deb hisoblasak, ularni tashkil etish va boshqarish ham tizimli xususiyatga ega bo'lishi kerak. Pedagogik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishga tizimli yondashuvning mazmun va mohiyatini quyidagi tamoyillar asosida ko'rsatishimiz mumkin: pedagogik jarayon ishtirokchilari hisoblangan professor-o'qituvchilar va o'quvchi-talabalar mazkur jarayon sub'ektlari sifatida faoliyat ko'rsatishi, ya'ni pedagogik jarayonlarda sub'ekt-sub'ekt munosabatlarining qaror topishi; · pedagogik jarayon sub'ektlari faoliyatining maqsadga yo'naltirilganligi, izchilligi va o'zaro bog'liqligi; majmuaviylilik – pedagogik jarayonlar o'zaro bog'liq va aloqador bo'lgan komponentlar majmui ekanligi; integrativlik–harakatlanish va rivojlanishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi omillarning o'zaro birligi; · o'zaro bog'liqlik – pedagogik jarayonlar alohida bir tizim sifatida va yuqori tartibli yaxlit pedagogik tizimning tashkil etuvchi komponenti sifatida mavjudligi; kommunikativlik – pedagogik tizimning tashqi muhit va boshqa tizimlar bilan o'zaro ta'sir etish xususiyatlariga ega ekanligi.

YuNESKO hujjatlarida o'qitish texnologiyasi - texnik, inson resurslari va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda bilimlarni o'zlashtirish va o'zlashtirishning butun o'quv jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli usuli sifatida qaraladi. Ta'lim jarayonining texnologik samaradorligi - bu ta'lim jarayonini to'liq boshqariladigan qilishdir.



Ta'lim texnologiyalari muammolari, pedagogik yangiliklarning katta tajribasi, mualliflik maktablari va yangi -oyalarni doimiy ravishda modernizatsiyalashni, umumlashtirish va tizimlashtirishni talab qiladi.

Pedagogik tizimlarni bir qator belgilar yordamida ajralmas hodisalar deb ta'riflash mumkin (V.G. Afanasev):

- integral sifatlar (bir nechta elementlari orasidagi bog'liqlik);
- tarkibiy elementlar, tarkibiy qismlar;
- tuzilish (qismlar va elementlar o'rtasidagi aloqalar va munosabatlar);
- funktsional xususiyatlar;
- kommunikativ xususiyatlar (atrof-muhit bilan bog'liqlik);
- tarixiylik, davomiylik.
- Maqsadli yo'nalishlar va natijalar tizimning muhim xususiyatlari hisoblanadi.

Tizimni shakllantiruvchi asos sifatida, pedagogika uchun bugungi kunda yangi kontsepsiyalardan biri - "texnologiya" va pedagogik jarayonlarni tahlil qilish va loyihalashda yangi - "texnologik" yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Akademik V.P.Bespalko talabaniq bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish turiga qarab pedagogik tizimlar (texnologiyalar) tasnifini taklif qildi.

Oliy ta'lim didaktikasida "texnologiya", "pedagogik texnologiya", "ta'lim texnologiyasi" atamalariga turli ta'riflar berilganligini ko'rish mumkin.

Texnologiya - bu har qanday faoliyatda qo'llaniladigan metodlar, usullar majmui.

Pedagogik texnologiya - shakllar, metodlar, o'qitish usullari, ta'lim vositalarining maxsus majmuaviy tuzilmasi bo'lib, ta'lim jarayonini joylashishni belgilaydigan psixologik va pedagogik munosabatlarning majmui. Bu pedagogik jarayonning tashkiliy va uslubiy yo'naltiruvchi majmuasidir (B.T.Lixachev).

Pedagogik texnologiya - bu ta'lim jarayonini amalga oshirishning mazmunli texnikasi (V.P. Bespalko).

Pedagogik texnologiya - rejalashtirilgan ta'lim natijalariga erishish jarayonining tavsifi (I.P. Volkov).

Pedagogik texnologiya - bu o'quvchi va tahsil oluvchining maqsadga yo'naltirilgan, o'quv natijasiga erishishni ta'minlaydigan harakatlar algoritmi (ketma-ketligi).

"Pedagogik texnologiya" tushunchalariga turli xil ta'riflar bilan birga, ko'pchilik mutaxassislar tomonidan tan olingan uning asosiy to'rtta muhim qirrasini birlashtiradigan mazmuni quyidagilardan iborat:

1. Aniq belgilangan kerakli mezon asosida o'qitish va ta'limni rejalashtirish;
2. O'qituvchi va talabaniq harakatlarining qat'iy ketma-ketligi shaklida o'quv jarayonini dasturlash;



3. Ta'lim va tarbiya natijalarini dastlab rejalashtirilgan mezon bilan taqqoslash, o'quv jarayoni monitoringi va yakunida tahlil qilish;

4. ta'lim jarayonining istalgan bosqichida natijalarni tuzatish.

Bugungi kunda oliy ta'lim didaktikasida quyidagi pedagogik tizimlar mavjud:

1. klassik ma'ruza mashg'ulotlari;

2. audiovizual texnik vositalar yordamida o'qitish;

3. "maslahatchi" tizimi;

4. o'quv kitobi yordamida o'rganish,

5. kompyuterni o'qitish;

6. "repetitor" tizimi - individual mashg'ulotlar;

7. "dasturiy ta'minotni o'qitish", buning uchun oldindan tuzilgan dastur mavjud

8. Maqsadlar bilan mashq qilish va b.

Ilm-fan va texnika rivojining yuksak sur'ati moddiy ishlab chiqarish jarayonini nazariy (g'oyaviy) hamda amaliy jihatdan boyitib borish bilan birga ijtimoiy munosabatlarning yangicha mazmun kasb etishini ta'minladi. Xizmat ko'rsatish sohasining paydo bo'lishi, yangicha turmush tarzi kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarining ortib borishiga zamin hozirladi. Ijtimoiy ehtiyojlarning yangilanib hamda ortib borishi o'z navbatida ularni qisqa muddatda va sifatli qondirilishini ta'min etuvchi faoliyatning yo'lga qo'yilishini taqozo etdi. Ijtimoiy zarurat mahsuli bo'lgan texnologiya sohasi va uning takomillashib borishi qisqa vaqt oralig'ida, kam jismoniy kuch sarflagan holda yuksak sifatli mahsulot ishlab chiqarish imkonini berdi. Moddiy ishlab chiqarish, xom-ashyoni qayta ishlash sohalari (qishloq xo'jaligi, sanoat, transport, maishiy xizmat ko'rsatish va boshqalar)da mahsulot ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishga nisbatan texnologik yondashuv an'anasi yuzaga keldi. Texnologik yondashuv ishlab chiqarish jarayonining umumiy tavsifini yoritishga xizmat qiladi. Muayyan mahsulotni ishlab chiqarish maqsadida xom ashyoni tanlash (dastlabki bosqich)dan mahsulotni iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan (so'nggi bosqich) davrni o'z ichiga olgan jarayon texnologik jarayon sifatida e'tirof etiladi. Ishlab chiqarish jarayoniga nisbatan texnologik yondashuv muayyan sohalarda islohotlarni tashkil etish, ularning muvaffaqiyatini ta'minlash, erishilgan yutuqlarni boyitib borish kabi maqsadlarga erishishning samarali omili sifatida namoyon bo'ladi. Moddiy ishlab chiqarish sohaslarida ilg'or texnologiyalarni qo'llash shartlaridan biri – malakali mutaxassislarni tayyorlash, ularning kasbiy mahoratini doimiy ravishda oshirib borishga erishish ekanligidan ham anglanadiki, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayot bir-biri bilan uzviylik, aloqadorlik hamda yaxlitlik tamoyili asosida rivojlanib boradi. Jamiyat ijtimoiy hayotida yetakchi o'rin tutgan g'oya va qarashlar iqtisodiy ishlab chiqarish rivojiga o'z ta'sirini o'tkazsa, o'z navbatida, iqtisodiy o'sish aholining madaniy turmush tarzining yaxshilanishiga olib keladi. Insoniyat



sivilizatsiyasining quyi bosqichlarida shaxsni tarbiyalash, unga ta'lim berishga yo'naltirilgan faoliyat sodda, juda oddiy talablar asosida tashkil etilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan o'ta qat'iy namda murakkab talablar qo'yilmoqda. Chunonchi, murakkab texnika bilan ishlay oladigan, ishlab chiqarish jarayonining mohiyatini to'laqonli anglash imkoniyatiga ega, favqulodda ro'y beruvchi vaziyatlar ham yuzaga kelgan muammolarni ijobiy hal eta oluvchi malakali mutaxassisni tayyorlashga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj ta'lim jarayonini texnologik yondashuv asosida tashkil etishni taqozo etmoqda. Ayni vaqtda Respublika ijtimoiy hayotiga shiddatli tezlikda axborotlar oqimi kirib kelmoqda va keng ko'lamni qamrab olmoqda. Axborotlarni tezkor sur'atda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda tahsil oluvchilarga yetkazib berishni yo'lga qo'yish ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyani tadbiiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiladi. Ta'lim tizimini texnologiyalashtirish g'oyasi o'tgan asrning boshlarida G'arbiy Yevropa hamda AQShda ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim samaradorligini oshirish, shaxsning ijtimoiylashuvini ta'minlash uchun muayyan shart-sharoitni yaratish borasidagi ijtimoiy harakat yuzaga kelgan davrda ilk bora o'rtaga tashlandi. Mazkur g'oya XX asrning 30-yillarida ta'lim jarayoniga «pedagogik texnika» («ta'lim texnikasi») tushunchasining olib kirilishi bilan asoslandi. Ushbu davrda yaratilgan maxsus adabiyotlar «pedagogik (ta'lim) texnika(si)» tushunchasi «o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko'maklashuvchi usul va vositalar yig'indisi» tarzida talqin etildi hamda o'quv jarayoniga o'quv laboratoriya jihozlarining olib kirilishi, ulardan samarali, unumli foydalanish, material mazmunini ko'rsatmali qurollar yordamida tushuntirish kabi holatlar ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beruvchi yetakchi omillardir deya baholandi.

XX asrning 50-yillarida ta'lim jarayonida texnik vositalarni qo'llash «ta'lim texnologiyasi» yo'nalishini belgilab beruvchi omil deya e'tirof etildi, asosiy e'tibor tahsil oluvchilar auditoriyasini kengaytirish texnik vositalardan foydalanish evaziga amalga oshirilishi, texnik vositalarning imkoniyatlarini yanada takomillashtirish, ularning axborot sig'imini kengaytirish, axborotlarni uzatish xizmatini sifatli tashkil etish, ta'lim olishni individuallashtirish kabi masalalarga qaratildi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlarning ob'ekti, tayanch nuqtasi sifatida texnik vositalar imkoniyatlari, ularni takomillashtirish jarayoni qabul qilindi, shuningdek, o'quv jarayonini «texnologiyalashtirish»ning tashkiliy jihatlarini o'rganishga alohida urg'u berildi.

XX asrning 60-yillarida ta'limni dasturlash asosida ta'lim jarayonini tashkil etish «texnologiya» tushunchasining mohiyatini ochib beruvchi omil sifatida ko'ri-la



boshlandi. Dasturiy ta'lim tahsil oluvchilarga muayyan bilimlarni aloqida qism hoida emas, balki izchil, yaxlit tarzda berilishini nazarda tutadi. Ta'lim jarayonini yaxlit, maqbul dasturga muvofiq tashkil etish taklifi ilk bora AQShda faoliyat yurita boshlagan «Dasturiy ta'lim va o'rgatuvchi mashinalar bo'yicha birlashgan Qo'mita» tomonidan ilgari surilgan. Dasturiy ta'lim o'zida ta'lim maqsadlari, ularni o'zgartirish va boshqolashning mos ravishdagi mezonlari hamda ta'lim muhitining aniq tavsifini qamrab oladi. Bizga yaxshi ma'lumki, har bir nazariya o'zining metodologik asoslariga ega bo'ladi. Ta'lim texnologiyasi nazariyasining ilk g'oyalari ilgari surilgan davrlardayoq mazkur nazariyaning asoslari ham yaratila boshlangan. Ta'lim texnologiyasi nazariyasining umumiy asoslarini uning maqsadi, mazmuni, vazifalari, tamoyillari, ob'ektiv (tashqi) hamda sub'ektiv (ichki) omillari, ob'ekti, asosiy tushunchalari mezonlari va boshqalar tashkil etadi. Ta'lim texnologiyasi nazariyasining umumiy asoslari mohiyati xususida so'z yuritish uchun «ta'lim texnologiyasi» tushunchasining tub ma'nosini anglash talab etiladi.

«Texnologiya» yunoncha so'z bo'lib, «techne»-mahorat, san'at hamda «logos»-tushuncha, ta'limot so'zlarining birikmasidan hosil bo'lgan. Ta'lim texnologiyasi tushunchasi esa lug'aviy jihatdan (inglizcha «an educational technology») ta'lim (o'qitish) jarayonini yuksak mahorat, san'at darajasida tashkil etish borasida ma'lumotlar beruvchi fan (yoki ta'limot) ma'nosini anglatadi. So'nggi yil davomida nutqimizda «pedagogik texnologiya», «zamonaviy pedagogik texnologiya», «o'qitish texnologiyasi» kabi tushunchalar keng qo'llanmoqda. Aksariyat pedagoglar «ta'lim texnologiyasi» hamda «pedagogik texnologiya» tushunchalari mazmunan bir ma'noni anglatishini ta'kidlamoqdalar. Bizning nazarimizda bunday yondashuv u qadar to'g'ri emas hamda bu borada yagona to'xtamga kelish muhimdir.

Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi – tahsil oluvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat.

YuNESKOning 2018 yilda qabul qilingan qaroriga ko'ra, har bir mustaqil mamlakat ta'lim uchun standart qabul qilishi yoki qabul qilmasligi o'z ixtiyorida ekanligi belgilab berilgan². O'zbekiston esa ta'lim sohasidagi davlat ta'lim standartlarini qabul qilishni lozim ko'rib ijobiy natijalarga erishdi. Ta'limning barcha bosqichlarida o'quv dasturlari qayta ko'rib chiqildi va zamonaviy xalqaro talablarga mos holga keltirildi. Xalqaro ekspertlar tomonidan O'zbekistonning ta'lim strukturasi yuqori baho berilib, uning istiqbollari yuqoriligi amaliyotda o'z isbotlarini ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda yangicha yondashuvlar asosida islohotlar o'tkazish O'zbekiston ta'lim sohasi rivojlanishining muhim omili bo'lib xizmat qilmoqda.

² Халқаро мониторинг тизимлари курунишлари (Варианты глобальных систем мониторинга) : www.csu.edu.au , www.student.wau.nl/ Retrieved 15.07.2018 from [://www.jstor.org](http://www.jstor.org)

Bunda ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining tez sur'atlarda jadallik bilan rivojlanishiga mos holda ta'lim tizimi xodimlaridan ta'lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan zamon talabiga mos doimiy yangilab borishni talab etib, har bir tizim xodimi zimmasiga yanada yuksak mas'uliyat va vazifalarni yuklamoqda. Davlatimizda tashkil etilgan dunyoning eng salohiyatli oliy o'quv dargoxlaridan Angliyaning Vestminster universiteti, Italiyaning Turin politexnika instituti, Singapur menejmentni rivojlantirish oliygohi, Janubiy Koreyaning INXA kommunikatsion texnologiyalar universiteti, Rossiyaning Gubkin nomidagi neft va gaz universiteti, Lomonosov universiteti va G.V.Plexanov nomli iqtisodiyot universiteti filiallarining tashkil etilgani ham ta'lim tizimimizni jahon talablariga mos rivojlanishi omili hisoblanadi. Jahon tajribalaridagi eng ilg'or ta'lim sohasidagi rivojlanish yutuqlarini o'rganish, o'z milliy xususiyatlarimizga mos jihatlaridan foydalanish, bugungi kun zamon talabidir. Hozirda Sharqiy Osiyo rivojlanish darajalari yuqori ko'rsatkichlarni egallagan. Mutaxassislar e'tirofiga sabab bo'lgan ta'lim rivojlanishi va sifat ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan davlatlar tajribasini ko'rib o'tamiz.

Janubiy Koreya muvaffaqiyati va ta'lim tizimi ³

Dunyoda ta'lim yo'nalishida Janubiy Koreya ta'lim sohasi yetakchi o'rinni egallab, ilmiy salohiyat ham shiddat bilan yuksalib bormoqda. Bu fikrlar isboti sifatida "Ilmiy yuksalishni baholash xalqaro tashkiloti" (IAEP) tomonidan 2015 yilda 19 mamlakat talabalari orasidan 18 yoshli o'smirlar uchun egallangan ta'lim sifatini ifodalovchi monitoring tadqiqotlarida Janubiy Koreya yoshlari birinchi o'rinni egalladilar⁴. Bu xalqaro yutuq sifatida mamlakat milliy iftixori deb hisoblandi. Buning sababi hukumatning ta'lim siyosatining to'g'ri olib borilayotgani deya baholandi. Ta'lim tizimi natijalari albatta o'z tarixiy rivojlanish davriga ega bo'lib, jarayonni mulohaza etib ko'ramiz.

Janubiy Koreya davlatining ta'lim tizimi tashkil topgan ilk damlar 1948 yildan 1970 yillargacha mustaqil davlat tizimini yaratish jarayoni edi. 1970 yillarga kelib kadrlar siyosati asosi sifatida ta'lim siyosatiga asosiy e'tibor boshlandi. Janubiy Koreya hukumati tomonidan yalpi milliy mahsulotning 4,5 foizi ta'lim sohasi rivojlanishi uchun ajratildi. 1973 yildan ilmiy-texnikaviy ta'limni rivojlantirish maqsadida texnika bilim yurtlari tashkil etildi. 1985 yilga kelib bu bilim yurtlar oliy o'quv yurtlari sifatida rivojlantirilib 4 yillik muddat belgilandi. Maktablarda ta'limga butun aholini jalb etish maqsadida sinflar 40, 50 nafar o'quvchilarga mo'ljallandi. Ta'lim sifatiga ham katta e'tibor berilib xorijdan malakali o'qituvchilar jalb etildi. Bu siyosat xalqaro ta'lim tadqiqotlarida Janubiy Koreya

³ Success and Education in South Korea Clark W.Sorensen p 34-39 2004 <http://www.jstor.org> Retrieved 15.07.2015

⁴ Friedrich Scheuermann and Francesc Pedró "Assessing the effects of ICT in education " Indicators, criteria and benchmarks for international comparisons" Retrieved 20.01.2015 from <http://www.csu.edu.au>



ta'limini yuqori baholadi. Bunday yutuq sababi sifatida mutaxassislar koreys xalqining Konfutsiylik madaniyatiga xos bo'lgan mexnatsevarlik, bilimga bo'lgan intilish kabi sifatlarni yuqori darajada ekanligi bilan izohladilar.

25 yil avvalgi Janubiy Koreya davlati shunchalik qashshoq ediki, jon boshiga yillik daromad 200\$ ga to'g'ri kelib, maktablar va pedagoglar uchun ortiqcha resurslar jalb etilmasdi. Oilalarda yashash maqsadida bolalar ishlashga majbur edilar. 1945 yilda Yapon mustamlakasidan so'ng Janubiy Koreyada zamonaviy maktab tizimini boshqarish uchun tajriba va ko'nikmalar mavjud emas edi. 1950 yillardagi Koreya yarim orolidagi 3 yillik qonli koreys urushlari yangi shakllanib kelayotgan ta'lim strukturasi to'xtab qolishiga sabab bo'ldi. 1970 yillarga kelib Janubiy Koreyada ta'limni rivojlanishi boshqa rivojlangan davlatlar tizimidan import ko'rinishida shakllandi. Janubiy Koreyada bu holat asosan AQSh va Amerika ta'siri asosida yuz berib, bu paytda zamonaviy ilm va matematikaning ilmiy lug'atlari ham koreys tilida mavjud bo'lmagan edi. XX-asrning oxirlarida Koreya 400 yillik tashqi aloqalardan uzilib qolgan davlat sifatida uzoq muddatli g'arb sanoati sivilizatsiyasi muammolarini yechish maqsadida og'ir davrlarni boshdan kechirdi. Missionerlar tomonidan zamonaviy ta'lim programmalarini tashkil etildi, lekin maktab tizimi asoslari hukumat tomonidan shakllantirildi. 1905 yilda Koreyada Yaponiya protektorati o'rnatilishi va 1910 yildagi koloniya sifatidagi hukmronliklar zamonaviy ta'lim tizimi shakllanishiga to'siq bo'ldi. Lekin, Yaponiya kolonial tizimi boshqa koloniyalardan farqli aholini ta'lim tizimi bilan ta'minladi. Bu ta'lim etnik yapon madaniyatini targ'ib etuvchi g'oya asosida shakllantirilgan. Yapon ta'lim tizimi koreyslarda ta'lim olish va savodxonlik darajasini oshirishga xalaqit bermadi. 1942 yilga kelib 40% aholi boshlang'ich maktablarda o'z savodini chiqardi. 5% dan ortiq koreyslar esa o'rta maktablarda o'z bilimlarini olishni davom ettirdi. Hozirgi kundagi yirik ilm maskanlaridan bo'lgan Keyo imperatorlik universitetining 1924 yilda Seulda tashkil topganligi, koreys yarim orolidagi yaponlarni savodxonligini oshirish maqsadida tashkil etilgan bo'lsada, tub aholi ta'lim taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan.

O'sha davr taraqqiyotiga mos ta'limning boshlang'ich maktab davomidagi 5 yillik hajmdagi o'rta maktablar texnik kasbga yo'naltirilgan bilim yurti ko'rinishlarida mavjud bo'lgan. Bunda ta'lim qizlar va o'g'il bolalar maktablariga bo'linib, qizlar maktabi o'g'il bolalar maktabidan 1 yil kam holda tashkil etilgan. 1945 yildagi Koreya mustaqilligi yaponlarning malakali ish kuchini olib ketishi bilan yuz berdi. Savodxonlik darajasi ham keskin pastlab ketdi. Bunda katta muammo o'qituvchilar yetishmasligi va sharoitlarni yaxshi emasligi bo'ldi. Savodli aholi bu paytgacha zamonaviy ilm fan yangiliklarini kolonial tizim orqali o'rganib, ilmiy terminlarni xam yapon tilida tushunar edi. Bu holat aholini tabaqalantirishga qaratilgan bo'lib, bu o'qitish tizimi aholining asosiy qismi bo'lgan quyi tabaqa



koreys millatida ishonchsizlikni uyg'otdi. Shundan so'ng 1949 yilda hukumat tomonidan bugungi kunda xam asos bo'lib xizmat qiluvchi "Ta'lim to'g'risidagi" asosiy qonun qabul qilindi. Qonunga ko'ra aholiga bepul tashkil etilgan 7 yoshdan boshlab amal qiluvchi 3 yillik boshlang'ich ta'lim tizimi, 3 yillik umumiy o'rta ta'lim tizimi va undan so'nggi 4 yillik maxsus kasbga yo'nalgan ta'lim yo'lga qo'yildi. Maxsus kasbga yo'nalgan ta'lim ishchilardagi malaka daraja uchun amal qilgan. Lekin bu ta'lim tizimi jarayonining qisqaligi 1950 yildagi yoppasiga savodsizlikni keltirib chiqardi. 1951 yilda tizimga o'zgartirishlar kiritildi. 1964 yilga kelib boshlang'ich ta'limga jalb qilish 90%ni tashkil etgan bo'lib, umumiy o'rta ta'lim tizimi yana 3 yil muddatga oshirildi. Janubiy Koreyada ta'lim tizimini shakllanishi bir muncha muammolarni keltirib chiqardi. Xukumat tomonidan juda shiddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida ta'lim tizimini isloh qilish amalga oshirildi. Bunda aholini pedagoglar bilan ta'minlash qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Ta'lim tizimidagi keskin o'zgarishlarni amalga oshirishda o'qituvchilar va ota-onalarning birgalikdagi munosabatda bo'lishi, hukumat tomonidan turli bepul quvvatlashlar aholida bilim olishga intilishni kuchaytirdi. Ba'zan 100ga yaqin o'quvchilarga ega bo'lgan sinflarda ta'lim sifatini yaxshilash maqsadida 2 va 3 smenada o'qishlar tashkil etildi. 1953 yildan hukumat o'rta maktab bosqichiga imtihon orqali qabul qilishni joriy etdiki, bu o'rta maktab tizimini yanada sifatli tashkil etish maqsadlarida amalga oshirdi. Bunda boshlang'ich ta'lim 6 yillik belgilanib undan so'ng 3 yillik ta'lim texnik o'rta ta'lim beruvchi bosqichdan iborat bo'lgan. Bu bosqichga imtihon asosida qabul qilinib, alohida yo'nalgan sinflar qayta tashkil etildi.

1963 yildan hukumat tomonidan amaliy ta'limni yanada faollashtirish maqsadida unitar ta'lim tizimiga xos kasbiy texnik malakalarni beruvchi bilim maskanlari tashkil etildi. 1969 yildan o'rta maktabga olinadigan imtihon bekor qilindi, bu bilan o'rta ta'limni ham barcha uchun majburiy qilish maqsadlari ko'zlandi. Janubiy Koreyada 1960-80 yillardagi ta'limdagi davlat imtihonlar o'tkazish davlatdagi standartlarni tartibga keltirish va davlat tomonidan barcha bosqichlarni mablag' bilan ta'minlashdagi nazoratni amalga oshirish uchun belgilandi. Maktablardagi test imtihonlari ba'zi ixtisoslashtirilgan maktablarda qoldirilganligi pedagog va ilmiy salohiyatli o'quvchilar tayyorlashda stimulyazifasini bajardi. Har bir tuman maktablarda davomat o'rtacha maktablar kesimida ixtiyoriy jihatdan bo'lib bu har bir maktab uchun teng jihatda olingan. Ta'limning keyingi bosqichiga kirish imtihonlari va maktabda olgan bilim natijalari asos qilib olindi. Xususiy maktablar faoliyati xam majburiy ta'lim maktablari bilan raqobatlashuv asosida rivojlanib bordi. Lekin xususiy maktablarda bilim saviyasi yuqori bo'lib 30% xususiy maktab o'quvchilari, 47% kasbiy texnik malaka bilim yurtlarida va 80% oliy o'quv yurtlaridagi talabalar xususiy maktablar bitiruvchilari



xisoblangan. Xususiy maktablar davlat bepul maktablaridan ancha qimmat bo'lgan bo'lsa ham aholining ko'pchilik qismida xususiy maktablarga qiziqishi yuqori edi. Lekin barcha maktablar bir xildagi darslik o'quv qo'llanmalaridan foydalanilgan. O'qituvchilar xam yagona ta'lim boshqarmasi roziligi bilan ishga qabul qilingan. 1970 yillarda xukumat tomonidan ta'lim tizimidagi islohotlar asosan aholi 70%ini savodli qilish maqsadida amalga oshirildi. O'quvchilarni bilim qobiliyatlari bo'yicha o'rta maktab bosqichidan o'zlashtirish darajasiga qarab ixtisoslashtirish kadrlar siyosati bo'yicha amalga oshirildi.

Janubiy Koreyada majburiy umumiy o'rta ta'lim 6 yillikdan iborat bo'lib, ta'lim 7 yoshdan boshlanadi. Ta'limning keyingi bosqichi bo'lgan kasbga yo'naltirish Janubiy Koreyada 13 yoshdan boshlanib, O'zbekistonda o'rta maxsus kasb-xunar ta'limi 16 yoshdan boshlanadi.

Janubiy Koreyada oliy ta'lim tizimida ham o'z nufuziga ega bo'lgan universitetlar paydo bo'lib bu kadrlar tayyorlashning muhim yo'nalishlarini yuzaga keltirdi. Jamiyatda eng yaxshi ish o'rinlari Seul Universiteti talabalariga nasib qilishi uning boshqa universitetlar nufuzidan balandligini belgilab, universitetga eng yaxshi maktab o'quvchilari talabalikka qabul qilingan. Bu jixat Yevropadagi ta'lim tizimiga xos tabaqalanish usuli edi. Bu aholi o'rtasida Yevropa madaniyatiga intilishni keltirib chiqardi va so'nggi yillarda Janubiy Koreya ta'limiga Yevropa ta'lim tizimi xususiyatlari importi amalga oshirildi. Lekin ijtimoiy tengsiz sinflar mavjudligi maktablarda aholini qamrab olish darajasini qoniqarli emasligini keltirib chiqardi. 1969 yildan xukumat tomonidan o'rta-maxsus ta'lim tizimiga imtixonlar orqali qabul qilishni kuchaytirilganligi 1980 yilga kelib o'rta-maxsus ta'lim tizimi talablarining aniq analogik o'lehovlarini shakllantirdi. Shahar va qishloq maktablaridagi ta'lim darajalari farqlanishi saqlanib qoldi. Poytaxt sanalgan Seulda ta'lim sifati boshqa xududlarga nisbatan yaxshilanganligi sababli aholini ta'lim olish uchun poytaxtga intilishiga olib keldi. Janubiy Koreyada bizning mamlakatimizdan farqli ta'lim boshqarish strukturasi barcha tizimlar uchun yagona bo'lib, umumiy o'rta, o'rta maxsus, oliy ta'lim tizimlari vazirligidan iboratdir. 1980 yildan xukumat iqtisodiyotni yaxshilash maqsadida ta'limga e'tiborni kuchaytirdi. Buning natijasida 1990 yilga kelib savodxonlik darajasi 98,5%ni tashkil etdi. 1990 yilda Koreya xukumatining yalpi milliy maxsulotining 4,5%i ta'limga yo'naltirilgan bo'lib bu Tayvan davlatiga nisbatan 3,6 %ga, yuqori bo'lgan. Lekin Yevropadagi bu ko'rsatkich ancha yuqori bo'lib bu ko'rsatkich Vengriyada 6,1%; Fransiyada 7,5%ni tashkil etgan. Shunday bo'lsada Koreya xalqining ta'lim olishga asosiy e'tibor qaratayotganligi mamlakatni barcha soxalarda erishayotgan yutuqlarida ham ko'rinib turibdi. Bugungi kunda Janubiy Koreyada ta'lim tizimidagi erishilayotgan yuqori ko'rsatkichlar sababi mutaxassislar tomonidan quyidagi xususiyatlarda deb ko'rsatilmoqda:



Koreya xalqida ta'limga bo'lgan ishtiyoqning balandligi xususiyati. Bu xususiyat 1994 yilda o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnomalarda aks etgan bo'lib yuqori sinf o'quvchilari bilan o'tkazilgan so'rovnomada 78,7% respondentlar o'rta maxsus ta'limni amaliy extiyoj deb bilganlar. 12,7 % respondentlar esa ixtiyoriy o'qish sifatida va 5% ishtirokchilar ota-onasining xoxishi uchun majburiyat deb bilganlar. Bu xolat esa Koreya yoshlarida ta'limga bo'lgan ishtiyoqning balandligi belgisidir.

✓ Janubiy Koreyadagi ta'lim tizimida pedagoglarning aksariyati erkaklardan iborat bo'lganligi xususiyati, tizimni qat'iy rivojlanishi omili bo'lib xizmat qilgan deya baxolanmoqda. Hozirgi paytda ota-onalar talablariga binoan boshlang'ich sinf o'qituvchilari asosan ayollardan tashkil topmoqda. Bu jixat Koreyada maktab ta'limi insonlarni shaxs sifatida shakllanishini yuzaga keltiruvchi omil bo'lganligini bildiradi.

✓ Darsdan tashqari qo'shimcha mashg'ulotlar. O'tkazilgan so'rovnomalarga ko'ra 1980 yilda 61% o'quvchilar qo'shimcha darsdan tashqari mashg'ulot olishiga to'g'ri kelgan. Buning salbiy oqibati 14% o'quvchilar asab kasalliklari va asab zo'riqishlariga uchraganlar. Ta'lim vazirligining tadqiqotlariga ko'ra repetitorlar tomonidan olingan daromad xar yili 327 mlrd.von(400mln \$)mablag'ni tashkil etgan bo'lib, ya'ni davlat byudjetning 30%ga yaqin ekvivalenti va 6% milliy daromad ulushiga to'g'ri kelgan. 1992 yillarda darsdan tashqari mashg'ulotlarga o'quvchilar ota-onalari oyiga o'rtacha 280.000von (364\$) o'z farzandlari bilim olishlari uchun sarflagan. Bu holat esa 1980 yilda qabul qilingan ta'lim sifati me'yorlariga va ta'lim tizimiga xukumat vakillari "ishonchsizlik votum"ini e'lon qildi. Lekin buning ijobiy jixati xalqaro tadqiqotlarda berilgan ko'rsatkichlarga ko'ra 9 yoshlik Janubiy koreyalik o'quvchilarning matematika va tabiiy fanlar bo'yicha boshqa davlatlar yoshlaridan ko'ra o'rtachadan yuqori darajalarni egallaganliklarida ko'rinadi.

✓ Janubiy Koreya yoshlarining ta'limga ko'p vaqt sarflaganligi xususiyati, koreyalik o'quvchilarning qo'shimcha bilim yoki amaliyot uchun maktabdan tashqari qo'shimcha bir necha soat vaqtlarini ajratishida kuzatiladi. Lekin bu xalqaro tadqiqot anketa so'rovlarida o'z aksini ko'rsatmaydi, ya'ni qo'shimcha darslar uyga vazifa sifatida qabul qilinadi. O'quvchilar o'z ustida ko'p ishlaganlari sababli maktabda yoki ta'lim tizimidagi mavjud muammolar o'z yechimini topadi. Bunga ularni ota-onalari ham yordam beradi. Koreyalik aksariyat ota-onalar o'z farzandlarini bilimli bo'lishlarida maktab yoki ta'limning boshqa ko'rinishi emas balki maktabdagi mavjud beriladigan bilimlarni o'zlashtirishda deb biladilar. Janubiy Koreyaning ta'lim tizimi erishgan yutuqlar ularning milliy xususiyatlariga mos ravishda bo'lgan bo'lsada uni O'zbekiston ta'lim tizimimizga joriy etsa bo'ladigan jihatlarini amaliyotda sinab ko'rish mumkin.



Milliy jixatdan umumiy xususiyatlarga ega bo'lgan Osiyo davlatlari jumlasidan bo'lgan Yaponiya davlatining ta'lim tizimi va erishayotgan yutuqlari ham o'rgansa bo'ladigan jixatlarga egadir. Shu maqsadda Yaponiya ta'lim tizimi tarixiy taraqqiyotiga nazar tashlab bu to'g'rida mulohaza qilamiz.

Yaponiya ta'lim tizimi⁵

Yaponiya ta'lim tizimi 1949 yilda qabul qilingan 6 + 3 + 3 + 2/4 shaklidan ya'ni, 6 yillik boshlang'ich ta'lim 3 yillik o'rta ta'lim va yana 3 yillik maxsus malakani beruvchi ta'lim bosqichidan iborat bo'lgan. 1962 yildan texnik kasb-xunar kollejlari uchun yagona 5 yillik shaklga kelib quyi o'rta maktab uchun ta'lim davri muddati oshdi. Bu tizimda inson resurslari uchun industrial iqtisodiy rivojlantirishni olib keldi. 1964 yilda kollej dasturlari 2 yoki 3 yillik dasturlarga almashtirila boshladi. Texnologiya kollejlari oliy professional ta'lim sifatida 1990 yilgacha qabul qilingan. Bu nemis ta'lim tizimidagi fakultet va AQSh ta'lim tizimidagi oliy o'quv yurtlarigacha bo'lgan kengaytirilgan umumiy ta'lim ko'rinishiga keldi. Bu kollejlarda xususiy sektorni ortishiga olib keldi. 1980 yilga kelib Yaponiyada ta'lim tizimini xalqaro xususiyatlari rivojlandi. Xukumat jamiyatni rivojlantirishda barcha soxalarni rivojlantirish bo'yicha islohotlar amalga oshirishni belgiladi va maxsus kengash tuzdi. Islohotlar bo'yicha maxsus kengashning 1984 yil 21 avgustdagi yo'riqnomasi yapon ta'lim tizimi muammolari va kelajak rejalari borasidagi uzoq yillik xavotirlariga mantiqiy yakun bo'ldi. Bunday fikrga Yaponiya bosh vaziri Yasuxiro Nakasonening bergan quyidagi fikrlari tayanch bo'lgan, ya'ni u " Zarur islohotlarni amalga oshirishdagi asosiy strategiyalarni ko'zda tutganda shunday ta'limni ta'minlash zarurki u ta'lim davlatimizning ijtimoiy o'zgarishlari va madaniy voqeliklariga mos bo'lishi zarur. Agarda millatimiz hayotiy energiya va ijodga to'la bo'lgan XXI asrning yangi jamiyatini quradigan bo'lsa, u holda bu biz olib bormoqchi bo'lgan islohotlar dizaynida muhim asos bo'lishi zarur" deya ta'kidlagan edi. Islohotlar bo'yicha barcha ta'lim muassasalarida imtixon va test sinovlari ingliz tilida yapon tili bilan bir xil darajada amalga oshirildi.

Bugungi kunda Yaponiyada ta'lim tizimini boshqaruv strukturasi barcha ta'lim tizimlari muassasalari faoliyatini uchun yagona "Ta'lim, madaniyat, sport, fan va texnologiyalar vazirligi"(MEXT) orqali boshqariladi. Bu vazirlikka umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim muassasalari boshqariladi. Yaponiya ta'lim tizimi markazlashgan ko'rinishga ega. Ta'lim muassasalari va xususiy tashkilotlar uchun grantlar, ta'lim muassasalarini tashkil etish, qarorlar qabul qilish, o'quv dasturlari ishlab chiqish, o'quv faoliyati va uni natijalari monitoringi va nazorati shu vazirlik tomonidan amalga oshiriladi. Boshlang'ich va o'rta ta'lim muassasalarini tashkil etish xar bir prefektura - ta'lim qo'mitasi tomonidan

⁵ Education system Japan | EP-Nuffic | 1st edition September 2010 | version 4, January 2015
<http://www.jstor.org> //Retrieved 15.07.2015



belgilanadi. Ilmiy tadqiqot tashkilotlari bevosita ta'lim tizimlarida faoliyat olib boradilar. Bu esa ta'limning ilk bosqichlaridayoq ilmiy tajribalar bilan shug'ullanish va kashfiyotchilik xususiyatlarini o'quvchida rivojlanib borishiga turtki bo'ladi. Bundan tashqari vazirlik tomonidan ta'lim muassasalari faoliyati natijalari monitoringi yuritilayotganda ilmiy tadqiqot tashkilotlari mas'ul bo'lib ular ham to'g'ridan-to'g'ri javobgardir. Bugungi kunda Yaponiyada majburiy ta'lim tizimi boshlang'ich ta'lim - 6 yillik, umumiy o'rta ta'lim - 3 yillik, jami 9 yillik ta'limdan iborat. Boshlang'ich va umumiy o'rta ta'lim qonunlarga asoslangan milliy o'quv dasturi asosida tashkil etilib dastur har yilda bir ko'rib chiqiladi. O'quv dasturlari 3 soxada amalga oshirilib ular: turli mavzular, ahloqiy ta'lim va ixtiyoriy faoliyatdan iborat. Boshlang'ich ta'lim 6 yil davom etib u boshlang'ich maktablar (小学校 shogakko) tomonidan tashkil etiladi. Maktab 6 yoshdan 12 yoshgacha (1-6 sinf) mo'ljallangan. Bunda o'quvchilar 1 aprel xolatiga 6 yosh bo'lishi ko'zda tutiladi. O'quv dasturlarida yapon tili, ijtimoiy tadqiqotlar va fan tadqiqotlari, matematika, ilm fan, hayot tadqiqotlari (faqat 1, 2 sinf uchun) musiqa, san'at va hunarmandchilik, uy ishlari bilan shug'ullanish, jismoniy tarbiya darslaridan iborat. Bundan tashqari asosiy e'tibor ma'naviy ahloqiy tarbiyaga qaratilgan.

Boshlang'ich ta'lim quyi o'rta ta'lim (中学校 chugakko, ta'lim) orqali davom ettiriladi. O'quv dasturlari asosan: yapon tili, ijtimoiy tadqiqotlar, matematika, ilm fan, musiqa, san'at, jismoniy tarbiya, sanoat va uy ishlari bo'yicha fan, xorijiy til, biznes sub'ektlari va ma'naviy ta'lim dasturlaridan iborat. Bu davr o'ta muxim ta'lim davri sifatida yapon pedagoglaridan yuqori e'tiborni talab qilinadi va o'quvchilarni natijalarini aniqlash orqali o'rta maktab (高等学校 kotogakko) ga yo'llanma belgilanadi. O'quvchi o'rta maktab 9 yillik majburiy ta'limni yakunlab ta'limni keyingi bosqichiga kirish imtixonlari bilan o'tadi. Imtixonlar yapon tili, matematika, ijtimoiy tadqiqotlar va 5 ta asosiy fanlardan yakuniy imtixonlarini topshiradi. O'quvchilar 15, 18 yoshlar holatiga litseylar (高等学校 kotogakko) da o'qishlari mumkin. Litseylar quyidagi o'quv dasturlari orqali amalga oshiriladi: yapon tili, geografiya va fizika, tarix, fuqorolik xuquqi, matematika, ilm fan (kimyo, biologiya va yer xususiyatlari bo'yicha fan) sog'liqni saqlash, san'at, xorijiy til, uy ishlari bilan shug'ullanish, axborot texnologiyalar va umumiy tadqiqotlar dasturlaridir. O'rta ta'lim pullik tashkil qilingan bo'lib, o'quvchi kredit evaziga o'qishini davom ettirishi uchun davlat tomonidan sharoitlar yaratilgan. O'rta ta'limni tamomlaganda o'quvchi bitiruv guvoxnoma (卒業 証明書 Sotsugyoshomeisho) oladi. Yaponiya yoshlari ta'limida asosan tijorat yo'nalishidagi xizmat ko'rsatish amalga oshiriladi. Mutaxassislar yapon ta'lim tizimini natijasi sifatida mamlakatni yuqori malakali kadrlar tayyorlanayotganligida va fan-texnika yutuqlarining shiddat bilan amaliyotga tadbiiq etilayotganligi bilan izoxlaydilar.



Bugungi kunda Yaponiyadagi erishilayotgan yuqori ko'rsatkichlar sababini mutaxassislar quyidagi xususiyatlarda deb ko'rsatmoqda:

- ✓ Yapon ta'lim tizimida xususiy sektor hajmini ortishi xususiyati, boshqa soxalardagi kabi raqobat muhitini rivojlanganligini ta'minlaydi.

- ✓ Xalqaro xususiyatlarning mavjudligi, barcha ta'lim muassasalarida imtixon va test sinovlari ingliz tilida yapon tili bilan bir xil darajada amalga oshirilishi va taraqqiy etgan Yevropa davlatlari tajribalari til orqali yanada tezroq o'zlashtirilayotganligidir.

- ✓ Ilmiy-tadqiqot tashkilotlari bevosita ta'lim tizimlarida faoliyat olib borib, ta'lim muassasalari faoliyati natijalariga ularning mas'ulligi va to'g'ridan to'g'ri javobgarligi bilan ilmiy yangiliklar amaliyotga tezkor tadbiiq etilayotganligi.

- ✓ Ta'lim tizimi o'quv dasturlari har yilda yangilanishi va takomillashtirilish xususiyati, fan yo'nalishlaridagi zamonaviy yangiliklar o'zgartirishlar o'quv dasturlarida aks ettirilishi ta'lim mazmuni yildan yilga mazmun mohiyati jihatidan takomillashib borayotganligini ko'rsatadi.

- ✓ Ta'lim tizimi bosqichlari jarayonlaridagi imtixon nazoratlari talablarini yuqoriligi va keskin choralar qo'yilishi xususiyati, o'quvchilarda ma'suliyatni oshirishiga sabab bo'ladi.

Sharq davlatlarida tarixan uzoq o'tmishlardan ilm fan yuqori darajada rivojlanganligi bugungi kunda ham Osiyoning ko'p davlatlari erishayotgan barcha soxalardagi taraqqiyot va yutuqlarda o'z ifodasini topmoqda. O'zbekistonda ta'limga ajratilayotgan davlat byudjeti xarajatlari foiz xisobida quyidagi o'zgarish dinamikasiga ega bo'lib bu xukumatning asosiy e'tiboridagi soha ekanligidan dalolat beradi. Quyida O'zbekistondagi davlat byudjeti ja'mi xarajatlaridan ta'limga ajratilayotgan ulush dinamikasi⁶ni (foiz xisobida) kuzatganimizda xam o'sish tendensiyasi sohaga berayotgan katta e'tibor belgisi sifatida ko'rishimiz mumkin.

| Ko'rsatkichlar (yillarda) | 1990 | 2000 | 2005 | 2010 | 2011 | 2012 | 2013 | 2014 |
|----------------------------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|
| Ja'mi xarajat (%da) | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 |
| Ta'lim (%da) | 17,9 | 23,2 | 29,6 | 33,8 | 34,6 | 34,1 | 34,2 | 34,3 |

Kelajakda muhtaram yurtboshimiz ta'kidlagan milliy urf odatlarga sodiqlik va yuksak ma'naviy me'rosarga ega bo'lgan ta'lim tizimimiz istiqbollari, rivojlangan sharq davlatlari ta'limida erishilayotgan yutuqlardan bizga mos jihatlardan foydalanish yangilanish omili bo'lib xizmat qiladi. Yurtboshimizning 2015 yilda chop etilgan "Ona yurtimiz baxtu iqbolu va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish –

⁶ И.А.Каримовнинг йил якунлари хисобот маърузаларидан олинди



eng oliy saodatdir” asarida Yaponiya va Janubiy Koreya ta’limi tizimi taraqqiyoti, o’ziga xos xususiyatlariga e’tibor qaratishimga turtki bo’lib xizmat qildi. Fikrimizcha bu ikki davlatning ta’lim soxasi yagona boshqaruv tizimida bo’lganligi ta’lim sifatini yagona nazoratini vujudga keltirgan, sifat samaradorligi har bir o’quvchining ta’lim jarayonida bir bosqichdan keyingi bosqichga o’tishida yagona monitoring asosida shakllantirilib aniq aks ettirilgan. Yagona ta’lim tizimi boshqaruvi orqali kasbga yo’naltirish jarayoni ham har bir o’quvchi bilim qobiliyatiga asosan ixtisoslashtirish talablari asosida ma’lum yo’nalish bo’yicha ta’limning keyingi tizimlariga o’tkaziladi. O’zbekistonda bugungi kunda ta’lim soxasida olib borilayotgan islohotlarda albatta rivojlangan davlatlar tomonidan tajribalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Fanlararo aloqadorlik - OTM fanlari tarkibida amal qiladigan ob’ektiv o’zaro aloqalarni aks ettirishni ta’minlaydigan didaktik shartlardan biridir.

Fanlarning o’zaro aloqasi, asosan, tegishli fanlarning asoslarini ifodalovchi akademik mavzularda etarli darajada aks ettirilgan fanlararo aloqalar oliy ta’lim didaktikasidagi muammolardan birini ochib beradi. Zamonaviy fanlarning barcha sohalari bir-biri bilan chambarchas bog’liq, shuning uchun o’quv fanlari bir-biridan ajralgan holda qaralmasligi tabiiy. Fanlararo aloqadorlik didaktik shart va o’quv jarayonida fanlarning asoslarini chuqur va har tomonlama o’zlashtirish vositasi bo’lib, bilimlarni chuqurroq o’zlashtirishga, ilmiy tushunchalarni shakllantirishga yordam beradi. Fanlararo aloqadorlikni amalga oshirish OTMlarda o’quv materialini o’rganishda takrorlanishga barham beradi, vaqtni tejaydi va talabalarning ko’nikma va malakalarini shakllantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Ta’lim sohasidagi olimlarning katta miqdordagi asarlari fanlararo aloqalarni o’rganish muammolariga bag’ishlangan: Zvereva I.D., Maksimova V.N., Aliqulov S., Musurmonov O., Mamaradjapov Sh., Abdullaeva B., Baratova M. va boshqalarning ishlarini bunga misol tariqasida keltirish mumkin.

STEAM-ta’limi. So’nggi yillarda o’qituvchilar tobora ko’proq fanlararo va beshta ilmiy sohani hayotdan olingan aniq muammolarni hal qilish uchun yagona o’quv tizimiga birlashtirishga asoslangan STEAM ta’limi amaliyotiga murojaat qilishmoqda.

STEAM dunyo ta’limidagi zamonaviy tendentsiyalardan biri yoki ta’lim shakli sifatida keng tatbiq qilinarkan, uning bugungi kunda ta’lim olish ehtiyoji sifatida paydo bo’lganligini e’tirof etish kerak.

STEAM qisqartmasi ((siene - fan, texnologiya - texnologiya, engineering - muhandislik, arts and math - san’at va matematika) ushbu fanlarga oid bilimlarni o’zlashtirishni va ularni amalda qo’llash qobiliyatini nazarda tutadi. STEM yondashuvi tufayli tahsil oluvchilarr bir vaqtning o’zida bir nechta sohalarda rivojlanishini nazarda tutadi, ya’ni: informatika, fizika, texnika, muhandislik va



matematika va b.. Masalan, LEGO Eduation ta'lim echimlari - dunyoga mashhur LEGO kompaniyalar guruhining bir qismi - bu aniq STEM- tadqiqot, muhandislik, matematik va dizayn kompetensiyalari va ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

LEGO Foundation jamg'armasining ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilgacha bo'lajak mutaxassisliklarning 80% dan STEM kompetensiyalarini rivojlantirish talab qilinadi. Va bu sodir bo'lishi muqarrar bo'lgan holat, chunki hozirgi boshlang'ich ta'limda tahsil olayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining 65% hozirgi paytda mavjud bo'lmagan mutaxassisliklarda ishlashlari kerak bo'ladi. LEGO Foundation jamg'armasining tahlillariga ko'ra, ular mutlaqo yangi ilmiy sohalarda ishlashi va faqat 10-15 yil ichida paydo bo'ladigan kasblarni egallashi kerak bo'ladi. Shu sababli, oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan pedagogik kadrlar maktablarda tashkil qilinadigan va tatbiq etiladigan yangi texnologiyalarni rivojlantirish tendentsiyalaridan chetlasha olmaydilar.

Bugungi kunda o'qitish amaliyotida STEAM yondashuvi ishonchli tarzda xalqaro ta'lim dasturlariga kiritildi va so'nggi yillarda u xorij ta'lim muassasalarida tobora ko'proq qo'llanilmoqda.

STEAM ta'limi-o'qitishning negizida tizim faolligi yondoshuvi, talabalarning mustaqil tadqiqot ishlarini olib borish, DTSda ko'rsatilgan talabalarni bajarish bo'yicha bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Bugungi kunda respublikamizning umumiy o'rta ta'lim maktablarida ham STEAM ta'limi tashkil qilinmoqda. Ayniqsa, Prezident maktablari, turli ijodiy maktablarda ushbu texnologiyadan samarali foydalanilmoqda. Ushbu texnologiyani qo'llash orqali tahsil oluvchilarda turli sohalardagi: matematika va boshqa aniq fanlar, muhandislik, dizayn, raqamli qurilmalar va texnologiyalarga oid bilimlardan foydalanishga zamin yaratiladi.

STEAM bu tahsil oluvchilarga har qanday murakkablikdagi vazifalarni uddalashga imkon beradigan universal amaliyotga yo'naltirilgan yondashuv. Shu bilan birga, tahsil oluvchilar o'zlarining bilimlarini amaliy ravishda amalga oshiradilar.

Internet, shaxsiy raqamli qurilmalar va tezkor ma'lumotlarni uzatish texnologiyalarining jadal rivojlanishi dunyo ta'lim sohasida keskin o'zgarishlarga olib keldi. Shu sababli jahon ta'lim tizimida yoshlarning kreativ fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar zamirida innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida ta'limni tashkil qilish masalalarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda

Oliy ta'limda innovatsion texnologiyalar qatoridan o'rin olgan striming texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda.



Savollar:

1. «Ta'lim texnologiyalari» qachondan boshlab joriy etildi?
2. «Texnologiya», «texnologik jarayon», «ta'lim texnologiyasi» tushunchalarini ta'riflab bering.
3. Ta'limni texnologiyalashtirishning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
4. STEAM ta'limini izohlab bering.

ADABIYOTLAR:

1. Arbuzov S. S. Realizatsiya informatsionno-texnologicheskoy modeli podgotovki budущix ITspesialistov v oblasti infokommunikatsionnykh sistem i setey // Pedagogicheskoe obrazovanie v Rossii. – 2014. – № 8. – S. 85–89.
2. Arbuzov S. S. Texnologii podkastinga kak sredstvo aktivizatsii uchebnoy deyatel'nosti studentov pri obuchenii kompyuternym setyam // Pedagogicheskoe obrazovanie v Rossii. – 2015. – № 7. – S. 30–35.
3. Grushevskaya V. Yu., Griban O. N. Sistemy upravleniya kontentom i obucheniem kak instrumenty sozdaniya informatsionnoy sredy obrazovatel'nogo uchrejdeniya // Pedagogicheskoe obrazovanie v Rossii. – 2012. – № 5 – S. 49–55.
4. Zariskiy D. Как ya povыsil produktivnost s pomoshchyu striminga [Elektronnyy resurs]. – Rejim dostupa: <https://habrahabr.ru/post/307536/> (data obrasheniya: 11.05.2017).
5. Ishemgulov M. N. Pravovoy aspekt v ispolzovanii «strim-texnologiy» dlya dokumentirovaniya informatsii // Molodoy uchenyy. – 2016. – № 17. – S. 195–198.
6. Bepalko V.P. Slagaemye pedagogicheskoy texnologii-M.:Sila, 2005
7. Chernyavskaya A.P., Bayborodova L.V., Xarisova I.G. Texnologii pedagogicheskoy deyatel'nosti. Chast I. Obrazovatel'nyye texnologii: uchebnoe posobie/ pod obsh. red. A.P.Chernyavskoy, L.V.Bayborodovoy. — Yaroslavl;Izd-vo YaGPU, 2012. — 311 s.
8. 8.Guzeev V.V. Obrazovatel'naya texnologiya: ot priema do filosofii / M.: Sentyabr, 2017. — 112 s.
9. 9.Selevko G.K. Sovremennyye obrazovatel'nyye texnologii: Uchebnoe posobie. – M.: Narodnoe obrazovanie, 2018. – 256 s
10. 10.Xalkaro monitoring tizimlari kurinishlari (Varianty globalnykh sistem monitoringa): www.csu.edu.au, [www,student.wau.nl](http://www.student.wau.nl)// Retrieved 15.07.2015 from [://www.jstor.org](http://www.jstor.org)
11. 11. Success and Education in South Korea Clark W.Sorensen p 34-39 2004 [http// Retrieved 15.07.2015 from \[://www.jstor.org\]\(http://www.jstor.org\)](http://www.jstor.org)
12. 6. Friedrich Scheuermann and Francesc Pedró “Assessing the effects of ICT in education “Indicators, criteria and benchmarks for international comparisons” Retrieved 20.01.2020 from <http://www.csu.edu.au>



Education system Japan | EP-Nuffic | 1st edition September 2010 | version 4,
January 2015 <http://www.jstor.org> //Retrieved 15.07.2020



IV.AMALIY MASHG'ULOT MATEALLARI

1-AMALIY MASHG'ULOT: Oliy ta'lim didaktikasining zamonaviy kategoriyalari va rivojlanish tendensiyalari (2 soat)

Amaliy mashg'ulotdan ko'zlangan maqsadlar: tinglovchilarda oliy ta'lim didaktikasining asosiy kategoriyalari, uning asosiy tamoyillari va ilmiy-tadqiqot metodlarini chuqur bilishi va shu asosda pedagogik faoliyatini tashkil qila olishi bo'yicha malakalarini rivojlantirish.

Amaliy mashg'ulot interfaol metodlar va turli grafikli organayzerlar yordamida tashkil qilinadi.

1-topshiriq. "Chalkash zanjirlar" metodi asosida chap tarafdagi ustunda ko'rsatilgan didaktika tamoyillarga ustunning o'ng tomonidagi berilgan mos ta'rifni toping va chalkashlikka barham bering

| Didaktika tamoyillari | Ta'rif |
|---|---|
| Ta'limni insonparvarlashtirish | Bu tamoyil ta'lim mazmunini zamonaviy fan va texnika rivojlanish darajasi jahon sivilizatsiyasi to'plagan tajribaga mos kelishini ifodalaydi. Shuningdek, o'quv materialidagi qonuniyatlarni aks ettirilishi; shaxs tomonidan tushunishi va o'zlashtirishi uchun to'g'ri shart-sharoit yaratilishini ta'minlaydi. |
| Ta'limning tabiat bilan uyg'unligi tamoyili. | Bayon qilinayotgan o'quv materialini mustahkamlash va ilgari o'tilgan materiallarni to'ldirishga xizmat qiladi, tahsil oluvchilarning o'zlashtirgan bilim va hosil bo'lgan ko'nikma, malakalarini hisobga olib borishni nazarda tutadi. |
| Ta'limning tizimlilik va izchillik tamoyili | Bu tamoyil ta'lim mazmunini inson ongida nafaqat olam manzarasini, balki insondagi rivojlanish, yuksaklikka harakat va o'sish holatida bo'lgan o'zining shaxs sifatidagi qiyofasini shakllantirishga yo'naltirilgan |
| Ta'limning ilmiylik tamoyili. | Inson va jamiyat o'rtasida yuzaga keluvchi munosabatlar jarayonida inson omili, uning qadr-qimmatini, sha'ni, or-nomusi, huquq va burchlarini hurmat qilishga asoslanuvchi tamoyil |
| Ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi | Bu tamoyil ta'lim jarayonida barkamol |



| | |
|---|---|
| tamoyili | rivojlangan shaxsni shakllantirishni ko'zda tutadi. Yaxlit pedagogik jarayonda ta'lim va tarbiyaning birligi qonuniyatlariga tayanadi. |
| Ta'limning madaniyat bilan uyg'unlik tamoyili. | O'quvchilarga ularning yosh davrlarini inobatga olgan holda bilimlarning berilishi ushbu bilimlarning ular uchun tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. |

Tinglovchilar tomonidan to'ldirilgan jadval o'qituvchining varianti bilan taqqoslanadi.

O'qituvchining varianti


| Didaktika tamoyillari | Ta'rif |
|---|--|
| Ta'limni insonparvarlashtirish | Inson va jamiyat o'rtasida yuzaga keluvchi munosabatlar jarayonida inson omili, uning qadr-qimmatini, sha'ni, or-nomusi, huquq va burchlarini hurmat qilishga asoslanuvchi tamoyil |
| Ta'limning tabiat bilan uyg'unligi tamoyili. | Bu tamoyil ta'lim mazmunini inson ongida nafaqat olam manzarasini, balki insondagi rivojlanish, yuksaklikka harakat va o'sish holatida bo'lgan o'zining shaxs sifatidagi qiyofasini shakllantirishga yo'naltirilgan. |
| Ta'limning tizimlilik va izchillik tamoyili | Bayon qilinayotgan o'quv materialini mustahkamlash va ilgari o'tilgan materiallarni to'ldirishga xizmat qiladi, tahsil oluvchilarning o'zlashtirgan bilim va hosil bo'lgan ko'nikma, malakalarini hisobga olib borishni nazarda tutadi. |
| Ta'limning ilmiylik tamoyili. | Bu tamoyil ta'lim mazmunini zamonaviy fan va texnika rivojlanish darajasi, jahon sivilizatsiyasi to'plagan tajribaga mos kelishini ifodalaydi. Shuningdek, o'quv materialidagi qonuniyatlarni aks ettirilishi; shaxs tomonidan tushunishi va o'zlashtirishi uchun to'g'ri shart-sharoit yaratilishini ta'minlaydi. |
| Ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi tamoyili | O'quvchilarga ularning yosh davrlarini inobatga olgan holda bilimlarning berilishi ushbu bilimlarning ular uchun tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Bu tamoyil ta'lim jarayonida tarbiyalashning samarali kechishi shaxsning |

| | |
|---|--|
| | intellektual rivojlanishi, tahsil oluvchilarning qiziqishlari, idrok etishlari hamda individual qobiliyatlarining hisobga olinishi bilan bog'liq. |
| Ta'limning madaniyat bilan uyg'unlik tamoyili. | Bu tamoyil ta'lim jarayonida barkamol rivojlangan shaxsni shakllantirishni ko'zda tutadi. Yaxlit pedagogik jarayonda ta'lim va tarbiyaning birligi qonuniyatlariga tayanadi. |

2-topshiriq. Oliy ta'lim didaktikasining zamonaviy kategoriyalari va rivojlanish tendensiyalari haqidagi davra suhbatida ishtirok eting

“Davra suhbatı” metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta'lim oluvchilar tomonidan o'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodidir.

“Davra suhbatı” metodi qo'llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta'lim oluvchining bir-biri bilan “ko'z aloqasi” ni o'rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og'zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og'zaki davra suhbatida ta'lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta'lim oluvchilardan ushbu savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so'raydi va aylana bo'ylab har bir ta'lim oluvchi o'z fikr-mulohazalarini og'zaki bayon etadilar. So'zlayotgan ta'lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo'lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo'lingandan so'ng muhokama qilinadi. Bu esa ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.



Belgilar:

1-ta'lim oluvchilar

2-aylana stol


3-topshiriq. Keltirilgan ta'riflarni o'qib, javobini toping va krossvordni to'ldiring.


Ta'riflar:

1. O'qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko'nikma, malakalar, kompetensiya va fikrlash usullari tizimi.




2. Avtomatlashgan, biron bir usul bilan bexato bajarish, ko'nikmaning takomillashgan darajasi.
3. Egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qo'llay olish layoqati.
4. O'qitish jarayonida egallanishi lozim bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, faoliyat, fikrlash usullari tizimi.
5. O'qitishning nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida qay yo'sinda safarbar etilishi.





4-topshiriq. Hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlash hamda zamonaviy ta'lim jarayonini ko'rib chiqish asosida o'quvchilarning rollar orqali namoyon bo'lishini tartib bilan ifodalang.

- 1.guruhli faoliyatning ishtirokchisi
- 2.namuna bo'yicha uy vazifasini mustaqil bajargandan so'ng faoliyat egasi
- 3.o'quv jarayoni bilan dastlab tanishishda tomoshabin, kuzatuvchi
- 4.o'z faoliyati natijasida yuzaga keladigan o'z-o'zining faoliyati egasi
- 5.faoliyatning shaxsiy namunasini yaratishda faoliyat egasi+fikr egasi



- 1.o'quv jarayoni bilan dastlab tanishishda tomoshabin, kuzatuvchi
- 2.guruhli faoliyatning ishtirokchisi
- 3.namuna bo'yicha uy vazifasini mustaqil bajargandan so'ng faoliyat egasi
- 4.faoliyatning shaxsiy namunasini yaratishda faoliyat egasi+fikr egasi
- 5.o'z faoliyati natijasida yuzaga keladigan o'z-o'zining faoliyati egasi.




2-AMALIY MASHG'ULOT: OLIY TA'LIM DIDAKTIKASINING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNI TADQIQ ETISH METODLARI (2 SOAT)

Amaliy mashg'ulotdan ko'zlangan maqsadlar: tinglovchilarda oliy ta'lim didaktikasining dolzarb muammolari va ularni tadqiq etish metodlari haqida chuqur bilishi va shu asosda pedagogik faoliyatini tashkil qila olishi bo'yicha malakalarini rivojlantirish.

Amaliy mashg'ulot interfaol metodlar va turli grafikli organayzerlar yordamida tashkil qilinadi.

1-topshiriq. Oliy ta'lim didaktikasida mavjud muammolarni aniqlang va quyida ko'rsatilgan texnologiyaga joylashtiring.

“Qarorlar qabul qilish” texnologiyasi




O'qituvchining javobi.

1-muammo: Oliy ta'lim didaktikasining muammolaridan biri – o'tkazilayotgan tadqiqotlarda tahsil oluvchilarning dinamikadagi ko'rsatkichlarini taqqoslash shartlarni tenglashtirishga kafolat bermaydi.

2-muammo. Konseptual va ilmiy tavsiflarda yagona tartiblashtirilgan tizimning mavjud emasligi.

3-muammo. Zamonaviy oliy ta'lim didaktikasida o'quv jarayonini o'rganish uchun zaruriy metodikalar bilan ta'minlanmaganligi.

2-topshiriq. Quyida berilgan geometrik shakllar ichida tasvirlangan raqamlarni 20 soniya ichida qarab, eslab qoling, so'ng, ularga mos bo'lgan jadvalda keltirilgan kategoriyalarni toping



Jadval

| | |
|-----------|-------------------------------|
| 1. | Paradigma- |
| 2. | Ta'lim- |
| 3. | Kasbiy professiogramma |
| 4. | Shakllanish |
| 5. | Rivojlanish |

3-topshiriq. “FSMU” metodi asosida oliy ta'lim didaktikasi muammolari to'g'risida umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqaring, fikrlaringizni taqqoslang.

“FSMU” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur metoddan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Jihozlar: mashg'ulot davomida ishlash uchun vatman, flomaster, markerlar, Elektron doska, “Elektron ko'z”.

4-topshiriq. “Oliy ta'lim didaktikasining dolzarb muammolari va ularni tadqiq etish metodlari” mavzusida kichik esse yozing.

3-AMALIY MASHG'ULOT: DIDAKTIK TIZIMLAR VA ULARNING TURLARI (2-SOAT)

Amaliy mashg'ulotdan ko'zlangan maqsadlar: tinglovchilarda didaktik tizimlar va ularning turlari haqida bilim hosil qildirish va shu asosda pedagogik faoliyatini tashkil qila olishi bo'yicha malakalarini rivojlantirish.

Amaliy mashg'ulot interfaol metodlar va turli grafikli organayzerlar yordamida tashkil qilinadi.

1- topshiriq. Didaktik tizim xaqida keys bayoni.

Didaktik tizim deganda, ma'lum mezonlarga ko'ra tanlangan yaxlit ta'lim tushuniladi. Didaktik tizimlar ekskursiyaning ichki yaxlitligi bilan ajralib turadi,



maqsadlar, tashkiliy tamoyillar, mazmuni, o'qitish shakllari va usullarining birligi bilan shakllanadi. Tuzilmalarning o'ziga xos xususiyati bugungi tadqiqotchilarga uchta tubdan farq qiladigan didaktik tizimni ajratib olishga imkon beradi:

- 1) I.F.Gerbartning didaktik tizimi (didaktika);
- 2) D. Devining didaktik tizimi;
- 3) Zamonaviy mukammal tizim.

Keys topshirig'i: Didaktik tizim deganda nima tushuniladi? Didaktik tizimlarni tashkil etadigan maqsadlar, tashkiliy tamoyillar, mazmuni, o'qitish shakllari va usullarining birligi haqida tushuncha bering. Tuzilmalarning o'ziga xos xususiyati haqida fikr bildiring.

Keys topshirig'i:

| Didaktik tizim yaratgan namoyondalar | Qarashlari |
|--------------------------------------|------------|
| | |
| | |
| | |

O'qituvchining javobi:

| Didaktik tizim yaratgan namoyondalar | Qarashlari |
|--------------------------------------|---|
| Ya.A. Komenskiy | Sinf-dars tizim yaratdi |
| I.F.Gerbart | Nemis faylasufi va pedagogi I.F. Gerbart (1776-1841), ta'limning eng yuqori maqsadi yuksak axloqiy fazilatlarga ega shaxsni, axloqiy jihatdan kuchli xarakterli shaxsni shakllantirishdir. Uning fikricha, ta'lim quyidagi axloqiy g'oyalarga asoslangan bo'lishi kerak: - shax intilishlarining yo'nalishini, faoliyat sohasini va salohiyatini belgilaydigan mukammallik; xayrixohlik, o'z irodasini boshqalarning irodasiga muvofiqlashtirish va bo'ysunishni ta'minlash; odamlar o'rtasidagi ziddiyatlarning kuchayishiga yo'l qo'ymaslik va b. Didaktik tizimni yaratar ekan, zamonaviy psixologiyadan Gerbart ikkita asosiy g'oyaga tayandi: irsiy yoki orttirilgan ruhiy moyillik mavjud emas; barcha aqliy hayot g'oyalar asosida shakllanadi. |



| | |
|--------------------|--|
| Jon Dyui | Jon Dyuning didaktik tizimi jamiyat va ta'lim muassasasining izchil rivojlanishi bilan ziddiyatga kelgan gerbartchilarning avtoritar didaktik tizimiga qarshi turish maqsadida ishlab chiqilgandi. J. Dyui tomonidan intizomiy choralar asosida tahsil oluvchilarga yuzaki ta'lim berish tanqidga uchradi. Shuningdek, pedagog hayot bilan bog'liq bo'lmagan ta'limning eskirgani; tahsil oluvchilarga "tayyor" bilimlarni berish, yodlashga qaratilgan "passiv" usullardan foydalanish; talabalarning qiziqishlari, ehtiyojlari etarli darajada hisobga olinmaganligi; ta'lim mazmunini ijtimoiy ehtiyojlardan ajratish; talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirishga etarlicha e'tibor bermaslik jiddiy pedagogik xatolarga olib kelishi mumkinligini ta'kidlaydi. |
| Zamonaviy tizimlar | <p>1.Amerikalik psixolog va pedagog Jerom Brukner tomonidan ishlab chiqilgan "kashfiyotlar orqali" o'rganish kontsepsiyasi alohida e'tiborga loyiqdir. Unga muvofiq talabalar voqelikni o'rganishlari, bilimlarni o'zlarining kashfiyotlari orqali o'zlashtirishlari kerak, bular barcha bilim kuchlarini ishga solishni talab qiladi va samarali fikrlashni rivojlantirishga nihoyatda samarali ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, talabalar bundan oldin o'zlari uchun noma'lum bo'lgan umumlashtirishlarni mustaqil ravishda shakllantirishlari, shuningdek ularni amaliy qo'llash ko'nikma va malakalariga ega bo'lishlari kerak.</p> <p>Amaliy pedagogik faoliyat asoslari bo'lib hisoblanmish zamonaviy oliy ta'lim didaktikasi quyidagi xususiyatlari bilan tavsiflanadi:Uning uslubiy asosini bilimlar falsafasi (gnoseologiya), materializmning ob'ektiv qonunlari tashkil etadi, buning natijasida zamonaviy didaktika o'quv jarayonini tahlil qilish va talqin qilishda bir tomonlama yondashuvdan chetlashdi.</p> |

Keys topshirig'i. Zamonaviy tizimlardagi didaktik maktablar yaratgan namoyondalar haqidagi ma'lumotlarni davom ettiring

| | |
|---------------|--|
| Jerom Brukner | 1.Amerikalik psixolog va pedagog Jerom Brukner |
|---------------|--|



| | |
|--------------|---|
| | <p>tomonidan ishlab chiqilgan “kashfiyotlar orqali” o’rganish kontseptsiyasi alohida e’tiborga loyiqdir. Unga muvofiq talabalar voqelikni o’rganishlari, bilimlarni o’zlarining kashfiyotlari orqali o’zlashtirishlari kerak, bular barcha bilim kuchlarini ishga solishni talab qiladi va samarali fikrlashni rivojlantirishga nihoyatda samarali ta’sir ko’rsatadi. Shu bilan birga, talabalar bundan oldin o’zlari uchun noma’lum bo’lgan umumlashtirishlarni mustaqil ravishda shakllantirishlari, shuningdek ularni amaliy qo’llash ko’nikma va malakalariga ega bo’lishlari kerak.</p> <p>Amaliy pedagogik faoliyat asoslari bo’lib hisoblanmish zamonaviy oliy ta’lim didaktikasi quyidagi xususiyatlari bilan tavsiflanadi: Uning uslubiy asosini bilimlar falsafasi (gnoseologiya), materializmning ob’ektiv qonunlari tashkil etadi, buning natijasida zamonaviy didaktika o’quv jarayonini tahlil qilish va talqin qilishda bir tomonlama yondashuvdan chetlashdi.</p> |
| A. Makarenko | |

Keys topshirig’i. Jadid-ma’rifatparvarlarining didaktik tizimlari haqidagi ma’lumotlarni jalvalga kiriting

| Ma’rifatparvarlar | Ma’rifatparvarlar tashkil qilgan tizim nomi | Qisqacha mazmuni |
|-------------------|---|------------------|
| Abdulla Avloniy | Yangi usul maktabi | |
| Ibrat | | |
| Siddiqiy | | |
| | | |
| | | |
| | | |

O’qituvchining javobi.

| Ma’rifatparvarlar | Ma’rifatparvarlar tashkil qilgan tizim nomi | Qisqacha mazmuni |
|-------------------|---|------------------|
| Abdulla Avloniy | Yangi usul maktabi | |



| | | |
|----------|--|--|
| Ibrat | | |
| Siddiqiy | | |
| | | |
| | | |
| | | |

2-topshiriq: Quyidagi falsafiy tizimlarga doir ta'riflarni ularga tegishli tushunchalar bilan juftlang.

| No | Ta'riflar | No | Tushunchalar |
|----|---|----|--------------|
| 1 | Ushbu falsafiy tizim amaliyotda insonga nima ko'proq foyda bersa, o'shanga ko'proq ahamiyat berish zarur, degan g'oyani ilgari suradi. | A | empirizm |
| 2 | Ushbu falsafiy tizimga ko'ra, odamlarning bilimlari va harakatlarining asosini ong tashkil etadi. Ushbu falsafiy tizim vakillari sifatida Benedikt Spinoza, Gottfrid Leybnis, Rene Dekart hamda Geogr Hegel kabi olimlarni misol qilib keltirish mumkin. | B | texnokratizm |
| 3 | Ushbu tushuncha yaxlit gnoseologik konsepsiya sifatida XVII-XVIII asrlarda shakllangan bo'lib, hissiy tajribani bilishning birdanbir manbai deb hisoblaydi. U ratsionalizmga qarama-qarshi ravishda tajribani, hissiy bilishni mutlaqlashtirish kabi omillarni birinchi darajaga qo'yadi. | S | pragmatizm |
| 4 | Ushbu falsafiy tizim hokimiyat ilmiy va texnik mutaxassislar qo'lida bo'lishi kerak, degan g'oyani ilgari suradi. | D | ratsionalizm |

| | | | | |
|--------------|---|---|---|---|
| Javob | 1 | 2 | 3 | 4 |
| Javob | | | | |

O'qituvchining javobi.

| | | | | |
|--------------|---|---|---|---|
| Javob | 1 | 2 | 3 | 4 |
|--------------|---|---|---|---|



| | | | | |
|--------------|-----|-----|-----|-----|
| Javob | 1-S | 2-D | 3-A | 4-B |
|--------------|-----|-----|-----|-----|

3-topshiriq. Ushbu jadvalga kasbiy didaktik tayyorgarlikning rivojlanishini ta'minlaydigan pedagogik funksiyalarga doir ta'riflarga mos javob yozing.

| Ta'riflar | Javob |
|---|-------|
| Ushbu funksiya mohiyatan didaktik bilim ko'shikmalarini egallash, mutaxassisga ta'lim muassasasida o'quv jarayonini tashkil etishga ijodiy yondashishni amalga oshirishga imkon beradigan kasbiy fikrlash, nutq, pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirish bilan uzviy bog'liq. | |
| Bu funksiya pedagogika kurslari va xususiy metodlarini, shuningdek, maxsus kurslar va maxsus seminarlarni o'qiyotgan talabalarning kelgusi jarayoniga yo'naltiruvchi ta'siri bilan bog'liq. Funktsiyaning alohida roli pedagogik OTMlarning turli fakultetlarida o'quv jarayonini qiyosiy tahlil qilishda kuzatiladi. | |

O'qituvchining javobi.

| Ta'riflar | Javob |
|---|------------------------------|
| Ushbu funksiya mohiyatan didaktik bilim ko'shikmalarini egallash, mutaxassisga ta'lim muassasasida o'quv jarayonini tashkil etishga ijodiy yondashishni amalga oshirishga imkon beradigan kasbiy fikrlash, nutq, pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirish bilan uzviy bog'liq. | Rivojlanish funksiyasi |
| Bu funksiya pedagogika kurslari va xususiy metodlarini, shuningdek, maxsus kurslar va maxsus seminarlarni o'qiyotgan talabalarning kelgusi jarayoniga yo'naltiruvchi ta'siri bilan | Muvofiqlashtiruvchi funksiya |



| | |
|--|--|
| bog'liq. Funktsiyaning alohida roli pedagogik OTMlarning turli fakultetlarida o'quv jarayonini qiyosiy tahlil qilishda kuzatiladi. | |
|--|--|

4-AMALIY MASHG'ULOT: O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM DIDAKTIKASINING RIVOJLANISH TARIXI (2 SOAT)

Amaliy mashg'ulotdan ko'zlangan maqsadlar: tinglovchilarda O'zbekistonda oliy ta'lim didaktikasining rivojlanish tarixi chuqur bilishi va shu asosda pedagogik faoliyatini tashkil qila olishi bo'yicha malakalarini rivojlantirish. Mamlakatimizda Uchinchi Renessans haqida ma'lumotga ega bo'lish va shu asosda ilmiy-pedagogik faoliyatini tashkil etish.

Amaliy mashg'ulot interfaol metodlar va turli grafikli organayzerlar yordamida tashkil qilinadi.

1-topshiriq. O'zbekistonda oliy ta'lim didaktikasining rivojlanish tarixini "Blis-so'rov" metodi asosida tushuntirib bering.

"Blis-so'rov" metodi

Metodning maqsadi: tinglovchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maqsadida qo'llash samarali natijalarni beradi.


Metodni amalga oshirish bosqichlari:

Tinglovchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, O'zbekistonda oliy ta'lim didaktikasining rivojlanish tarixiga ulkan hissa qo'shgan jadid-ma'rifatparvarlari: Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Usmon Nosir, Ibrat, Siddiqiy; XX asr pedagoglari, didakt olimlar: Siddiq Rajabov, Malla Ochilov, Usmonali Nishonaliev va boshqa olimlarning qarashlarini tahlil qilish. Ta'limni tashkil etish yondashuvlari asosida didaktik jarayonni loyihalash metodlarini samarali qo'llash, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun belgilangan mavzu yuzasidan tarqatilgan tarqatma materiallarni sinchiklab o'rganishi, so'ng, to'g'ri javoblar tarqatmadagi "Yakka baholash" ustuniga belgilash. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajarildi. Navbatdagi bosqichda moderator ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh a'zolarini o'z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirishga undaydi. Bahs mobaynida tinglovchilar O'zbekistonda oliy ta'lim didaktikasining rivojlanish tarixiga haqida kichik taqdimotlar orqali o'z fikrlarini asoslab beradilar. Buning uchun manbalar va internet ma'lumotlaridan foydalanishlari tavsiya etiladi.

Texnologiya mobaynida turli interfaol metodlar va organayzerlardan foydalanish tavsiya etiladi.



2-topshiriq. Jadid ma'rifatparvari Abdulla Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda to'rt bo'limga ajratgan. Ushbu bo'limlarni qo'yidagi texnologiyaga joylashtiring va har birini og'zaki ravishda tushuntiring.



3-topshiriq. Jadidchilik milliy harakati namoyandalari qalamiga mansub asarlarni qo'yidagi jadvalga yozing.

| Jadid ma'rifatparvarlari | Asarlar nomi |
|--------------------------|-------------------------------|
| Abdulla Avloniy | “Turkiy guliston yoxud axloq” |
| Mahmudxo'ja Behbudiy | |
| Fitrat | |

O'qituvchining javobi.

| Jadid ma'rifatparvarlari | Asarlar nomi |
|--------------------------|--|
| Abdulla Avloniy | “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Alifbedan so'nggi o'quv kitobi” |
| Mahmudxo'ja Behbudiy | “Kitob ul-atfol”, “Amaliyoti islom”, “Aholi jo'g'rofiyasiga kirish”, “Rossiyaning qisqacha geografiyasi” |
| Fitrat | “Abudfayzxon”, “Arslon”, “Vose” “Adabiyot qoidalari”, “Aruz haqida” |

5-AMALIY MASHG'ULOT: OLIY TA'LIM DIDAKTIKASIDA ZAMONAVIY O'QITISH KONSEPSIYALARI (2 SOAT)

Amaliy mashg'ulotdan ko'zlangan maqsadlar: tinglovchilarda oliy ta'lim didaktikasida zamonaviy o'qitish konsepsiyalari haqida chuqur bilishi va shu asosda pedagogik faoliyatini tashkil qila olishi bo'yicha malakalarini rivojlantirish.



Amaliy mashg'ulot interfaol metodlar va turli grafikli organayzerlar yordamida tashkil qilinadi

1-topshiriq. “Oliy ta'lim didaktikasida zamonaviy o‘qitish konsepsiyalari” mavzusida “Loyiha” texnologiyasi orqali taqdimot tayyorlang

Tinglovchi “Loyiha” texnologiyasi qo‘llashi uchun topshiriqlarni ishlab chiqishi, loyiha ishini dars rejasiga kiritishi, topshiriqni ta'lim oluvchilarning imkoniyatlariga moslashtirib, ularni loyiha ishi bilan tanishtirishi, loyihalash jarayonini kuzatib turishi va topshiriqni mustaqil bajara olishlarini ta'minlashlari lozim.

2-topshiriq. Qo‘yidagi jadvalda keltirilgan nazariyalarga mos ta'riflarni toping.

| Nazariya nomi | Chalkash ma'lumotlar | To'g'ri ma'lumotlar |
|-------------------|---|---------------------|
| Pragmatizm | Ushbu nazariya katolik ilohiyotchisi Toma Akvinskiy sharafiga nomlangan bo'lib, uni J.Mariten, U.Makgaken va M. Kazottilar ilgari surishgan | |
| Neopragmatizm | XIX asrning 2-yarmi XX asrning boshlarida paydo bo'lgan ushbu nazariyani amerikalik olim D.Dyui muvaffaqiyatli ravishda tadbqiq eta boshlagan | |
| Neopozitivizm | Ushbu nazariya tarafdorlari sifatida G.Marsel, U.Barret, D.Kneller kabi olimlarni e'tirof etish mumkin | |
| Ekzistensiyaalizm | Mazkur yo'nalish Platon, Aristotel va Kantlarning axloqiy g'oyalari asosida paydo bo'lgan | |
| Neotomizm | Ushbu nazariya nisbatan keyinroq paydo bo'lgan bo'lib, uning tarafdori sifatida D.Uotsonni aytib o'tish mumkin | |
| Bexiviorizm | Ushbu nazariya 1970 yillarda shakllana boshlagan, uning namoyandalari A.Maslou hamda A.Kombs. | |

**O'qituvchining javobi.**

| Nazariya nomi | Chalkash ma'lumotlar | To'g'ri ma'lumotlar |
|----------------------|--|--|
| Pragmatizm | Ushbu nazariya katolik ilohiyotchisi Toma Akvinskiy sharafiga nomlangan bo'lib, uni J.Mariten, U.Makgaken va M. Kazottilar ilgari surishgan | XIX asrning 2-yarmi XX asrning boshlarida paydo bo'lgan ushbu nazariyani amerikalik olim D.Dyui muvaffaqiyatli ravishda tadbiq eta boshlagan |
| Neopragmatizm | XIX asrning 2-yarmi XX asrning boshlarida paydo bo'lgan ushbu nazariyani amerikalik olim D.Dyui muvaffaqiyatli ravishda tadbiq eta boshlagan | Ushbu nazariya 1970 yillarda shakllana boshlagan, uning namoyandalari A.Maslou hamda A.Kombs. |
| Neopozitivizm | Ushbu nazariya tarafdorlari sifatida G.Marsel, U.Barret, D.Kneller kabi olimlarni e'tirof etish mumkin | Mazkur yo'nalish Platon, Aristotel va Kantlarning axloqiy g'oyalari asosida paydo bo'lgan |
| Ekzistensiyalizm | Mazkur yo'nalish Platon, Aristotel va Kantlarning axloqiy g'oyalari asosida paydo bo'lgan | Ushbu nazariya tarafdorlari sifatida G.Marsel, U.Barret, D.Kneller kabi olimlarni e'tirof etish mumkin |
| Neotomizm | Ushbu nazariya nisbatan keyinroq paydo bo'lgan bo'lib, uning tarafdori sifatida D.Uotsonni aytib o'tish mumkin | Ushbu nazariya katolik ilohiyotchisi Toma Akvinskiy sharafiga nomlangan bo'lib, uni J.Mariten, U.Makgaken va M. Kazottilar ilgari surishgan |
| Bexiviorizm | Ushbu nazariya 1970 yillarda shakllana boshlagan, uning namoyandalari A.Maslou hamda A.Kombs. | Ushbu nazariya nisbatan keyinroq paydo bo'lgan bo'lib, uning tarafdori sifatida D.Uotsonni aytib o'tish mumkin |



3-topshiriq. “Oliy ta’lim didaktikasida zamonaviy o‘qitish konsepsiyalari” mavzusida kichik guruhlariga bo‘lining hamda raqib guruhlardan intervyu olishga tayyorgarlik ko‘ring (tinglovchilar ma’ruza mashg‘uloti jarayonida olgan bilimlariga asoslanadilar). Ushbu metod orqali tinglovchilarning egallagan bilimlari mustahkamlanib, og‘zaki nutq ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

6-AMALIY MASHG‘ULOT: OLIY TA’LIM DIDAKTIKASIDA INNOVATSION OQIMLAR VA MUAMMOLAR (2 SOAT)

Amaliy mashg‘ulotdan ko‘zlangan maqsadlar: tinglovchilarda oliy ta’lim didaktikasida innovatsion oqimlar va muammolar haqida chuqur bilishi va shu asosda pedagogik faoliyatini tashkil qila olishi bo‘yicha malakalarini rivojlantirish.

Amaliy mashg‘ulot interfaol metodlar va turli grafikli organayzerlar yordamida tashkil qilinadi.

1-topshiriq. Tinglovchilarga taqdim etilgan jadval.

Quyidagi muammolar bo‘yicha Insert jadvalini to‘ldiring

| Bu matn menga tanish (“+”) | Bu mantdagi ayrim jihatlar notanish (“-”) | Ushbu mantdagi ayrim abzaslar savol tug‘dirdi?(“?”) | Ushbu ma’lumotlarni yod olish kerak (“!”) |
|-----------------------------------|--|--|--|
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |

Tinglovchilar tomonidan to‘ldirilgan jadval o‘qituvchining varianti bilan taqqoslanadi.

O‘qituvchining varianti

| Bu matn menga tanish (“+”) | Bu mantdagi ayrim jihatlar notanish (“-”) | Ushbu mantdagi ayrim abzaslar savol tug‘dirdi?(“?”) | Ushbu ma’lumotlarni yod olish kerak (“!”) |
|-----------------------------------|--|--|--|
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |



| | | | |
|--|--|--|--|
| | | | |
|--|--|--|--|

2-topshiriq. Blis-so‘rov asosidagi topshiriqlarga javob bering

Innovatsiya-
 Novatsiya-
 Innovatsion oqimlar-
 Innovatsion muammolar-
 Modernizatsiya –
 Ta'lim tizimining modernizatsiyasi –
 Ta'lim texnologiyasi –
 Pedagogik texnologiya –
 “Ta'lim texnologiyasi” nazariyasining shakllanishi bosqichlari-

Javob: Tushunchalar quyidagi ish qog‘ozi asosida to‘ldiriladi (namuna).

| | |
|---|--|
| Novatsiya | |
| Faoliyatning qisqa muddatli, yaxlit tizim | |

| Новация | Иновация |
|--|---|
| Фаолиятнинг киска мuddatли, yaxlit tizim хусусиятига эга бўлиши ва фақатгина тизимдаги айрим элементларни ўзгартиришга хизмат қилиши | Фаолиятнинг маълум концептуал ёндашув асосида амалга оширилиши ва натижасининг муайян тизимнинг ривожланишига ёки уни тубдан ўзгартиришга хизмат қилиши |


3-topshiriq. Kichik guruhlariga oliy ta'lim didaktikasida innovatsion oqimlar va muammolar ahamiyatini yorituvchi “Ikki sahifali kundalik”ni shakllantirish. Tinglovchilar uchun quyidagi ish qog‘ozi tavsiya etiladi:

**KUNDALIKNING
 1-SAHIFASI:**
 Oliy ta'lim didaktikasida
 innovatsion oqimlarning
 maqsadi

**KUNDALIKNING
 2-SAHIFASI:**
 Oliy ta'lim didaktikasida
 innovatsion oqimlarning
 vazifalari



Keys topshirig'ini bajarish uchun ish qog'ozi:



Ta'lim innovatsiyalari:

1. Pedagogik jarayonda qo'llaniladigan innovatsiyalar;
2. O'zlashtirilgan innovatsiyalar;
3. Modifikatsiyalangan innovatsiyalar;
4. Ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar;
5. Modul innovatsiyalari;
6. Radikal innovatsiyalar;
7. Jamoa tomonidan bevosita yaratilgan innovatsiyalar
8. Kombinatsiyalangan innovatsiyalar;
9. Tarmoq (lokal) innovatsiyalari;
10. Tizim innovatsiyalari.

5-topshiriq. Mavzuga oid aralash testlarni yechish.

1. Jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ehtiyojlarini, jamiyat va davlatning malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatli ta'lim olish bo'lgan talabini qondirish yo'lida uzluksiz ta'lim tizimini barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida mavjud mexanizmning qayta ishlab chiqilishi yoki takomillashtirilishi – bu ...

- a) ta'lim tizimining rivojlanishi;
- b) ta'lim tizimining shakllantirilishi;
- s) ta'lim tizimining holati;
- d) ta'lim tizimining modernizatsiyasi.

2. Lug'aviy jihatdan "innovatsiya" tushunchasi qanday ma'noni ifodalaydi?

- a) o'zgartirish kiritish;
- b) qo'shimcha kiritish;
- s) yangilik kiritish;
- d) taklif kiritish.



3. “Innovatsion ta’lim” tushunchasi dastlab qaerda asoslangan?

- a) 1919 yilda Berlinda;
- b) 1979 yilda Rimda;
- s) 1920 yilda Vashingtonda;
- d) 1995 yilda Moskvada.

4. Yangi g‘oyalar, tizim yoki faoliyat yo‘nalishini o‘zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar, noan’anaviy yondashuvlar, odatiy bo‘lmagan tashabbuslar, ilg‘or ish uslublari. Ular ... ko‘rinishlari.

- a) texnologiyaning;
- b) metodikaning;
- s) innovatsiyaning;
- d) loyihalashning.

5. Ta’lim (o‘qitish) jarayonining yuksak mahorat, san’at darajasida tashkil etilishi qanday nomlanadi?

- a) ta’lim metodikasi;
- b) ta’lim texnologiyasi;
- s) ta’lim paradigmasi;
- d) ta’lim metoologiyasi.

6. Ta’lim shakllarini takomillashtirish vazifasini ko‘zlagan o‘qitish va boshqalarni o‘zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tadbiq etish va aniqlashning izchil metodi. “Pedagogik texnologiya” tushunchasining ushbu ta’rifi kim tomonidan berilgan?

- a) U.Nishonaliev;
- b) B.Farberman;
- s) YuNESKO;
- d) V.P.Bespalko.

6-topshiriq. Pedagogik texnologiya mezonlarini raqamlarini mos kataklarga qo‘yib chiqing:

- 1) konseptuallik;
- 2) tizimlilik;
- 3) boshqaruvchanlik;
- 4) samaradorlik.

Javob:

| | | | |
|---|---|---|---|
| 4 | 2 | 1 | 3 |
|---|---|---|---|

Mashg‘ulotning yakunlanishi.

Kichik guruhlar va har bir tinglovchining mashg‘ulot jarayonidagi ishtiroki baholanadi. Ta’lim maqsadining natijalanganligi tahlil qilinadi.



7-AMALIY MASHG'ULOT: DIDAKTIK JARAYONDA PREDMETLARARO ALOQADORLIK MASALALARI (2SOAT)

Amaliy mashg'ulotdan ko'zlangan maqsadlar: tinglovchilarda didaktik jarayonda predmetlararo aloqadorlik masalalari haqida tushuncha hosil qilish va shu asosda pedagogik faoliyatini tashkil qila olishi bo'yicha malakalarini rivojlantirish.

Amaliy mashg'ulot interfaol metodlar va turli grafikli organayzerlar yordamida tashkil qilinadi.

1.topshiriq. "Chalkash zanjirlar" metodi orqali quyida berilgan ta'riflarning muallifini toping hamda to'g'ri javobni yozing.

| Ta'rif | Chalkash javoblar | To'g'ri javoblar |
|---|-------------------|------------------|
| Pedagogik texnologiya - bu ta'lim jarayonini amalga oshirishning mazmunli texnikasi | I.P. Volkov | |
| Pedagogik texnologiya - rejalashtirilgan ta'lim natijalariga erishish jarayonining tavsifi | V.G. Afanasev | |
| Pedagogik tizimlarni bir qator belgilar yordamida ajralmas hodisalar deb, ta'riflash mumkin | V.P. Bespalko | |

O'qituvchining javobi.

| Ta'rif | Chalkash javoblar | To'g'ri javoblar |
|---|-------------------|------------------|
| Pedagogik texnologiya - bu ta'lim jarayonini amalga oshirishning mazmunli texnikasi | I.P. Volkov | V.P. Bespalko |
| Pedagogik texnologiya - rejalashtirilgan ta'lim natijalariga erishish jarayonining tavsifi | V.G. Afanasev | I.P. Volkov |
| Pedagogik tizimlarni bir qator belgilar yordamida ajralmas hodisalar deb, ta'riflash mumkin | V.P. Bespalko | V.G. Afanasev |



8- AMALIY MASHG'ULOT: DIDAKTIKADA FAN, TA'LIM, ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI MASALALARI. STEAM TA'LIMI.(2 SOAT)

Amaliy mashg'ulotdan ko'zlangan maqsadlar: tinglovchilarda didaktikada fan, ta'lim, ishlab chiqarish integratsiyasi masalalari hamda STEAM ta'limi haqida tushuncha hosil qilish va shu asosda pedagogik faoliyatini tashkil qila olishi bo'yicha malakalarini rivojlantirish.

Amaliy mashg'ulot interfaol metodlar va turli grafikli organayzerlar yordamida tashkil qilinadi.

1-topshiriq. Fan, ta'lim, ishlab chiqarish integratsiyasi masalalariga oid berilgan matnni o'qing. "B-B-B" organayzeri asosida uni tahlil qiling.

Taqdim qilinadigan matn:

Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi masalalari uchta asosiy jihat bo'yicha tadqiq etilishni talab etadi: tizimli (integratsiya sub'ektining ichki tuzilishi va tashqi munosabatlar tizimini o'zgartirish); moliyaviy-iqtisodiy (integratsiya sub'ektining aktivlari va majburiyatlari tarkibini o'zgartirish); huquqiy (integratsiya sub'ektlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning huquqiy protseduralari va texnologiyalari).

Ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasining samaradorligi milliy iqtisodiyot va ishlab chiqarish resurslarining mahsuldorligi bilan bog'liq.

Ta'lim muassasalari faoliyatining turli yo'nalishlarini integratsiyalash mehnat, moliyaviy, moddiy resurslardan yanada samarali va samarali foydalanishga imkon beradi. Integratsiyaning tubdan yangi modellarini izlashning muhim iqtisodiy sharti bu tadqiqot ishlarini moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, ta'lim texnologiyalari (grantlar, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bilan shartnomalar, ilmiy ishlanmalarni amalga oshirish, ilmiy konsalting, ekspertiza, axborot xizmatlari, dizayn, tashkiliy xizmatlar, patentlar, litsenziyalar va boshqalarni amalga oshirish va boshqalar.)dan iborat.

Ijtimoiy institut sifatida ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish har biri mustaqil bo'lganligi bois, ularning integratsiyalashuv mexanizmi takomil talab masalalar sirasiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020 y) ta'lim, ilmiy va kasbiy faoliyatni organik ravishda birlashtirgan kengroq integratsiya jarayonlari uchun yagona qonunchilik bazasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda fan, ta'lim va ishlab chiqarishni birlashtirish to'g'risida alohida mustaqil, tizimni shakllantiruvchi federal qonunni ishlab chiqish va qabul qilish zarur.



Tinglovchilar to'ldirishi lozim bo'lgan B-B-B jadvali

| B (bilar edim) | B (bilib oldim) | B (bilishni xohlayman) |
|----------------|-----------------|------------------------|
| | | |
| | | |

O'qituvchining javobi:

| B (bilar edim) | B (bilib oldim) | B (bilishni xohlayman) |
|---|--|--|
| Integratsiya bu- | Ijtimoiy institut sifatida ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish har biri mustaqil bo'lganligi bois, ularning integratsiyalashuv mexanizmi takomil talab masalalar sirasiga kiradi | Integratsiyaning yangi modellari |
| O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni (2020y) ta'lim, ilmiy va kasbiy faoliyatni organik ravishda birlashtirgan yagona qonunchilik bazasi | Ijtimoiy institut sifatida ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish har biri mustaqil tizimni hosil qiladi | Integratsiya sub'ektining ichki tuzilishi va tashqi munosabatlar tizimi qachon o'zgaradi? |
| Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi masalalari tizimli ichki va tashqi munosabatlar birlashishi natijasida paydo bo'ladi | Integratsiyaning samaradorligi milliy iqtisodiyot va ishlab chiqarish resurslarining mahsuldorligi bilan bog'liq | Ilmiy konsalting, ekspertiza, axborot xizmatlari, dizayn, tashkiliy xizmatlar va boshqalarni amalga oshirish bosqichlari |

2-topshiriq. Chap tarafdagi ustunda ko'rsatilgan **STEAM qisqartmasiga mos bo'lgan ta'rifni** ustunning o'ng tomoniga moslashtiring.



| STEAM qisqartmasi | STEAM ta'rifi |
|-------------------|---------------|
| S | |
| T | |
| E | |
| A | |
| M | |

O'qituvchining javobi.

| STEAM qisqartmasi | STEAM ta'rifi |
|-------------------|--|
| S | science – fan. Tahsil oluvchilarning fanlarga oid bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini ilmiy tadqiqotchilik ko'nikmalari asosida rivojlantirish. |
| T | texnologiya – texnologiya. Tahsil oluvchilarning fanlarga oid bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish. |
| E | engineering – muhandislik. Tahsil oluvchilarning muhandislik sohasiga oid bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirish. |
| A | arts - san'at. Tahsil oluvchilarning san'at va madaniyat sohasidagi dunyoqarashini kengaytirish; bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirish. |
| M | math - matematika. Tahsil oluvchilarning matematika sohasidagi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirish. |

3-topshiriq. **“Muammoli vaziyat” metodi orqali STEAM texnologiyalarining afzalliklarini muhokama qiling.**

“Muammoli vaziyat” metodi - muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

Bosh muammo: STEAM ning afzalliklari va kamchiliklari

| Afzalliklar | Kamchiliklar |
|-------------|--------------|
| | |

**O'qituvchining javobi**

| Afzalliklar | Kamchiliklar |
|--|---|
| Fanlararo integratsiyaning vujudga kelishi | Didaktik tizimlarda yetuk mutaxassilarning yetishmasligi |
| Tahsil oluvchilarda kreativ fikrlash ko'nikma, malakalarni tarkib topishi | Yosh o'qituvchilarda muayyan kompetensiyalarning rivojlanmaganligi |
| Mustaqil va ijodiy fikrlashga zamin yaratilishi | Uzviylik va uzluksizlik kabi didaktik tamoyillarning inobatga olinmasligi |
| Tahsil oluvchilarda ilmiy tadqiqotchilik ko'nikmalari, texnika, muhandislik, fan, san'at, madaniyat, matematikaga oid bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirish | Texnika va muhandislik sohasiga oid zaruriy asbob va uskunalarning har doim ham yetishmasligi |

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Belogurov A.Yu. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshchestva: Monografiya. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s.
2. Makarova.N.S. Didaktika vysshey shkolы. monografiya/ N. S. Makarova, N. A. Duka, N. V. Chekaleva. - 2-ye izd., pererab. i dop. - M.: Izdatelstvo Yurayt, 2019 - 172 s.
3. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
4. Nikishina I.V. Innovatsionnaya deyatelnost sovremennogo pedagoga. Metodicheskoe posobie. – 2012. 76 s.
5. Современные образовательные технологии: педагогика i psixologiya: monografiya. Kniga 16 / O.K. Asekretov, B.A. Borisov, N.Yu. Bu-gakova i dr. – Novosibirsk: Izdatelstvo SRNS, 2015. – 318 s.
6. Gagarin A. Innovatsionnaya didaktika vysshey shkolы: teoriya, texnologii, metody: Elektronnoe uchebnoe posobie./ <https://www.academia.edu/33328359/>
7. Korjuev A.V. Didaktika vysshey shkolы.-M.:Sentyabr, 2019.-238s.
8. Popkov V.P., Korjuev A.V. Didaktika vysshey shkolы.-M.:Mysl, 2020.-234 s.
9. Podlasiy V.P. Pedagogika. Kniga v 3-x chastyax/Didaktika,-M.:Logos, 2013.-468b.



V. GLOSSARIY

| Tushunchalar | Mazmuni |
|------------------------------|--|
| <i>Didaktika</i> | yunoncha «didaktikos» soʻzidan olingan boʻlib, “oʻrgatuvchi”, «didasko» esa – “oʻrganuvchi” maʼnosini bildiradi. U taʼlimning nazariy jihatlari (taʼlim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, taʼlim beruvchi va taʼlim oluvchilar faoliyati mazmuni, taʼlim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, taʼlim jarayonini takomillashtirish yoʻllari va hokazo muammolar) ni oʻrganuvchi pedagogikaning tarkibiy qismi hisoblanadi. |
| <i>Oʻrgatish –</i> | oʻqitish maqsadini amalga oshirish boʻyicha pedagogning tartiblangan faoliyati |
| <i>Oʻrganish –</i> | anglash, mashq qilish va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni, oldin egallanganlari oʻzgaradi |
| <i>Oʻqitish –</i> | qoʻyilgan maqsadga erishishga yoʻnaltirilgan pedagog bilan oʻquvchilarning tartiblangan oʻzaro harakati |
| <i>Taʼlim –</i> | oʻqitish jarayonida egallanadigan bilim, koʻnikma, malakalar, kompetensiya va fikrlash usullari tizimi |
| <i>Koʻnikma –</i> | egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi, oʻzlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qoʻllash usullarini egallash |
| <i>Malaka –</i> | avtomatlashgan, biror bir usul bilan bexato bajarish, koʻnikmaning takomillashgan darajasi |
| <i>Kompetensiya –</i> | tugallangan bilim, koʻnikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qoʻllay olish layoqati |
| <i>Mazmun –</i> | oʻqitish jarayonida egallanishi lozim boʻlgan ilmiy bilim, amaliy koʻnikma va malakalar, faoliyat, fikrlash usullari tizimi |
| <i>Maqsad –</i> | oʻqitishning nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida qay yoʻsinda safarbar etilishi |



| | |
|--------------------------------|--|
| Paradigma – | aniq vaqt doirasida ilmiy jamoatchilikka muammolarni aniqlash va ularni hal etish modeli sifatida taqdim etiladigan barcha ilmiy yutuqlarga tegishli tadqiqot vazifalarini hal etish namunasi sifatida qabul qilingan nazariya |
| Shakl – | o'quv jarayonining tashqi ifodasi, uning ichki mohiyati, mantig'i, mazmuni uchun qobiq. |
| Metod – | o'qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) yo'li |
| Vosita – | o'quv jarayonining predmetli qo'llab-quvvatlanishi, yangi materialni o'zlashtirish jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan foydalaniladigan ob'ekt. |
| Natija – | o'quv jarayonining so'nggi mahsuli, belgilangan maqsadlarning amalga oshganlik darajasi |
| Ma'lumot - | ta'lim-tarbiya natijasida olingan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'n ikma va malakalar hamda shakllangan dunyoqarashlar majmuidir. Insonning shaxs sifatida shakllanishi, tarbiyalanishi va ta'lim olishi pedagogik jarayonda sodir bo'ladi |
| Mahorat – | bu murakkab ishni tez, aniq bajarishning yengilligi, mehnatning yuqori sifati va barqaror maromidir |
| Pedagogik jarayon – | pedagogik kategoriyalardan biri bo'lib, ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan kattalarning pedagogik faoliyati ta'sirida tashkiliy shakllantirilgan va mazmunan boyitilgan hamda "...tarbiyachining yo'naltiruvchi va olib boruvchi rahbarlik roli natijasida tarbiyalanuvchining o'z-o'zini taraqqiy ettirishidir" |
| Pedagogik faoliyat- | estetik, axloqiy, siyosiy, iqtisodiy kabi maqsadlarga muvofiq ravishda yosh avlodni hayotga tayyorlashning aqlan o'ylab ko'rilgan, katta yoshdagilarning ijtimoiy zarur bo'lgan mehnatining o'ziga xos turidir |
| Tarbiya qonuniyatlari – | bu bir tomondan, ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning xususiyatlari, ikkinchi tomondan, shaxsning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan barqaror aloqalar yig'indisi |



| | |
|--------------------------------|--|
| O‘z-o‘zini baholash– | mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish asosida o‘z shaxsiga baho berishga yo‘naltirilgan faoliyat metodi |
| Tashkil etish – | qo‘yilgan maqsadni samarali amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar bo‘yicha tartiblangan didaktik jarayon |
| Fanlararo aloqadorlik - | OTM fanlari tarkibida amal qiladigan ob‘ektiv o‘zaro aloqalarni aks ettirishni ta‘minlaydigan didaktik shartlardan biridir |
| Innovatsiya- | yangilik, yangilik, o‘zgarishni anglatadi; innovatsiya vosita va jarayon sifatida yangi narsani kiritishni o‘z ichiga oladi. Pedagogik jarayonda innovatsiya o‘qitish va tarbiyalashning maqsadi, mazmuni, usullari va shakllariga yangiliklarni kiritishni, o‘qituvchi va tahsil oluvchilarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etishni nazarda tutadi |



VI. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

10. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
11. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
12. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
13. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
14. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

15. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T.:O‘zbekiston, 2018.
16. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.
24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25



yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

25. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi "O'qituvchi va murabbiylar–yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir". Xalq so'zi gazetasi 2020 yil 1 oktyabr, №207 (7709).

26. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabr "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-sonli Qarori.

27. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevral, "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4623-sonli qarori.

Sh. Maxsus adabiyotlar

28. Belogurov A.Yu. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshchestva: Monografiya. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s.

29. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhammedova. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim. – Samarqand: "Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi" nashriyoti, 2019. 312 b.

30. Yejak Ye.V. Psixologicheskoe obespechenie professionalnogo razvitiya pedagoga v usloviyax riskov sovremennogo obrazovaniya. diss... dok.psixol. nauk. – Rostov-na-Donu.: 2017. - 315 s.

31. Inoyatov U.I. va boshq. Pedagogika: nopedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun mo'ljallangan darslik.-T.: TDPU – 2013. – 256 b.

32. Ishmuhamedov R.J., M.Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar (ta'lim tizimi xodimlari, metodistalar, o'qituvchilar. tarbiyachi va murabbiylar uchu o'quv qo'llanma)-T.:2013.-279 b

33. Makarova.N.S. Didaktika vysshey shkoly.monografiya/ N. S. Makarova, N. A. Duka, N. V. Chekaleva. - 2-ye izd., pererab. i dop. - M.: Izdatelstvo Yurayt, 2019 - 172 s.

34. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: "Sano-standart", 2015. – 208 b.

35. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: "Sano-standart", 2015. – 120 b.

36. Nikishina I.V. Innovatsionnaya deyatelnost sovremennogo pedagoga. Metodicheskoe posobie. – 2012. 76 s.

37. Obrazovanie v sifrovuyu epoxu: monografiya / N. Yu. Ignatova; M-vo obrazovaniya i nauki RF; FGAOU VO UrFU, 2017. – 128 s.



38. Современные образовательные технологии в учебном процессе вуза: методическое пособие / авт.-сост. Н. Е. Kasatkina, Т. К. Gradusova, Т. А. Jukova, Ye. A. Kagakina, O. M. Kolupaeva, G. G. Solodova, I. V. Timonina; отв. ред. Н. Е. Kasatkina. – Kemerovo: GOU «KRIRPO», 2011. – 237 s.

39. Современные образовательные технологии: педагогика и психология: монография. Книга 16 / O.K. Asekretov, B.A. Borisov, N.Yu. Bu-gakova i dr. – Novosibirsk: Izdatelstvo SRNS, 2015. – 318 s.

40. Gagarin A. Innovatsionnaya didaktika vysshey shkolы: teoriya, texnologii, metody: Elektronnoe uchebnoe posobie./ <https://www.academia.edu/33328359/>

41. Korjuev A.V. Didaktika vysshey shkolы.-M.:Sentyabr, 2019.-238s.

42. Popkov V.P., Korjuev A.V. Didaktika vysshey shkolы.-M.:Mysl, 2020.-234 s.

43. Podlasiy V.P. Pedagogika. Kniga v 3-x chastyax/Didaktika,.-M.:Logos, 2013.-468b.

IV. Internet saytlar

44. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

45. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi

46. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi

47. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali Ziyonet

48. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi